

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- (8-o'zb-1)Sulton Husayn Boyqaro davrida Xuroson davlatida qanday ishlar amalga oshirildi?
  - 1) xo'jalik va madaniy hayot ancha yuksak darajada rivojlandi;
  - 2) mamlakat obodonchiligi yo'lida katta ishlar amalga oshirildi;
  - 3) Movarounnahrda nisbatan siyosiy barqarorlik ta'minlandi;
  - 4) o'zaro ichki nizolar avj oldi;
  - 5) soliqlar muttasil oshirilib borildi;
  - 6) Yaqin Sharq davlatlariga bosqinchilik urushlari amalga oshirildi.

A) 1, 4, 6  
B) 2, 5, 6  
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6  
D) #1, 2, 3
- (8-o'zb-1)Xuroson davlatida qo'shhokimiyatchilik vujudga kelishiga nima sabab bo'ldi?
  - A) #Sulton Husayn Boyqaroning vafot etishi
  - B) Abu Saidning vafot etishi
  - C) Amir Temurning vafot etishi
  - D) Shayboniyxonning Movarounnahrda hujumi
- (8-o'zb-1)Xuroson hukmdori Shohrux 1447-yili vafot etgach, toj-u taxt uchun kurash avjiga chiqdi. Natijada, Xuroson davlati.....
  - A) Safaviylar davlati tarkibiga qo'shildi
  - B) Shayboniyxon qo'l ostiga o'tdi
  - C) #o'n bir qismga bo'linib ketdi
  - D) o'nga yaqin mustaqil davlatga bo'lindi
- (8-o'zb-1)XVI asr bo'sag'asida Temuriylar davlati taxti uchun kurash maydoniga kim chiqdi?
  - A) Ulug'bek
  - B) Abu Said
  - C) Husayn Bayqaro
  - D) #Bobur
- (8-o'zb-1)Abu Said 1469-yilda urushda halok bo'lgach, Movarounnahr hokimiyatini boshqargan hukmdorlarni ketma-ketlikda to'g'ri ko'rsating.
  - A) Sulton Mahmud - Sulton Ahmad - Sulton Ali - Boysung'ur Mirzo
  - B) Sulton Ahmad - Boysung'ur Mirzo - Sulton Mahmud - Sulton Ali
  - C) #Sulton Ahmad - Sulton Mahmud - Boysung'ur Mirzo - Sulton Ali
  - D) Sulton Mahmud - Sulton Ali - Sulton Ahmad - Boysung'ur Mirzo
- (8-o'zb-1)Sulton Ahmad Mirzo Farg'ona ustiga yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchrashining sababi nimada?
  - 1) erta qish kirib qolganligidan qo'shinning kiyim zaxirasidagi muammolari;
  - 2) Samarqand qo'shini Quvasoy ko'prigidan o'tayotganda sinib, natijada ko'p kishi suvga g'arq bo'ladi;
  - 3) otlarga o'lat tegadi, qo'shin orasida vahima va sarosimalik boshlanadi;
  - 4) mahalliy xalq g'animlarga qaqshatqich zarba bera boshlaydi;
  - 5) Aysi himoyachilarining mardonavor kurashi;
  - 6) Samarqandda boshlangan g'aloyonlar.

A) 1, 2, 3  
B) #2, 3, 4  
C) 1, 3, 6  
D) 2, 3, 4, 5, 6
- (8-o'zb-1)XV asr oxirida quyidagi hukmdorlarni hukmronlik qilgan joylari bilan to'g'ri ko'rsatilgan holda qayd eting.
  - 1) Bobur Mirzo;
  - 2) Boysung'ur Mirzo;
  - 3) Sulton Mahmudxon;
  - 4) Muhammad Mazid tarxon

a) Samarqandda;  
b) Andijonda;  
c) Toshkentda;  
d) Turkistonda

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d
- B) 1-b; 2-c; 3-a; 4-d
- C) 1-d; 2-b; 3-c; 4-a
- D) #1-b; 2-a; 3-c; 4-d

8. (8-o'zb-1) Shayboniyxondan yordam ololmagan Boysung'ur Mirzo kam sonli qo'shini va yaqinlari bilan .....huzuriga qochdi.

- A) Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon
- B) Turkiston hukmdori Muhammad Mazid Tarxon
- C) Buxoro hokimi Darvish Muhammad Tarxon
- D) #Quddus hukmdori Xusravshoh

9. (8-o'zb-1) Boburning bolalik va yoshlik yillari qaysi shaharlarda o'tgan edi?

- A) Andijon va Farg'ona
- B) Marg'ilon va Axbi
- C) Toshkent va Quva
- D) #Andijon va Axbi

10. (8-o'zb-1) Abu Said Mirzo o'g'li Umarshayx Mirzoni (Boburning otasi) dastlab qaysi viloyatning hokimi qilib tayinlagan edi?

- A) Farg'ona
- B) Andijon
- C) #Kobul
- D) Xo'jand

11. (8-o'zb-1) Bobur Mirzo taxtga chiqqanining dastlabki yillarida yosh bo'lganligi tufayli qaysi bekning yordamida davlatni boshqargan edi?

- A) Uzun Hasan
- B) #Hojiqozi
- C) Xusravshoh
- D) Xoja Abdullo

12. (8-o'zb-1) Bobur Mirzo 1497-yil Samarqandni ... qamaldan keyin bosib oldi.

- A) #7 oylik
- B) 100 kunlik
- C) 5 oylik
- D) 3 oylik

13. (8-o'zb-1) Temuriylar o'rtasida toju taxt uchun kurash davom etayotgan davrda "Hamma bir-biridan qo'rqar edi. O'zlaricha shohlik talab qilib mamlakatda ig'vo urug'ini sochardilar", deb qaysi tarixchi yozgan edi?

- A) Gulbadanbegim
- B) #Muhammad Solih
- C) Hofiz Kuhakiy
- D) Bobur

14. (8-o'zb-1) 1495-yillarda Andijon, Samarqand, Toshkent va Hirotda hukmronlik qilgan temuriylarni aniqlang.

- A) Bobur Mirzo, Sulton Mahmud, Sulton Mahmudxon, Badiuzzamon
- B) Johongir Mirzo, Sulton Ali, Ahmad Tanbal, Muzaffar Xusayn
- C) #Bobur Mirzo, Boysung'ur Mirzo, Sulton Mahmudxon, Husayn Bayqaro
- D) Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Husayn Bayqaro

15. (8-o'zb-1) Noto'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) #1497-yil Bobur Samarqandda olti oydan ko'proq hukmronlik qilgan
- B) 1496-yil Boysung'ur Mirzoga qarshi og'alari Sulton Ali yurish qilgan
- C) "Boburnoma" asarida Shayboniyxonning nomi Shaybog'xon deb berilgan
- D) 1431-yil Abulxayrxon Xorazmni egalladi

16. (8-o'zb-1) Abu Said Mirzo Amir Temurning qaysi o'g'li avlodi hisoblanadi?

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) Mirzo Jahongir
- B) #Mironshoh Mirzo
- C) Umarshayx Mirzo
- D) Shohrux Mirzo

17.(8-o'zb-1)1494-1495-yillarda Samarqandda hukmronlik qilgan temuriy hukmdorni aniqlang.

- A) #Sulton Mahmud
- B) Sulton Ahmad
- C) Boysung'ur Mirzo
- D) Sulton Ali Mirzo

18.(8-o'zb-2)Shayboniyxon taxtga kelgunga qadar bir nechta hokimlar qo'l ostida xizmat qilgan edi. U Buxoroda kimning xizmatida bo'lganligini aniqlang.

- A) Qorachabek
- B) Muhammad Mazid Tarxon
- C) Sulton Mahmudxon
- D) #Darvish Muhammad

19.(8-o'zb-2)O'rta Osiyodagi turli hukmdorlarga xizmat qilish Shayboniyga qanday imkon berdi?

- A) #Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshi bilib olish
- B) Abulxayrxon davlatini qayta tiklashda ittifoqchilar to'plash
- C) bobosining davlatida hukmdor bo'lish
- D) temuriy hukmdorlardan jang san'ati va mahoratini o'rganish

20. (8-o'zb-2)Dashti Qipchoq deb ataluvchi hudud qaysi asrdan boshlab shu nom bilan tilga olina boshlagan?

- A) XII asr
- B) #XI asr
- C) XIV asr
- D) IX asr

21.(8-o'zb-2)Qaysi daryo o'rta asrlarda Yoyiq deb atalgan edi?

- A) Volga
- B) #Ural
- C) Dnepr
- D) Dnestr

22.(8-o'zb-2)Shayboniyxon bobosi Abulxayrxon qachon Dashti Qipchoqda "o'zbek ulusi" nomli davlat tuzgan?

- A) #XV asrning 20-yillarida
- B) XV asrning o'rtalarida
- C) XV asrning 80-yillarida
- D) XV asrning oxirlarida

23. (8-o'zb-2)Shayboniyxon bobosi Abulxayrxon tuzgan davlatni qachon qayta tikladi?

- A) XV asrning 20-yillarida
- B) XV asrning o'rtalarida
- C) #XV asrning 80-yillarida
- D) XV asrning oxirlarida

24. (8-o'zb-2)Muhammad Shayboniyxon nechanchi yilda tug'ilgan?

- A) #1451-yil
- B) 1461-yil
- C) 1456-yil
- D) 1449-yil

25. (8-o'zb-2)Sirdaryoning yuqori oqimi, Tyanshandan Dnepr daryosining quyi oqimigacha cho'zilgan hududlar qaysi manbalarda "Dashti Qipchoq" deb yuritilgan?

- A) g'arb manbalarida
- B) Xitoy manbalarida
- C) #arab va fors manbalarida

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

D) Vizantiya manbalarida

26.(8-o'zb-2)Abulxayrxon 1446-yil qaysi hududni egallaydi?

- A) #Sirdaryoning o'rta oqimi
- B) Sirdaryoning quyi oqimi
- C) Xorazm va Darband
- D) Amudaryoning chap sohili

27.(8-o'zb-2)Dashti Qipchoqni sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'lib turadigan geografik ob'ektni aniqlang.

- A) Qoraqum sahrosi
- B) #Ural daryosi
- C) Dnepr daryosi
- D) Kaspiy dengizi

28.(8-o'zb-2)Shayboniyxonning O'rta Osiyo shaharlarini bosib olishdagi ketma-ketlikni ko'rsating.

- A) #Shohruxiya, Farg'ona, Urganch, Hirot
- B) Samarqand, Urganch, Toshkent, Buxoro
- C) Farg'ona, Shohruxiya, Qunduz, Urganch
- D) Samarqand, Buxoro, Hirot, Farg'ona

29.(8-o'zb-3)Shayboniyxon Movarounnahrni zabt etishga kirishganidan 11 yil o'tib ...

- A) Bobur Samarqandni ikkinchi marta qo'lga kiritdi
- B) Shayboniyxon tomonidan Xuroson zabt etib bo'lindi
- C) #Shayboniy Eron hukmdori shoh Ismoil bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi
- D) Bobur Mirzo Kobulga borib, u yerda hokimiyatni qo'lga kiritdi

30.(8-o'zb-3)Safaviylar davlatining rasmiy diniy yo'nalishi qanday edi?

- A) Siniylik
- B) #Shialik
- C) Vahobiylik
- D) Hanafiylik

31.(8-o'zb-3)Shayboniyxon tomonidan Balx shahrining bosib olingan yilini aniqlang.

- A) 1503-yil
- B) 1505-yil
- C) 1507-yil
- D) #1506-yil

32.(8-o'zb-3)1503-yilda Shayboniyxon Toshkent va Shohruxiya shaharlarini egallagach, u yerga kimni hokim etib tayinlaydi?

- A) ukasi Mahmud Sultonni jiyani
- B) Ubaydullo sulton va o'g'li MuhammadTemurlarni
- C) #amakilari Ko'chkinchi sulton va Suyunchxo'jalarni
- D) Hamza sulton va uning farzandlarini

33.(8-o'zb-3)Dunyodagi musulmon aholining qanchasi sunniylik mazhabiga mansub?

- A) 70%
- B) 30%
- C) 80%
- D) #90%

34. (8-o'zb-3)Shoh Ismoil 1510-yil Xurosonni egallagandan so'ng, bu yerga kimni hukmdor etib tayinlaydi?

- A) #Tahmaspni
- B) Boburni
- C) Xusravshohni
- D) Abbosni

35.(8-o'zb-3)Ma'lumki, Zuhrobegi Shayboniyxonga xat yozib Samarqandni unga topshirishni aytgan edi. Ayni paytda o'g'li Sulton Ali Mirzoga ma'lum bir hududlarni berishni Shayboniyxonga shart sifatida qo'ygan. Ushbu hududlarni aniqlang.

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) Buxoro, Kesh, Qarshi, G'uzor
- B) Hisor, G'uzor, Nasaf, Kattaqo'rg'on
- C) #Termiz, Chag'oniyon, Hisor, Badaxshon
- D) Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Shohruxiya

36.(8-o'zb-3)Qaysi voqeadan so'ng Muhammad Shayboniyxon butun Movarounnahrni egallashga kirishdi?

- A) #Abulxayrxon davlatini qayta tiklagandan keyin
- B) Samarqand Muhammad Shayboniyxon tomonidan uzil-kesil egallangach
- C) Toshkent va Shohruxiyani egallagandan keyin
- D) Urganch Shayboniyxon tomonidan bosib olingandan keyin

37. (8-o'zb-3)Shoh Ismoil va Shayboniyxon o'rtasidagi jang qaysi shahar yaqinida ro'y bergan edi?

- A) Balx
- B) Hirot
- C) #Marv
- D) Ray

38.(8-o'zb-3) "Sunnilylik" so'zi arabchada qanday ma'noni anglatadi?

- A) #an'ana, xatti-harakat
- B) jang, urush
- C) guruh, tarafdor
- D) haqiqat, adolat

39.(8-o'zb-3)Shayboniyxonning shoh Ismoilga qo'ygan talabi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) #Shayboniyxon nomini xutbaga qo'shib o'qitish
- B) Eron hududining shimoliy qismi va qizini Shayboniyxonga berish
- C) sunnilylik mazhabiga o'tish va Shayboniyxonga taslim bo'lish
- D) Eron hududi orqali Makkaga boriladigan yo'lni Shayboniyxon ixtiyoriga berish

40. (8-o'zb-3)Shayboniyxon hokimiyatining muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat edi?

- 1) Dashti Qipchoq qabilalarining rahnamolari Abulxayrxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro qirg'inlarning yana takrorlanishini also istamaganliklari;
  - 2) Mo'g'uliston hukmdorlari Movarounnahrda harbiy yurishni har tamonlama qo'llab-quvvatlaganliklari;
  - 3) Safaviylar davlatining kuchayishi;
  - 4) Dashti Qipchoq qabilalarining o'troq hayot tarzida yashashni orzu qilishlari;
  - 5) Dashti Qipchoq qabilalarining rahnamolari Muhammad Shayboniyxonni o'z orzularini ro'yobga chiqarishga birdan bir qodir qudrat deb hisoblaganliklari;
  - 6) Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrda ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi;
  - 7) Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari va aholining ma'lum qismi Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaganliklari;
- A) 1, 2, 3, 4, 5
  - B) #1, 4, 5, 6, 7
  - C) 2, 3, 4, 7
  - D) 2, 3, 4, 5, 6, 7

41.(8-o'zb-3) Muhammad Shayboniyxon tomonidan temuriylarning Xuroson davlatini qiyinchiliksiz egallashining asosiy sababi.....?

- A) Husayn Boyqaroning muntazam qo'shini bo'lmaganligi
- B) Alisher Navoiyning vazir lavozimida bo'lmaganligi
- C) #davlatning o'zaro ichki urushlar oqibatida inqirozga yuz tutganligi
- D) Shayboniyxon tomonidan Movarounnahrning osonlik bilan egallanganligi va bu yerdagi mahalliy hokimlarning unga yordam berishi

42. (8-o'zb-3)Islom dinidagi mazhablardan biri shialik qanday ma'noni anglatadi?

- A) odat, an'ana
- B) xatti-harakat
- C) yumush, ish
- D) #guruh, tarafdor

43.(8-o'zb-4)Bobur Mirzo Samarqandni ikkinchi marta kimning taklifi bilan egallaydi?

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) Zuhrobegi  
B) #shayxulislom Abulmakorim  
C) Sulton Mahmud  
D) Hojiqozi
- 44.(8-o'zb-4)Saripul qishlog'i yaqinidagi jangda kimlar to'qnashgan edi?  
A) Ubaydulla Sulton va Bobur  
B) #Bobur va Shayboniyxon  
C) Najmi Soniy va Ubaydulla Sulton  
D) Shoh Ismoil va Shayboniyxon
45. (8-o'zb-4)1500-yil kuzida Bobur Samarqandga kelgach, Shayboniyxon qoldirib ketgan ... kishilik askarni qirib tashlaydi.  
A) 700  
B) 500  
C) 800  
D) #600
- 46.(8-o'zb-4)1512-yil 28-aprelda cho'li Malikda Bobur shayboniylardan yengilgach, qayerga chekinadi?  
A) Gijduvonga  
B) Qunduzga  
C) #Hisorga  
D) Qarshiga
- 47.(8-o'zb-4)Ma'limki, shoh Ismoil Boburga yordam berish uchun amir Ahmad boshchiligida qo'shin yuborgan edi. Ular Amudaryodan o'tib qaysi shaharlarni egallaydi  
A) #G'uzor va Qarshi  
B) Termiz va Chag'oniyon  
C) Hisor va Kesh  
D) Termiz va Qarshi
- 48.(8-o'zb-4)Dehlida Bobur podshoh nomiga xutba o'qilgan sanani aniqlang.  
A) 1526-yil 21-aprel  
B) 1527-yil 17-may  
C) #1526-yil 27-aprel  
D) 1527-yil 16-mart
- 49.(8-o'zb-4)Bobur vafot etgach, "Bog'i Orom"ga dafn qilingan edi. U qaysi daryo bo'yida joylashgan?  
A) Gang  
B) Panj  
C) Hind  
D) #Jamna
- 50.(8-o'zb-4)"Boburnoma"asari nechanchi yillar voqealarini o'z ichiga oladi?  
A) 1483-1529-yillar  
B) 1494-1530-yillar  
C) 1490-1526-yillar  
D) #1493-1529-yillar
- 51.(8-o'zb-4)Bobur Mirzo jang taktikasidagi pistirma qo'yish uslubini kimlardan o'zlashtirgan edi?  
A) Shayboniylardan  
B) Turklardan  
C) #mo'g'ullardan  
D) afg'onlardan
- 52.(8-o'zb-4)Quyidagi qaysi shaharda "Bobur va jahon adabiyoti" muzeyi tashkil etilgan?  
A) Agrada  
B) Dehlida  
C) #Andijonda  
D) Kobulda

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

53.(8-o'zb-4)Boburning "Mubayyin" asarida ... bayon etilgan?

- A) jang taktikalari va uslublari
- B) se'riy janrlar va vaznlar
- C) o'sha davr harbiy va siyosiy jarayonlar
- D) #o'sha davr soliq tizimi va uni yig'ish qoidalari

54.(8-o'zb-4) "Humoyunnoma" asari muallifining yozishicha, Movarounnahr o'lkasida chig'atoy, temuriy va shayboniylar o'rtasidagi ayovsiz janglar necha yil davom etgan?

- A) 25 yil
- B) 15 yil
- C) 9 yil
- D) #11 yil

55.(8-o'zb-4)1504-yil sentabr oyida ...

- A) #Bobur Kobulga borib hokimiyatni egalladi
- B) Shayboniyxon Farg'onani egalladi
- C) Shayboniyxon Shohruxiyani egalladi
- D) Shayboniyxon Urganchni egalladi

56.(8-o'zb-4)Zahiriddin Muhammad Bobur necha yoshida vafot etgan?

- A) 34
- B) 43
- C) #47
- D) 51

57.(8-o'zb-4)1512-yil 28-aprelda Bobur Mirzo qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratgan shayboniylarni aniqlang.

- A) Sultonshoh va Ahmad sulton
- B) Ko'chkinchi sulton va Suyunchxo'jalar
- C) Mahmud sulton va Ubaydulla sulton
- D) #Muhammad Temur va Ubaydulla sulton

58.(8-o'zb-4)Qachon O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Bobur tavaludining 510 yilligi keng miqyosda nishonlandi?

- A) 1992-yilda
- B) #1993-yilda
- C) 1994-yilda
- D) 1995-yilda

59.(8-o'zb-4)1512-yilda Boburga yordamga kelgari safaviylar nomdor sarkardasi Najmi Soniyning asli ismi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) amir Ismoil
- B) amir Hamid
- C) amir Muhammad
- D) #amir Ahmad

60. (8-o'zb-4)"Bobumoma" asarida qaysi mamlakatlarning xalqlari tarixi va geografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan?

- A) #Afg'oniston, Hindiston, Movarounnahr,Eron
- B) Movarounnahr.Yettisuv.Kavkaz-Sibir
- C) Hindi-Xitoy,Hindiston,Arabiston,Eron,Movarounnahr
- D) Eron,Hindiston,Xitoy,Misr

61. (8-o'zb-4) "Boburnoma" dan olingan quyidagi gapni davom ettiring. "Hindistonning bir ulug' aybi budurkim, ..."

- A) yog'ingarchilik yo'qdur
- B) #oqar suvi yo'qdur
- C) iqlimi issiqdur
- D) aholisi ko'p va ular ochdur

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- 62.(8-o'zb-5)Shayx Muhammad Islomdan keyin kim Buxoroda shayxulislom lavozimini egallagan edi?  
A) ukasi Shayx Abulmakarim  
B) o'g'li Shayx Abdulla  
C) #o'g'li Shayx Abubakr Sa'd  
D) jiyani Shayx Abdulaziz
- 63.(8-o'zb-5)Shayboniy Abdulmo'min o'ldirilgach, ichki nizolarlardan foydalangan qozoq xoni Tavakkal Movarounnahrqa qo'shin tortib, qaysi shaharlarni egallab oldi?  
A) #Axsi, Andijon, Toshkent va Samarqandni  
B) O'sh, Marg'ilon, Shohruxiya va O'ratepani  
C) Turkiston, Taroz, Samarqand va Buxoroni  
D) Samarqand, Buxoro, Kesh va Qarshini
- 64.(8-o'zb-5)Ma'lumki, Ubaydullaxonning tariximizda xizmatlari katta. Quyidagi ko'rsatilgan javoblarning qay biri Ubaydullaxonning xizmatlarini e'tirof etadi?  
1) manbalarda yozilishicha, ikki qo'ltig'iga ikki odamni olib qal'a devori ustida mashq qilgan;  
2) Ismoil Safaviy va qizilboshlilarning hujumini bartaraf etib, Movarounnahrni ularning harbiy siyosiy tazyiqidan saqlab qoldi;  
3) tarixchi, musiqachi, ajoyib suvoriy, suzuvchi, qilichboz, kamonboz edi;  
4) Buxoroning markaz sifatidagi nufuzini oshirdi;  
5) o'z davlatining chegarasini Shayboniyxon davridagi sarhadlarni tiklashga harakat qildi;  
6) mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurash va tarqoqlikka barham berdi;  
7) oltin va kumushdan tangalar zarb qildirdi.  
A) 1, 2, 3, 4, 5  
B) #2, 4, 5, 6  
C) 1, 3, 5, 7  
D) 2, 3, 4, 6
- 65.(8-o'zb-5)Abdullaxon I vafotidan so'ng vujudga kelgan qo'shhokimiyatchilikni eslang. Buxoro va Samarqandda kimlar hukmronlik qilgan?  
A) Buxoroda Ibodulla Sulton, Samarqandda Pirmuhammad Sulton  
B) Buxoroda Abdulamin, Samarqandda Sulaymon Sulton  
C) #Buxoroda Abdulatifxon, Samarqandda Abdulazizxon  
D) Buxoroda Abdulazizxon, Abdulatifxon Samarqandda
- 66.(8-o'zb-5)1601-yilda Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamol mavzeyida kimlar o'rtasida jang bo'ladi?  
A) Jahongir Sulton va Ibodulla Sulton  
B) Tavakkal va Pirmuhammadxon  
C) #Pirmuhammadxon va Boqi Muhammad  
D) Boqi Muhammad va Abdulmo'min
67. (8-o'zb-5)Jo'ybor shayxlari qaysi sulola hukmronligi davridan boshlab davlat ishlarida muhim lavozimlarni egallab kelgan edi?  
A) Temuriylar  
B) #Somoniyilar  
C) Shayboniyilar  
D) Qoraxoniylar
- 68.(8-o'zb-5)Abdullaxon II nechanchi yilda tug'ilgan?  
A) 1543-yil  
B) 1556-yil  
C) 1537-yil  
D) #1534-yil
- 69.(8-o'zb-5)Pirmuhammadxon va qozoq xoni Tavakkal o'rtasidagi hal qiluvchi jang qayerda bo'lgan edi?  
A) Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamol mavzeida  
B) #Miyonqolning Uchqora mavzeida  
C) Jizzax yonidagi Sangzor darasida  
D) Toshkentning Bo'zsuv daryosi bo'yida

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

70.(8-o'zb-5)Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'min qayerda o'ldirilgan edi ?

- A) Zarafshon bo'yida
- B) #O'ratepa va Zomin oralig'da
- C) Seistonda
- D) Toshkent va Chinoz oralig'ida

71.(8-o'zb-5)Pirmuhammadxon va Boqi Muhammad o'rtasidagi aloqaning buzilishiga nima sabab bo'lgan edi?

- A) Boqi Muhammadning Eron bilan pinhona aloqa o'rnatganligi
- B) #Jaloir va do'rmon qabilalarining ig'vosi
- C) Pirmuhammadxonning qozoqlardan olingan o'ljaning hammasini o'ziniki qilib olishi
- D) Boqi Muhammadning butun hokimiyatni egallab olishga intilishi

72.(8-o'zb-5)Jo'ybor shayxi Muhammad Islom nechanchi yillarda yashagan?

- A) 1483-1558-yillar
- B) 1491-1572-yillar
- C) #1493-1563-yillar
- D) 1497-1583-yillar

73. (8-o'zb-5)Abdullaxon II ning quyida ko'rsatilgan hududlarni egallagan yillari bilan to'g'ri ko'rsating.

- 1) Balx;
- 2) Samarqand;
- 3) Toshkent va Farg'ona;
- 4) Badaxshon;
- 5) Xorazm.
- a) 1574-yil;
- b) 1578-yil;
- c) 1583-yil;
- d) 1584-yil;
- e) 1595-yil.
- A) 1-a; 2-c; 3-b; 4-e; 5-d
- B) #1-a; 2-b; 3-c; 4-d; 5-e
- C) 1-d; 2-b; 3-c; 4-a; 5-e
- D) 1-e; 2-b; 3-c; 4-d; 5-a

74.(8-o'zb-5)Shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrning qaysi yillarida qo'sh hokimiyatchilik yuzaga kelgan edi?

- A) 1540, 1599-yillar
- B) 1541, 1556-yillar
- C) #1541, 1598-yillar
- D) 1557, 1599-yillar

75.(8-o'zb-5)Abdullaxon II vafot etgach, Buxoro xonligida sodir bo'lgan og'ir vaziyatdan foydalangan Eron shohi Abbos bostirib kirib qaysi shaharlarni egallaydi?

- A) Marv, Xorazm, Samarqand, Kesh
- B) #Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Hirot
- C) Qarshi, Hisor, G'uzor, Samarqand
- D) Balx, Badaxshon, Marv, Chag'oniyon

76.(8-o'zb-5)1533-1540-yillar Buxoroda hukmronlik qilgan Ubaydulloxon kimning o'g'li bo'lgan?

- A) Abu Saidning o'g'li Sulton Mahmudning
- B) #Shohbudoq Sulton o'g'li Mahmud Sultonning
- C) Ko'chkunchi Sultonning
- D) Buxoro hukmdori Sulton Ma'sud Mirzoning

77. (8-o'zb-5)Pirmuhammad Boqi Muhammaddan 1601yil engilib necha yoshida qatl etildi?

- A) 60
- B) 70
- C) #80

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

D) 90

78.(8-o'zb-6)Shayboniylar Movarounnahr va Xurosonda hokimiyatni egallagach Dashti Qipchoqda yashovchi kimlar yurtimizga kirib keldi?

- A) #O'zbeklar degan nom olgan turkiy urug' qabilalari
- B) Qozoq qabilalari
- C) Mo'g'il qabilalari
- D) Tojik qabilalari

79.(8-o'zb-6)Movarounnahrda Dashti Qipchoqdan kirib kelgan elatlarni aniqlang?

- 1) qo'ng'iroq
  - 2) mang'it
  - 3) barlos
  - 4) uyg'ur
  - 5) nayman
  - 6) usun
  - 7) do'rmon
  - 8) yuz
  - 9) kenagas
  - 10) turkman
  - 11) baxrin
  - 12) ming
- A) 1,2,3,4,6,7,10,11
  - B) 2,4,5,6,8,9,10,12
  - C) #1,2,4,5,7,8,9,11,12
  - D) 3,4,5,7,8,9,10,11,12

80.(8-o'zb-6)Tarixiy manbalarda keltirilishicha qancha o'zbek urug'lari nafaqat O'zbekiston hududida, balki butun O'rfa Osiyo hududlarida ham tarqalgan?

- A) 68ta
- B) #92ta
- C) 98 ta
- D) 102ta

81.(8-o'zb-6)O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan qaysi etnik gurihlar garchi X—XII asrlar bu yerda o'rnmashganliklariga qaramasdan, o'zbek elati tarkibiga kirganlar?

- A) yag'mo, usun, tuxsi, xalach, qipchoq, naymanlar
- B) baxrin, yag'mo, uyg'ur, yuz, xalach, do'rmon, turkmanlar
- C) kenagas, yag'mo, usun, ming, xalach, qipchoqlar
- D) #usun, chig'il, yag'mo, tuxsi, xalach, qipchoq turkmanlar

82.(8-o'zb-6) "O'zbek" atamasi haqida hozircha "O'zbekiston tarixi" fanida yakdil xulosa bo'lmasada bu to'g'rida ayrim fikrlar mavjud? Shu fikrlarni to'g'ri ko'rsating.

- 1) Ayrimlar Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'il qabilalarining bir qismi o'zlarini erkin tutganliklari sababli „o'zbek“, ya'ni „o'z-o'ziga bek, xo'jayin“ deb atagan deydi.
  - 2) Ba'zi olimlar Shayboniyxon boshchiligida Dashti Qipchoqdagi o'zlariga „o'zbek“ degan nomni qabul qilgan qabilalar daryo oralig'idagi yerlarga ko'chib kelgach, o'zbek atamasi shakllandi, deydilar.
  - 3) Ba'zilar „o'zbek“ etnonimini Oltin O'rda xoni O'zbekxon (XIV asr) nomi bilan bog'laydilar.
  - 4) Boshqa olimlar esa Oq O'rda (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi)da yashagan turk-mo'g'il qabilalariga „o'zbeklar“ degan nom berilgan, degan fikrni bildiradilar.
  - 5) „O'zbek“ atamasi o'g'iz qabilalari tarkibidagi „o'z“ urug'i nomidan olingan, degan fikrlar ham mavjud.
- A) 1,2,3
  - B) #1,3,4,5
  - C) 2,3,4
  - D) 1,2,4,5

83.(8-o'zb-6)Movarounnahrning qadimiy xalqi qanday qilib „o'zbek“ nomi bilan atala boshlandi?

- A) Movarounnahrda turk-mo'g'il qabilalari o'zlarini erkin tutganliklari sababli o'zlarini „o'zbek“, ya'ni „o'z-o'ziga bek, deb atasha boshlagach

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- B) #Shayboniyxon boshchiligida Dashti Qipchoqdagi o'zlariga „o'zbek" degan nomni qabul qilgan qabilalar ikki daryo oralig'idagi yerlarga ko'chib kelgach  
C) Oltin O'rda xoni O'zbekxon (XIV asr) Movoraunnahrga kirib kelgach  
D) O'g'iz qabilalari tarkibidagi „o'z" urug'i nomi yoyilgach

84.(8-o'zb-6)O'zbek xalqining ajdodlan azaidan qanday xalq bo'lgan?

- A) Yarim ko'chmanchi  
B) #O'troq  
C) Ko'chmanchi  
D) Yarim o'troq

85.(8-o'zb-7)Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lida qator islohotlar o'tkazdi. Bularga.....

- 1) pul islohoti  
2) yer-suv islohoti  
3) soliq islohoti  
4) boshqaruv islohoti  
5) ijtimoiy islohot  
6) harbiy islohot  
A) 1,3,4,6  
B) #1,2,4,5  
C) 2,3,5,6  
D) 2,3,4,5

86. (8-o'zb-7)Shayboniyxon avlodlari Qashqadaryoning irmoqlaridan Kesh viloyati yerlarini sug'orish uchun ... kanallar qazitgan edi?

- A) 20 ga yaqin  
B) #10 dan ortiq  
C) 30 ga yaqin  
D) 40 ga yaqin

87.(8-o'zb-7)Fransiyada General Shtatlar chaqirilgan (1302 yil)dan 205yil o'tib .....

- A) Ko'chkinchixon navbatdagi pul islohoti o'tkazdi  
B) Shayboniyxon Zarafshon daryosidn suv ayirg'ich qurdi  
C) #Shayboniyxon pul islohoti o'tkazdi  
D) Buxoroda yirik usti berk savdo rastasi Abdullaxon timi qurildi

88.(8-o'zb-7)1556-1585 yillarda Zarafshon daryosida qanday suv ayirg'ichlari qurilgan?

- A) Sangzor,Tuyatortar,Xoja Ka'ab,Karmana  
B) #Mehtar Qosim,Jondor,Karmana,Choharminor  
C) Hovuzixon,MehtarQosim,Sangzor,Chorjoy  
D) Afshona,Tuyatortar,Xoja Ka'ab,Jondor

89.(8-o'zb-7) 1556-1585 yillarda Nurota tog'ida qanday suv ombori qurilgan?

- A) Afshona  
B) Jondor  
C) #Oqchob  
D) Hovuzixon

90.(8-o'zb-7) 1556-1585 yillarda Murg'ob vohasida qanday suv ombori qurilgan?

- A) Oqchob  
B) Jondor  
C) Vaxsh  
D) #Hovuzixon

91.(8-o'zb-7)Somonjuq dashtini obodonlashtirishga xizmat qilgan qanday kanal qazilgan?

- A) #Xoja Ka'ab  
B) Tuyatortar  
C) Jondor  
D) Choharminor

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- 92.(8-o'zb-7)Angliyada"jon solig'i"deb ataluvchi soliq joriy etilgan (1377- yil)dan 200 yil o'tib .....
- A) Shayboniyxon pul islohot i o'tkazdi
  - B) Ko'chkinchixon navbatdagi pul islohot i o'tkazdi
  - C) Shayboniyxon Zarafshon daryosida suv ayirg'ich qurdi
  - D) #Buxoroda yirik usti berk savdo rastasiAbdullaxon timi qurildi
- 93.(8-o'zb-7)Abdullaxon II qayerda qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan band qazdirdi?
- A) Zarafshon daryosida Karmana yaqinida Xonbandi o'rnida
  - B) Sangzor daryosidan Jizzax vohasiga quyiladigan Boysun yaqinida
  - C) #Nurota tumanidagi Oqchob yaqinida Beklarsoy darasida
  - D) Qo'ng'iro't tumanidagi Chorjoy yaqinida Kaltaminor kanalida
- 94.(8-o'zb-7)Shayboniylar hukmronlii yillarida oily davlat idorasi .....deb atalgan.
- A) saroy
  - B) #dargoh
  - C) devon
  - D) o'rda
- 95.(8-o'zb-7)Kim davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning birinchi maslahatchisi hisoblangan?
- A) Ajotaliq
  - B) #naqib
  - C) devonbegi
  - D) parvonachi
- 96.(8-o'zb-7)Shaybomylar davlatida kimlar moliya va xo'jalik ishlarini boshqargan?
- A) otaliq
  - B) naqib
  - C) #devonbegi
  - D) parvonachi
- 97.(8-o'zb-7)Xonning farmon va yorliqlarida kimning nomi birinchi bo'lib yozilgan?
- A) otaliqning
  - B) #naqibning
  - C) devonbegining
  - D) parvonachining
- 98.(8-o'zb-7)Xon siyosatiga fuqorolarning munosabatini o'rganib va bu siyosatning daxlsizligini ta'minlagan mansabdorni aniqlang.
- A) dodxoh
  - B) #ko'kaldosh
  - C) xon yasovuli
  - D) eshikog'a boshi
99. (8-o'zb-7)Shayboniylar davlatida ixrojot qanday soliq turi sanalgan?
- A) #davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq
  - B) diniy idoralar va diniy lavozimlarni saqlash uchun olinadigan soliq
  - C) har bir kishidan olinadigan jon solig'i
  - D) sug'oriladigan yerlardan olinadigan soliq turi bo'lib.daromadning 30-40 foizinitashkil qilgan
100. 8-o'zb- 7)Shayboniylar davlatida parvonachi qanday vazifalarni bajargan?
- A) davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning birinchi maslahatchisi hisoblangan
  - B) #xon farmonlari, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazgan
  - C) moliya va xo'jalik ishlarini boshqargan
  - D) viloyatlarda Hokimlik qiluvchi shaxzodalarga rahnamolik qiluvchi, xonning joylardagi nazoratchisi
101. (8-o'zb-7)Shayboniylar davlatida muhtasib lavozimidagi shaxs qanday ishlarni amalga oshirgan?
- A) shariat qonunlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirgan
  - B) sud ishlariga boshchilik qilgan

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- C) dargohga tushgan arizalarni qabul qitish va ulargavob qaytarishni amalga oshirgan  
D) #mamlakat fuqarolarining axloq qoidalariga rioya qilishlarini nazo-rat qilish bilan shug'ullangan
102. (8-o'zb-7)Shayboniylar davlatida xonning farmon va yorliqlariga qaysi lavozim sohibining nomi birinchi bo'lib yozilgan?  
A) devonbegining  
B) #naqibning  
C) parvonachining  
D) otaliqning
103. (8-o'zb-7) Abdullaxon II ga qadar qaysi yillarda shayboniylar davlatida pul islohotlari o'tkazilgan?  
A) 1501, 1507-yillarda  
B) #1507, 1515-yillarda  
C) 1553, 1597-yillarda  
D) 1515, 1553-yillarda
104. (8-o'zb-7)Shayboniylar davlatida naqib qanday vazifalarni bajargan?  
A) #davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning birinchi maslahatchisi hisoblangan  
B) xon farmonlari, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazgan  
C) moliya va xo'jalik ishlarni boshqargan  
D) viloyatlarda hokimlik qiluvchi shaxzodalarga rahnamolik qiluvchi, xonning joylardagi nazoratchisi
105. (8-o'zb-7)Karmana, Jondor, Mehtar Qosim va Chahorminor suv ayirg'ichlari qaysi daryoda joylashgan?  
A) Amudaryo  
B) #Zarafslion  
C) Surxondaryo  
D) Sirdaryo
106. (8-o'zb-7)Shayboniylar davlatida xon yasovuli mansabidagi amaldor qanday ishlar bilan mashg'ul bo'lgan?  
A) #xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar masalasi bilan  
B) xon farmonlarini, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazish bilan  
C) dargohga tushgan arizalarni qabul qilish va ularga javob qaytarish bilan  
D) xon siyosatiga fuqarolarning munosabatini o'rganish va bu siyosatning daxlsizligini ta'minlash bilan
107. (8-o'zb-7)Dargoh xavfsizligi, undagi tartib hamda kelgan-ketganlardan xabardor bo'lib turish masalalari bilan kim shug'ullangan?  
A) dodxoh  
B) ko'kaldosh  
C) xon yasovuli  
D) #eshikog'a boshi
108. (8-o'zb-7)Shariat qonunlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirgan lavozim bu....  
A) Qozikalon  
B) #Shayxulislom  
C) Muhtasib  
D) Miroxur
109. (8-o'zb-7)..... lavozimida ishlagan amaldor sud ishlariga yetakchilik qilgan.  
A) #Qozikalon  
B) Shayxulislom  
C) Muhtasib  
D) Miroxur
110. (8-o'zb-7)Mamlakat fuqorolarini axloq qoidalariga rioya qilishini nazorat qilish bilan shug'ullangan amaldor bu...?  
A) Qozikalon  
B) Shayxulislom  
C) #Muhtasib

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

D) Miroxur

111. (8-o'zb-7)Xonga tegishli yilqi,ot-ulov ya ularning ta'minoti bilan shug'ullanuvchi amaldorni aniqlang.

- A) qushchi
- B) shig'ovul
- C) #miroxur
- D) qo'rchiboshi

112. (8-o'zb-)Shayboniylar davrida aholidan .....ortiq soliq va to'lovlar olinardi.

- A) 10 turdan
- B) #20 turdan
- C) 30 turdan
- D) 40 turdan

113. (8-o'zb-7)Davlat muassasalari,qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq .....deb ataladi.

- A) xiroj
- B) tanobona
- C) mushrifona
- D) #ixrojot

114. (8-o'zb-7)Buxoro xonligida miroxurning vazifasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) chet davlatlardan keladigan elchilarni qabul qilish bilan shug'ullangan
- B) #xonning yilqisi, ot-ulovi va ularaing ta'minoti bilan shug'ullangan
- C) qurol-aslaha xizmati boshlig'i bo'lgan
- D) xonning ovini tashkil etish bilan shug'ul-langan

115. (8-o'zb-7)1507-yilda o'tkazilgan pul islohotining mohiyati qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) hamma shaharlarda bir xil vaznli - 5,2 grammii yaiigi oltin tanga va kumush chaqa pullar muomalaga kiritildi
- B) #mamlakatning hamma katta shaharlarida bir xil vaznga ega - 5,2 grammlı yangi kumush tangalar va mis chaqa pullar zarb etitishining yo'lga qo'yihshi
- C) mis fulus va dirhamlar zarb etilishi yo'lga qo'yildi
- D) hamma shaharlarda bir xil vaznli 5,2 grammlı yangi kumush tangalar va mis chaqa pullar muomalaga kiritildi

116. (8-o'zb-7)Chahorminor va Mehtar Qosim qanday inshootlar turiga kiradi?

- A) kanallar
- B) #suv ayirg'ich
- C) to'g'onlar
- D) suv omborlari

117. (8-o'zb-7)1556-1585-yillar oralig'ida qaysi daryolardan qaysi hudud va vohalarga suv chiqarishga imkon beruvch kanallar qazilgan?

- A) Amudaryodan Buxoro va Qarshiga, Sirdaryodan Shohruhiyaga
- B) #Amudaryodan Chorjo'yga, Murg'obdan Marvga,Vaxshdan uning atroflariga
- C) Zarafshondan Buxoro va Vardanze atroflariga,Norindan Xo'jand atroflariga
- D) Sirdaryodan Mirzacho'lga, Zarafshondan Kattaqo'rg'on va uning atroflariga

118. (8-o'zb-7)1556-1585-yillar oralig'ida Movarounnahrda qaysi suv omborlari qurilgan?

- A) #Oqchab, Hovuzixon
- B) Karmana, Jondor, Mehtar Qosim
- C) Xoja Kaab, Afshona
- D) Tuyatortar, Somonjuq

119. (8-o'zb-7)Shayboniylar davlatida mamlakatda adolat mezonlariga amal qilinishini kim nazorat qilgan?

- A) ko'kaldosh
- B) #dodxoh
- C) otaliq
- D) parvonachi

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

120. (8-o'zb-7) Shayboniylar davrida yer egaligining qanday turlari bo'lgan?

- A) Iqto, amlok, suyurg'ol, jogir
- B) #Iqto, suyurg'ol, tanho, jogir
- C) Tanho, jogir, ixrojot, iqto
- D) Iqto, vaqf, tanho, ixrojot

121. (8-o'zb-7) Buxoro xonligida fuqarolarning axloq qoidalariga rioya qilishlarini kim nazorat qilib turgan?

- A) Dodhoh
- B) Xon yasovuli
- C) Ko'kaldosh
- D) #Rais

122. (8-o'zb-7) 1556-1585 yillar oralig'ida Sangzor daryosidan Jizzax vohasiga qaysi kanal ochilgan?

- A) Xo'ja ka'b kanali
- B) #Tuyatortar kanali
- C) Afshona kanali
- D) Vaxsh kanali

123. (8-o'zb-7) Buxoro xonligida zarur vaziyatlarda elchilik vazifasini kim bajargan?

- A) #Naqib
- B) Otaliq
- C) Parvonachi
- D) Devonbegi

124. (8-o'zb-7) Mamlakatda iqtisodiy ahvol og'irlashgach, 1515- yil Ko'chkinchixon pul islohotini o'tkazgan edi. Natijada nechanchi yilga kelib ahvol bir maromga tushdi?

- A) 1517-yil
- B) 1521-yil
- C) #1527-yil
- D) 1533-yil

125. (8-o'zb-7) Shayboniylar davlatida kimning nomi xonning farmon va yorliqlarida birinchi bo'lib yozilgan?

- A) Ko'kaldosh
- B) Shayxulislom
- C) #Naqib
- D) Otaliq

126. (8-o'zb-7) Abdullaxon II Beklarsoy darasidagi qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan band qurdirgan edi. U qaysi tumanda joylashgan?

- A) Kattaqo'rg'on
- B) O'ratepa
- C) G'uzor
- D) #Nurota

127. (8-o'zb-7) Shayboniylar davlatida qo'rchiboshi qanday lavozim bo'lgan?

- A) #qurol-aslaha xizmati boshlig'i
- B) chet el elchilarini qabul qiluvchilar boshlig'i
- C) harbiylar o'rtasidagi ziddiyatlarni ko'rib chiqib, ularni bartaraf etuvchi amaldor
- D) xon shaxsiy askarlari boshlig'i

128. (8-o'zb-7) Shayboniylar davlatida chet el elchilarini qabul qilish xizmatining boshlig'i lavozimi qanday atalgan?

- A) #Shig'ovul
- B) Mehtar
- C) Qushchi
- D) Muhrdor

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

129. (8-o'zb-7)Abdullaxon II davrida Samonjuq dashtini obodonlashtirishga xizmat qilgan qaysi kanal qazilgan?

- A) Hovuzixon
- B) #Xo'ja Ka'ab
- C) Chahorminor
- D) Sangzor

130. (8-o'zb-7)Ma'lumki, Abdullaxon II pul islohotini o'tkazgan. Bunga ko'ra u ...

- A) kumush va mis tangalar zarb qildirgan va faqat Buxoroda zarbxonalar faoliyat ko'rsatib, qolganlari yopilgan
- B) #oltin pul zarb etishni yo'lga qo'ygan va uning tarkibiga qiymati past bo'lgan boshqa ma'danlar aralashdirilmasligini qattiq nazorat qilgan
- C) Mo'g'uliston va Eron davlatlari tangalari namunasida 5,2 grammlik yangi kumush tangalar zarb qildirgan
- D) yangi zarb qildirilgan oltin, kumush va mis tangalarning hajmini oldingisiga qaraganda miqdorini kamaytirgan, ammo qiymatini saqlab qolgan

131. (8-o'zb-8)Ma'lumki, Abdullaxon II 1577-yil Hindistonga Eronga qarshi yurish qilish uchun elchi yuborgan edi. Hind hukmdori Akbarshohning bunga rozi bo'lmaslik sababi nima edi?

- A) Akbarshohning Eron bilan munosabatlari yaxshiligi
- B) Akbarshohning Eronni bosib olishdan manfaatdor emasligi, aksincha Turkiyaga qarshi Eronni qo'llab-quvvatlash
- C) #Akbarshohning Hindiston shimolidagi Sing va Kashmirni bosib olish uchun tayyorlanayotganligi
- D) Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'min hind shohi Akbarshohning izzat-nafsigaga tekkanligi

132. (8-o'zb-8)Ma'lumki, Usmoniylar va Shayboniylarning Safaviylarga qarshi kurashida din bir niqob edi. Aslida esa bu qaysi hududlar uchun olib borilayotgan siyosiy kurashning natijasi edi?

- A) Hindiston, Eron, Ozarbayjon
- B) Iroq, Suriya, Falastin, Xuroson
- C) Sharqiy Eron, Armaniston, Hindiston
- D) #G'arbiy Eron, Kavkaz va Xuroson

133. (8-o'zb-8)Abdullaxon II tomonidan Moskvaga yuborilgan elchilar o'z xonlari nomidan savdogarlarning qaysi hudud bo'ylab erkin o'tishlariga ijozat so'raydilar?

- A) Kaspiy dengizining g'arbiy sohillari bo'ylab
- B) #Volga bo'ylab
- C) Ural va Dnepr bo'ylab
- D) Qora dengiz sohillari bo'ylab

134. (8-o'zb-8)Abdullaxon II nima sababdan Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilib, bu orqali o'z davlatining siyosiy ahvolini mustahkamlashga erishmoqchi bo'lgan edi?

- A) davlatning shimoliy chegaralarini kengaytirish va mustahkamlash
- B) podsho Ivan III davrida Rossiya qudratining oshib ketishi
- C) # podsho Ivan IV Grozniy davrida Rossiyaning mavqei kuchaya borishi
- D) Ivan Grozniyning Abdullaxon II ga Eron uchun kurashda yordam berishi haqidagi taklifi

135. (8-o'zb-8)Qaysi hol XVI asrda Rossiyaga O'rta Osiyoga boradigan savdo yo'llarini nazorat qilish imkonini berdi?

- A) #Ivan Grozniy tomonidan Qozon xonligi, Hojitarxon xonligi, Volga bo'ylari va G'arbiy Sibirning bosib olinishi
- B) Abdullaxon II ning to'satdan vafot etishi va Movarounnahrda siyosiy kurash
- C) qozoq juzlarining Rossiya tobe'ligiga o'tishi
- D) Ivan IV va Abdullaxon o'rtasida tuzilgan savdo bitimi

136. (8-o'zb-8)Nima sababdan XVI asrda Rossiya Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi?

- A) Rossiyaning cho'yanlari va mo'ynalari Buxoro bozorlarida qimmatbaho otlar qiymatida baholanganligi sababli
- B) #Buxoroning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligi va Rossiya Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lardi

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- C) Rossiyaning Buxoro va boshqa xonliklardan arzon xom ashyolarni olib ketib, o'z davlatida qayta ishlab, tovar holatida yana xonliklarga bir necha o'n baravarga sotish rejasi  
D) O'rta Osiyoning qimmatbaho va zotdor otlarini Buxoro xonligi orqali arzon narxlarda qo'lga kiritish rejasi tufayli

137. (8-o'zb-8)XVI asrda Rossiya Buxoro xonligi bilan savdo sotiq ishlarini rivojlantirishda birinchi navbatda qayerga chiqish maqsadi hisobga olingan edi?

- A) Eronga  
B) Xitoyga  
C) Arab davlatlariga  
D) Hindistonga

138. (8-o'zb-8)Abdullaxon II Hindistonga necha marta elchi jo'natgan edi?

- A) 3  
B) 4  
C) 2  
D) 5

139. (8-o'zb-8)Muhammad Shayboniyxon Eron Safaviylariga qarshi kurashish to'grisida kim bilan shartnoma tuzgan edi?

- A) Sulton Salim  
B) Navro'z Ahmadxon  
C) Boyazid II  
D) Ivan III

140. (8-o'zb-8)Sulton Salim elchisi Muhammadbek Buxoroga nechanchi yil kelgan edi?

- A) 1512-yil  
B) 1524-yil  
C) 1527-yil  
D) 1515-yil

141. (8-o'zb-8)Shayboniyzodalarning Movarounnahr uchun kurashida Usmoniylar kimga yordam uchun harbiy kuch jo'natgan edi?

- A) Abdullaxon II ga  
B) Abdulmo'minga  
C) Ko'chkinchixonga  
D) Navro'z Ahmadga

142. (8-o'zb-8)XVI asrda Buxoro va Eron manfaatlari to'qnashgan asosiy nuqta qaysi hudud edi?

- A) Xuroson  
B) Badaxshon  
C) Xorazm  
D) Kavkaz

143. (8-o'zb-8)Abdullaxon II nechanchi yillarda Moskvaga elchilar yuborgan edi?

- A) 1558-1559-yillarda  
B) 1557-1558-yillarda  
C) 1583-1584-yillarda  
D) 1593-1595-yillarda

144. (8-o'zb-9)Shayboniyylar davridagi ta'lim islohotiga ko'ra noto'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) har bir mahallada maktab ochildi  
B) bolalarga 6 yoshdan ta'lim beriladigan bo'ldi  
C) maktablarda 4 yil o'qilgan  
D) madrasalarda ta'lim uch bosqichli edi

145. (8-o'zb-9)Quyidagilardan qaysi biri xonaqoh hisoblanadi?

- A) Fayzobod, Do'stum  
B) Fathulla qushbegi, Abdurahim Sadr  
C) Qosimshayx, Fayzobod

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

D) Abdulazizxon, Baroqxon

146. (8-o'zb-9)Quyida berilgan allomalardan qaysi biri jarroh bo'lgan?

- A) #Mavlono Baqo
- B) Xoja Muhammad
- C) Mavlono Hasan
- D) Xoja Hakim

147. (8-o'zb-9)Xoja Hasan Nisoriyning "Muzakkiri ahhob" asarida qayd etilgan mavlono Kavkabiylar qaysi fanlar ilmidan shuhrat topgan edi?

- A) tibbiyot va geografiya
- B) #matematika va astronomiya
- C) tarix va adabiyot
- D) mantiq va falsafa

148. (8-o'zb-9)Hofiz Ko'hakiy nechanchi yilda Zahiriddin Bobur huzuriga, Hindistonga borgan edi?

- A) 1527-yil
- B) 1529-yil
- C) #1528-yil
- D) 1530-yil

149. (8-o'zb-9) "Buxoro juda katta shahar, unda g'ishtlik imoratlar, serhasham binolar ko'p. Hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki, ularning misli dunyoda yo'qdir", ushbu ta'rif kimga tegishli?

- A) Fazlulloh ibn Ro'zbehon
- B) Muhammad Solih
- C) #Antoniylar Jenkinson
- D) Muhammadbek

150. (8-o'zb-9)Ubaydullaxonning o'zbek tilidagi devoni nechta ruboiydan iborat?

- A) 306
- B) #435
- C) 345
- D) 125

151. (8-o'zb-9)Shayboniylar davrida bunyod etilgan hazrati Qosimshayx xonaqosi qayerda joylashgan edi?

- A) Buxoroda
- B) Samarqandda
- C) Miyonqolda
- D) #Karmanada

152. (8-o'zb-9)Quyidagi allomalarning qaysi biri Ali Qushchining nabirasi bo'lgan?

- A) Muhammad Haydar
- B) Sultonali Samarqandiy
- C) #Hofiz Ko'hakiy
- D) Kamoliddin Binoiy

153. (8-o'zb-9) "Zubdat ul-ozor" asarining muallifini aniqlang

- A) #Ali Nasrullohiy
- B) Zayniddin Vosifiy
- C) Mirzo Muhammad Haydar
- D) Hofiz Ko'hakiy

154. (8-o'zb-9)Quyidagi allomalarning qaysi biri yulduzshunos olim bo'lgan?

- A) Mavlono Rafe
- B) Shohali ibn Sulaymon
- C) Hakim Shahrizabziy
- D) #Qiyomiddin Shaydo

155. (8-o'zb-9)Toshkent hokimi Darvishxonning buyrug'i bilan yozilgan asarni aniqlang.

- A) "Tarixi Rashidiy"

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- B) #“Shifo ul-ilal”
- C) “Badoye ul-vaqoe”
- D) “Muzakkiri ahhob”

156. (8-o'zb-9)Bobokalon muftiy Samarqandiy qalamiga quyidagi qaysi asarlar mansub?

- A) “Ma’rifat samti qibla”, “Ajoyib ut-taboqat”
- B) #“Risola dar ilmi hisob”, “Vaziyat bar sahor qism”
- C) “Shifo ul-ilal”, “Hisobi amal shabaka”
- D) “Hayotnoma”, “Ajoyib ut-taboqat”

157. (8-o'zb-9)Quyidagi qaysi javobda Zahiriddin Muhammad Boburning xolavachchasi ismi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Xo'bnigorxonim
- B) Hofiz Ko'hakiy
- C) #Mirza Muhammad Haydar
- D) Gulbadanbegim

158. (8-o'zb-9)Shayboniylarning ta'lim sohasidagi islohotiga ko'ra ...

- A) #har bir mahallada maktab ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi
- B) 7 yillik ikki bosqichli madrasa ta'limi joriy qilindi va u yerda 6 yoshdan o'qitish belgilandi
- C) Buxoroda 21 ta maktab ochildi va unda 4-5 yil o'qitish belgilandi
- D) o'qitishning dastlabki bosqichi madrasa ta'limi deb belgilandi va u yerda diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham o'qitilishi belgilandi

159. (8-o'zb-9)XVI asrda matematika va astronomiya sohasida qanday asarlar yozilgan?

- A) “Dastur al-iloj”, “Muqaddimoti dastur al-iloj”, “Shifo ul-ilal”, “Umdat ul-kuhliya fil-amror ulbasariya”
- B) #“Hisobi amali Shabaka”, “Risola dar ilmi hisob”, “Viziyat bar chahor qism”, “Tuhfayi amir”, “Ma’rifati samti qibla”, “Risola dar muaddili qamar”, “Ajoyib ut-tabaqot”
- C) “Ajoyib ut-tabaqot”, “Tarixi Toshkand”, “Badoyi ul-vaqoye”, “Ma’rifati samti qibla”
- D) “Risola dar ilmi hisob”, “Zubdat ul-ozor”, “Muqaddimoti dastur al-iloj”, “Tuxfayi amir”, “Ajoyib ut-tabaqot”, “Tarixi Toshkand”

160. (8-o'zb-9)XVI asrda tibbiyot sohasida qanday asarlar yozilgan?

- A) “Hisobi amali Shabaka”, “Risola dar ilmi hisob”, “Visayat bar chahor qism”, “Tuhfayi amir”, “Ma’rifati samti qibla”
- B) “Ajoyib ut-tabaqot”, “Tarixi Toshkand”, “Badoyi ul-vaqoye”, “Ma’rifati samti qibla”
- C) #“Dastur al-iloj”, “Muqaddimoti dastur al-iloj”, “Shifo ul-ilal”, “Umdat ul-kuhliya fil-amrorul-basariya”
- D) “Risola dar ilmi hisob”, “Zubdat ul-ozor”, “Muqaddimoti dastur al-iloj”, “Tuxfayi amir”

161. (8-o'zb-9)Sultonali Samarqandiy 1526-yili qaysi sohaga doir va qanday asarlar yozgan?

- A) tibbiyot sohasiga doir “Shifo ul-ilal”, “Umdat ul-kuhliyafil-amror ul-basariya”
- B) tarixga oid “Ajoyib ut-taboqat”, “Zubdat ulosor”
- C) #tibbiyot sohasiga doir “Dastur al-iloj”, “Muqaddimoti dastur al-iloj”
- D) astronomiyaga oid “Ma’rifati samti qibla”, “Ajoyib ut-tabaqot”

162. (8-o'zb-9)Quyidagi shayboniylar davrining yetuk tarixchilaridan qay biri hajga borib, Usmonlilar Turkiyasi sultoni bilan uchrashadi va vazirlikka qilingan taklifni rad etadi?

- A) Muhammad Haydar
- B) Ali Nasrullohiy
- C) #Hofiz Ko'hakiy
- D) Muhammad Amin

163. (8-o'zb-9)Shayboniylar davrida aniq fanlarga oid yozilgan asarlar mualliflarini to'g'ri ko'rsatgan holda belgilang.

- 1) “Hisobi amali shabaka”;
- 2) “Risola dar ilmi hisob”;
- 3) “Tuhfayi amir”;
- 4) “Ma’rifat samti qibla”
- 5) “Risola dar muaddili qamar”;
- 6) “Hoshiyli shahri ashkoli ta'sis”;

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

7) "Ajoyib ut-tabaqot"

- a) Muhammad Amin ibn Ubaydulla Mo'minobodiy;
- b) Bobokalon muftiy Samarqandiy;
- c) Tursun Zominiy;
- d) Muhammad Husayn munajjiru Buxoriy;
- e) Mahmud ibn Ahmad Foriziy;
- f) Tojis-Saidiy;
- g) Said Muhammad Tohir ibn Abulqosim

- A) 1-a; 2-f; 3-e; 4-d; 5-f; 6-c; 7-b
- B) 1-f; 2-e; 3-c; 4-d; 5-b; 6-a; 7-g
- C) 1-b; 2-a; 3-d; 4-c; 5-e; 6-g; 7-f
- D) #1-a; 2-b; 3-c; 4-d; 5-e; 6-f; 7-g

164. (8-o'zb-9) Shayboniylar davrida yozilgan tarixchi olimlarning asarlari bilan to'g'ri ko'rsatgan holda belgilab chiqing.

- 1) Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohiy;
- 2) Hofiz Tanish Buxoriy;
- 3) Zayniddin Vosifiy;
- 4) Mirza Muhammad Haydar;
- 5) Hofiz Ko'hakiy.

- a) "Tarixi jadidi Toshkand";
- b) "Abdullanoma";
- c) "Badoyi ul-vaqoe";
- d) "Tarixi Rashidiy";
- e) "Zubdat ul-ozor".

- A) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d; 5-e
- B) 1-e; 2-c; 3-b; 4-a; 5-d
- C) #1-e; 2-b; 3-c; 4-d; 5-a
- D) 1-c; 2-e; 3-a; 4-d; 5-b

165. (8-o'zb-9) Qaysi shayboniy hukmdorning yurt obodonchiligi yo'lidagi sa'i-harakatlari tarixchilar tomonidan yuksak baholangan?

- A) #Abdullaxon II
- B) Ubaydullaxon
- C) Abdulazixon
- D) Ko'chkinchixon

166. (8-o'zb-9) Mirza Muhammad Haydar yashagan yillarni aniqlang.

- A) 1512-1563-yillar
- B) #1500-1556-yillar
- C) 1498-1552-yillar
- D) 1486-1550-yillar

167. (8-o'zb-10) Ashtarxoniylar sulolasi Astraxan va uning atrofidagi yerlarda qachondan boshlab hukmronlik qilib kelishgan?

- A) XIII asr 90-yillaridan
- B) XIV asr 40-yillaridan
- C) #XIV asr 80-yillaridan
- D) XV asr 20-yillaridan

168. (8-o'zb-10) Boqi Muhammadxon nechanchi yilda Eron qo'shinlariga zarba berib, Balxni egalladi?

- A) #1602-yil
- B) 1604-yil
- C) 1605-yil
- D) 1603-yil

169. (8-o'zb-10) Quyidagilardan qay biri Boqi Muhammad davrida yuz bermadi?

- A) Eron shohlari qo'shini Buxoro xonligi hududidan haydab chiqarildi
- B) #ichki kurash yana avj oldi, qabila beklari xon hokimiyatiga bo'ysunmay, muxolifatchilikni kuchaytirdilar
- C) qozoqlar xoni Keldimuhammad hujumi to'xtatildi

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

D) Buxoro xonligining qo'ldan chiqqan bir qancha hududlari yana qayta egallandi

170. (8-o'zb-10)Buxoroda markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi bilan Xiva xonlari Buxoro xonligi hududiga bostirib kirishgan. Shunday vaziyatda qaysi Xiva xoni Samarqandni egallab o'z nomiga xutba o'qitgan edi?

- A) Abulg'ozixon
- B) #Anushaxon
- C) Elbarsxon
- D) Eringxon

171. (8-o'zb-10)Nodir Muhammad va Hindiston hukmdori Shoh Jahon o'g'illari o'rtasidagi jang qayerda bo'lgan edi?

- A) #Maymana yo'lida
- B) Tahrirobod yaqinida
- C) Qunduz shahrida
- D) Murg'ob daryosi bo'yida

172. (8-o'zb-10)Ashtarxoniylarning qaysi hukmdori Makkaga hajga borib, o'sha yerda vafot etgan?

- A) #Abdulazixon
- B) Nodir Muhammad
- C) Vali Muhammadxon
- D) Imomqulixon

173. (8-o'zb-10)1688-yil Subhonqulixon tomonidan Xiva hokim etib tayinlangan shaxsni aniqlang.

- A) Ibrohom dodxoh
- B) Muhammadniyoz
- C) #Shohniyoz
- D) Temurg'oz

174. (8-o'zb-10)Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo'shinlarini tor-mor keltirilgach, Vali Muhammad qismati nima bo'ldi?

- A) hajga jo'natildi va qaytib kelgach vafot etdi
- B) Vali Muhammad o'z o'g'li ishlariga yordamchi bo'lishiga majbur etildi
- C) #Vali Muhammad asir olinib qatl etildi
- D) Vali Muhammadning ko'ziga mil tortildi

175. (8-o'zb-10)Imomqulixon davrida qaysi voqealar yuz berdi?

- 1) Eron qo'shinlarini tor-mor keltirib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoldi;
  - 2) Tashkent va xonlikning shimoli-sharqiy chegaralari uchun qozoq, jung'ar, qalmoq va qoraqalpolarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi;
  - 3) Tashkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, Toshkentni o'z tasarrufiga kiritdi;
  - 4) Toshkentdagi qo'zg'olonchilarni ayovsiz jazoladi;
  - 5) markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi;
  - 6) qozoq xoni Keldimuhammad qo'shinlarini mamlakat hududidan haydab chiqarib, qator hududlarni Buxoro xonligiga bo'ysundirdi;
  - 7) qabila beklari xon hokimiyatiga bo'ysunmay muxolifatchilikni kuchaytirdilar.
- A) 1, 2, 3, 4, 5
  - B) 1, 3, 5, 7
  - C) #2, 3, 4, 5
  - D) 2, 3, 4, 6, 7

176. (8-o'zb-10)Nimaning oqibatida Nodir Muhammadxon davrida Buxoro xonligida davlatchilik asoslari zaiflashdi?

- A) Nodir Muhammadxondan norozi bo'lgan bir guruh amirlar Abdulazizni xon deb e'lon qilishi oqibatida
- B) #xonning o'zi mamlakatning asosiy viloyatlarini mulk qilib 12 nafar o'g'li, 2 nafar jiyani va nabirasiga taqsimlab berishi oqibatida
- C) qozoq xoni Keldimuhammad qo'shinlarini mamlakat hududidan haydab chiqarib, qator hududlarni Buxoro xonligiga bo'ysundirishi oqibatida
- D) Hindiston va Eron bilan siyosiy nizoning kelib chiqishi oqibatida

177. (8-o'zb-10)Ashtarxoniylar Abdulaziz xonlik taxtiga qay tariqa chiqdi?

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) #Nodir Muhammadxonidan norozi bo'lgan bir guruh amirlar Abdulazizni xon deb e'lon qilishi natijasida
- B) Hindiston qo'shinlarining ko'magida
- C) Eron qo'shinlarining Balxga hujumi ko'magida
- D) jaloyir va do'rmon qabilalarining qo'llab quvvatlashi natijasida Nodir Muhammad qo'shinlarining mag'lub etilishi tufayli

178. (8-o'zb-10)Nodir Muhammad taxtni egallay olmagach, taqdiri qanday yakun topadi?

- A) Nodir Muhammadning ko'ziga mil tortildi
- B) #Makkaga hajga borayotib yo'lda vafot etadi
- C) Nodir Muhammad asir olinib qatl etildi
- D) Makkaga borib, o'sha yerda vafot etdi

179. (8-o'zb-10)Subhonqulixon davrida ichki va tashqi ahvol qanday bo'lgan?

- 1) markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi;
  - 2) Balx viloyatlarida hokimlik qilayotgan o'g'illariga qarshi urushlar qilishga majbur bo'ldi;
  - 3) Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi urushlar qilishga majbur bo'ldi;
  - 4) Xiva xoni Anushaxon qo'shinlari hujum qilib, Buxoro, Karmana, Vardonze va Samarqandni egalladi;
  - 5) Samarqandda Anushaxon nomiga xutba o'qitilib, uning nomidan tanga pullar zarb etildi;
  - 6) qabila beklari xon hokimiyatiga bo'ysunmay muxolifatchilikni kuchaytirdilar.
- A) 1, 2, 3, 5, 6
  - B) 4, 5, 6
  - C) #2,3,4, 5
  - D) 1, 2, 3, 4

180. (8-o'zb-10)Subhonqulixon qayerdaligidan foydalangan Anushaxon Buxoro atroflariga bostirib kelib u yerlarni talon-taroj qiladi va katta o'ljalor bilan qaytib ketadi?

- A) Qarshidaligidan
- B) Marvdaligidan
- C) Toshkentdaligidan
- D) #Balxdaligidan

181. (8-o'zb-10)Qaysi Ashtarxoniy hukmdorlar qozoqlarga qarshi kurashishga to'g'ri kelgan?

- A) Vali Muhammad, Abulfayzxon, Abdulazizxon
- B) Boqi Muhammad, Subhonqulixon, Abulfayzxon
- C) #Boqi Muhammad, Imomqulixon, Nodir Muhammad
- D) Abdulazizxon, Subhonqulixon, Ubaydullaxon II

182. (8-o'zb-10)Ashtarxoniy lardan kimlar taxtni qaytarib olish uchun Eron madadidan foydalanishga harakat qilgan?

- A) Nodir Muhammad va Abdulazizxon
- B) Subhonqulixon va Abulfayzxon
- C) Boqi Muhammad va Imomqulixon
- D) #Vali Muhammad va Nodir Muhammad

183. (8-o'zb-10)Nima uchun Buxoro xoni Vali Muhammad farzandlarini olib Eronga qochadi?

- A) shimoldan qozoqlarning hujum uyushtirganliklari
- B) mang'it urug'idan bo'lgan otaliqlarning xonga nisbatan uyushtirgan suiqasdi
- C) hind qo'shinlarining mamlakat janubiga hujumi
- D) #buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirganligi sababli

184. (8-o'zb-10)Xiva xoni Abulg'ozixon qaysi yildagi yurishida Qorako'l aholisining bir qismini asir olib ketadi?

- A) 1652-yil
- B) #1655-yil
- C) 1658-yil
- D) 1662-yil

185. (8-o'zb-10)Buxoro xoni Vali Muhammadxonning hukmronlik yillarida davlatda qanday vaziyat yuzaga keladi?

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) mamlakat yagona markaz atrofida birlashdi, bo'ysunishni istamagan qabila boshliqlari yashash joylaridan ko'chirib yuborildi
- B) #ichki kurash yana avj oldi, qabila beklari xon hokimiyatiga bo'ysunmay muxolifatchilikni kuchaytirdilar
- C) qozoqlar xoni Keldimuhammad hujumi to'xtatdi
- D) Buxoro xonligining qo'ldan chiqqan bir qancha hududlari yana qayta egallandi

186. (8-o'zb-10)Boqi Muhammad qanday tadbirlarni amalga oshiradi?

- A) #mamlakat sarhadlari jipsligini mustahkamlash, boshqaruv tizimini izga solish
- B) agrar islohot o'tkazildi, yer egalarining soliq to'lamaslik tartibi bekor qilindi
- C) qo'shin tarkibini yangilash va muntazam qo'shin tashkil etish
- D) mamlakatdan jung'orlarni haydab chiqarish, Toshkentda qozoqlar hukmronligiga chek qo'yish

187. (8-o'zb-10-11) Ashtarxoniylarning qaysi hukmdorlari o'z o'g'illarini qatl qildirgan?

- A) Imomqulixon, Abdulazizxon
- B) Nodir Muhammad, Ubaydullaxon II
- C) Vali Muhammad, Imomqulixon
- D) #Subxonqulixon, Abulfayzxon

188. (8-o'zb-11)Rizoquli boshchiligidagi Eron qo'shini Buxoro xonligiga bostirib kirib, Qarshini ... qamal qilgan edi.

- A) 1 oy
- B) 12 kun
- C) #15 kun
- D) 20 kun

189. (8-o'zb-11)Balx hokimi Mahmudbiy qatag'on qaysi ashtarxoniy hukmdori bilan kurash olib borgan?

- A) Subhonqulixon
- B) #Ubaydullaxon II
- C) Abulfayzxon
- D) Abdulazizxon

190. (8-o'zb-11)Qatag'on urug'ining sardori Mahmudbiy qachon o'zini xon deb e'lon qilgan edi?

- A) 1707-yil
- B) 1711-yil
- C) #1706-yil
- D) 1708-yil

191. (8-o'zb-11)Kenagas urug'i boshlig'i Ibrohimbiy Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishga kirishgan edi. Ibrohimbiy bu harakatda qaysi viloyat hokimlari bilan ittifoq tuzgan edi?

- A) Karmana va Kesh
- B) G'uzor va Qarshi
- C) #Urgut va Miyonqol
- D) Termiz va Chag'oniyon

192. (8-o'zb-11)Nima sababdan Muhammad Hakimbiy boshqa qabilalar aslzodalarining qat'iy noroziligiga sabab bo'ladi?

- A) Nodirshoh tomoniga o'tib ketganligi
- B) #barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i deb tan olinganligi
- C) Qarshi hokimligini kuch bilan idora qilganligi
- D) katta yer egalari mulkini musodara qilganligi

193. (8-o'zb-11)Ibrohimbiy va Rajab Sulton Buxoroni bo'ysundirish uchun kimlardan yordam so'ragan edi?

- A) Qoraqalpoqlardan
- B) Qalmoqlardan
- C) Qipchoqlardan
- D) #Qozoqlardan

194. (8-o'zb-11)Ma'lumki, 1736-yil Nodirshoh o'g'li Rizoquli boshchiligida Buxoro xonligiga qarshi qo'shin yuborgan edi. Ularning maqsadlariga erisholmay Eronga qaytishiga sabab nima edi?

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) Eron qo'shinlarida oziq-ovqat tugab qolishi
- B) #Buxoro xonining Xiva xonidan yordam so'rashi
- C) Buxoro xonining qozoqlardan yordam so'rashi
- D) Eronda shohga qarshi qo'zg'olon ko'tarilishi

195. (8-o'zb-11)Abulfayzxon davrida markaziy hokimiyatning zayiflashuvi siyosiy tarqoqlikni yanada kuchaytirdi.Qaysi hududlar amalda mustaqil bo'lib oladilar?

- A) Samarqand,ShahrisabzKitob,Farg'ona,Qubodiyon
- B) Miyonqol,Nurota,Boysun,Farg'ona,Urgut
- C) #Samarqand,Qarshi,Balx,Farg'ona,Badaxshon
- D) ShahrisabzMiyonqol,Urgut.Farg'ona,Badaxshon

196. (8-o'zb-11)Abulfayzxon davrida oliy hokimiyat (Eron bosqini arafalarida) amalda kimning qo'lida bo'lgan?

- A) Muhammad Hakimbiy
- B) Muhammad Rahimbiy
- C) #Jovshon qalmoq
- D) Ibrohimbiy

197. (8-o'zb-12)Quyidagi voqealarning qaysilari aynan bir yilda sodir bo'lgan edi?

- A) Mahmudbiy qatag'on o'zini xon deb e'lon qildi, Ubaydulloxon II o'ldirildi
- B) Ibrohimbiy va Rajab Sulton Samarqandni egalladi, Mirzo Bedil tavallud topdi
- C) Subxonqulixon Balxni egalladi, Buxoroda Labihovuz majmuasi bunyod etildi
- D) #Ubaydulloxon II pul islohoti o'tkazdi, Buxoroda qo'zg'olon ko'tarildi

198. (8-o'zb-12)Ashtarxoniylar hukmronligi davrida qanday yangi lavozim joriy qilindi?

- A) Rais
- B) #Saroy qutvoli
- C) Mushrif
- D) Inoq

199. (8-o'zb-12)Buxorolik hunarmandlar ... kasb turlari bilan shug'ullangan.

- A) #200 ga yaqin
- B) 150 dan ortiq
- C) 100 ga yaqin
- D) 120 dan ortiq

200. (8-o'zb-12)Imomqulixon hukmronligi yillarida Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal chiqarilgan yillarni aniqlang.

- A) 1615-1618-yillar
- B) 1612-1613-yillar
- C) 1633-1634-yillar
- D) #1614-1615-yillar

201. (8-o'zb-12)Quyidagi qaysi shahar savdogarlarining Sibir shaharlarida o'z savdo rastalari bo'lgan?

- A) Samarqand
- B) Toshkent
- C) #Buxoro
- D) Balx

202. (8-o'zb-12)1633-1634-yillarda qaysi hududda kanal qazilib, vohalarga suv chiqarilgan?

- A) Qarshi cho'lida
- B) Kattaqo'rg'onda
- C) Miyonqolda
- D) #Qo'shqo'rg'onda

203. (8-o'zb-12)Ubaydullaxon II hukmronligi yillarida aholidan yig'iladigan soliq miqdori qanchaga ko'paydi?

- A) 7 foiz
- B) #4 baravar

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- C) 9 foiz
- D) 2,5 baravar

204. (8-o'zb-12)Buxoro xonligida tashqi savdo yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, qimmatbaho toshlar, matolar va oltin iplar qayerdan olib kelingan?

- A) #Hindiston
- B) Xitoy
- C) Eron
- D) Rossiya

205. (8-o'zb-12)Qaysi Ashtarxoniy hukmdori aholidan yetti yillik soliqni birdaniga yig'ib olgan edi?

- A) Abulfayzxon
- B) Ubaydullaxon II
- C) #Subhonqulixon
- D) Abdulazizxon

206. (8-o'zb-12)1712-yil Samarqand aholisi qo'zg'olon ko'tarib, shahar hokimi Sulton To'qsobani haydab yuboradi. To'qsoba qaysi qabiladan bo'lgan?

- A) mang'it
- B) yuz
- C) #kenagas
- D) qatag'on

207. (8-o'zb-12)Ashtarxoniy davrida davlat yerlarishahzodalarga, sayyidlar va din ulamolariga qanday shaklda in'om etilgan?

- A) #suyurg'ol
- B) tanho
- C) mulki xolis
- D) tarxon

208. (8-o'zb-12)Qaysi holatlar Buxoro xonligining harbiy jihatdan o'ta zaiflashuviga olib keldi?

- 1) davlat xazinasining yo'qligi;
  - 2) doimiy qudratli harbiy qo'shin yo'qligi;
  - 3) markaziy-harbiy qo'mondonlikning yo'qligi;
  - 4) qo'shinning zamonaviy qurol-yarog'lar, zambaraklar bilan ta'minlanmaganligi;
  - 5) harbiy qo'mondonlarning yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligi.
- A) 1, 3, 4
  - B) #2, 3,4
  - C) 1, 2, 4, 5
  - D) 3, 4, 5

209. (8-o'zb-12) "Oddiy xalq mushkul ahvolda qoldi, kundalik yeyish-ichishdan mahrum bo'ldi, hatto kafan uchun mato topolmay, jonlarini xudoga topshirdilar", ushbu gaplari kimning qaysi asaridan olingan?

- A) Mirzo Bedilning "To'rt unsur" asaridan
- B) Hofiz Tanish Buhoriyning "Abdullanoma" asaridan
- C) Sayido Nasafiyning "Bahoriyot" asaridan
- D) #Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asaridan

210. (8-o'zb-13)Mir Arab madrasasi mudarrisi Muhammad Sharif Buxoriy nechanchi yillarda yashagan?

- A) #1609-1697-yillar
- B) 1644-1721-yillar
- C) 1617-1694-yillar
- D) 1602-1669-yillar

211. (8-o'zb-13)Quyida keltirilgan asarlarning qaysi biri makon va zamon masalalariga bag'ishlangan?

- A) # "Davriylik haqida risola"
- B) "Bahoriyat"
- C) "Axloq husnlari"
- D) "To'rt unsur"

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

212. (8-o'zb-13)XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligi shaharlarida ... madrasa bo'lgan.

- A) 100 ga yaqin
- B) 120 ta
- C) #150 dan ortiq
- D) 200 dan ortiq

213. (8-o'zb-13)Buxoro xonligi madrasalarida qaysi ilmni o'rganish majburiy hisoblangan?

- A) fors tilini
- B) arab tili grammatikasini
- C) xattotlik san'atini
- D) #fiqh ilmini

214. (8-o'zb-13)Quyidagi qaysi asarda samarqandlik va buxorolik 20 nafar olim haqida ma'lumot berilgan?

- A) "Axloq husnlari"
- B) "Irfon"
- C) "Bahoriyat"
- D) # "Baxr ul-asror"

215. (8-o'zb-13)Mirzo Bedilning asl ismi va urug'ining nomi to'g'ri berilgan javobni toping?

- A) Abdulg'affor, kenagas
- B) Mulla Yusuf, mang'it
- C) Mirolim, do'rmon
- D) #Abdulqodir, barlos

216. (8-o'zb-13)Quyida keltirilgan allomalarning qaysi biri "Abulma'oniyy" degan faxriy nomga sazovor bo'lgan?

- A) So'fi Olloyor
- B) Turdi
- C) #Mirzo Bedil
- D) Sayido Nasafiy

217. (8-o'zb-13)Turdi hajviy she'rlarining ... misra she'ri Subxonqulixon haqidagi hajviyadir.

- A) 135
- B) #165
- C) 124
- D) 212

218. (8-o'zb-13)Keltirilgan shoirlardan qaysi birining asl ismi Mirobid bo'lib, o'zi to'quvchilik bilan shug'ullangan?

- A) #Sayido Nasafiy
- B) Turdi
- C) So'fi Olloyor
- D) Muhammad Sharif

219. (8-o'zb-13)Abdulazizxon tomonidan Buxoro shahridagi qo'sh minorali madrasa nechanchi yilda bunyod etilgan?

- A) #1652-yil
- B) 1678-yil
- C) 1659-yil
- D) 1671-yil

220. (8-o'zb-13)XVIII asr boshlarida bunyod etilgan Shermuhammadbiy va Xoja Qurbonbiy madrasalari qaysi shaharda joylashgan edi?

- A) Karmana
- B) Kesh
- C) Toshkent
- D) #Qarshi

221. (8-o'zb-13)Bedil kulliyoti Bombayda qaysi yili nashr etilgan?

- A) 1886-yil

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- B) #1882-yil
- C) 1883-yil
- D) 1888-yil

222. (8-o'zb-13) Muhammad Sharif Buxoriyning "Xoqonga foydali maslahatlar" kitobida nimalar o'z ifodasini topgan?

- A) tibbiyot, harbiy xizmat, inson organizmining xususiyatlari haqidagi qiziqarli ma'lumotlar
- B) jahonda mavjud bo'lgan yirik davlatlar, buyuk hukmdorlar hayotidan lavhalar
- C) diniy-ma'rifiy she'rlar, dostonlar, qahramonlik eposlari, diniy qissalardan iborat bo'lgan
- D) #shariat qonun-qoidalari, ijtimoiy hayot va axloqiy muammolarga oid ma'lumotlar, hukmdorlar to'g'risida qiziqarli lavhalar

223. (8-o'zb-13) Quyidagi qaysi tarixiy asarlar XVII-XVIII asr boshlari tarixini bayon etadi?

- A) "Taqvodorlar maslagi", "Bahoriyot", "Zubdat ul-ozor", "Ubaydullanoma"
- B) "Tarixi Toshkand", "Abdullanoma", "Badoyi ul-vaqoe", "Tarixi Rashidiy"
- C) "Tarixi oliy Chingiz", "Tarixi Rashidiy", "Tarixi Muqimxoniy", "Tarixi manzuma"
- D) # "Oliyjanob insonlar jasorati xususida sirlar dengizi", "Ubaydullanoma", "Muhit ut-tavorix", "Abulfayzxon tarixi"

224. (8-o'zb-13) Quyidagi allomalardan qay birlari XVII-XVIII asr birinchi yarmida adabiyot sohasida qalam tebratgan?

- A) Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Zayniddin Vosifiy, Mirza Muhammad Haydar, Hofiz Ko'hakiy
- B) #Mirzo Abdulqodir Bedil, Sayido Nasafiy, Turdi, So'fi Olloyor, Mashrab, Xoja Samandar Termiziy, Mutribiy, Samarqandiy, Mulla Sodiq Samarqandiy
- C) Turdi, So'fi Olloyor, Mashrab, Xoja Samandar Termiziy, Mutribiy, Muhammad Amin Mo'minobodiy
- D) Bobokalon Muftiy Samarqandiy, Tursun Zominiy, Muhammad Husayn, Mahmud ibn Ahmad Foriziy

225. (8-o'zb-13) So'fi Olloyorning qaysi asari ilohiy ma'rifat badiiy talqinda bayon etilgan o'zbek falsafiy adabiyotining yetuk namunasi hisoblanadi?

- A) "Bahoriyot"
- B) # "Taqvodorlar maslagi"
- C) "Zubdat ul-ozor"
- D) "Ojizlar saboti"

226. (8-o'zb-13) She'r ilmi, she'r tizimi ashtarxoniyalar davrida qaysi nom bilan atalgan?

- A) nazm ilmi
- B) nasriy ilm
- C) #aruz ilmi
- D) tuyuq ilmi

227. (8-o'zb-13) Sharq she'riyatidagi beshlik she'riy shakl qaysi nom bilan atalgan?

- A) qit'a
- B) murabba
- C) tuyuq
- D) #muxammas

228. (8-o'zb-13) "Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati" asari muallifini aniqlang.

- A) Xoja Samandar Termiziy
- B) Mutribiy
- C) #Subhonqulixon
- D) Sharif Buxoriy

229. (8-o'zb-14) Doniyolbiy davrida qaysi bekliklarning Buxoro amirligiga bo'ysunmaslik harakati kuchaydi?

- 1) Shahrisabz;
- 2) Balx;
- 3) Hisor;
- 4) Nurota;
- 5) Ko'lob;
- 6) O'ratepa;

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- 7) Miyonqol;
- 8) Boysun.
- A) 3, 5, 7, 8
- B) 1, 2, 4, 7
- C) 1, 4, 6, 8
- D) #2, 3, 5, 6

230. (8-o'zb-14) Muhammad Rahimxon markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka urinayotgan qaysi qabilalarga nisbatan turgan joyidan ko'chirib yuborish siyosatini tutdi?

- 1) qo'ng'iro't
- 2) burqut
- 3) yeti urug'
- 4) qipchoq
- 5) do'rmon
- 6) yuz
- 7) kenagas
- 8) bahrin
- 9) saroy
- 10) nayman
- A) 1,2,4,5,6,8,9
- B) 1,3,4,6,7,8,10
- C) #2,3,4,6,7,8,9
- D) 2,3,5,7,8,9,10

231. (8-o'zb-14) Eron shohi Nodirshoh va Abulfayzxon o'rtasidagi shartnoma qayerda imzolanadi?

- A) Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamolda
- B) Jizzax yaqinidagi Uchqora mavzeida
- C) #Zarafshon bo'yidagi Chorbakr qo'rig'ida
- D) Qarshi yaqinidagi Tang'oz qishlog'ida

232. (8-o'zb-14) Eron qo'shinlari Buxoroga qarshi ikkinchi marta hujum qilganda kim Eron tomoniga o'tib ketadi?

- A) #Qarshi hukmdori Muhammad Hakimbiy
- B) Urgut hokimi Ibrohimbiy
- C) Balx hokimi Muhammad hoji
- D) Shahrisabz hokimi Ibrohimbiy

233. (8-o'zb-14) Nodirshoh Buxoro xonligining taslim bo'lish shartlarini kim orqali Abulfayzxonga jo'natadi?

- A) Muhammad Rahimbiy
- B) Rizoquli
- C) #Muhammad Hakimbiy
- D) Ibrohimbiy

234. (8-o'zb-14) Muhammad Rahimbiy qanday imkoniyatdan foydalanib, hokimiyatga da'vogarlik qila boshladi?

- A) Eron shohi qo'shinarining o'zi tomonidaligidan
- B) Muhammad Hakimbiyning o'g'li bo'lganligidan
- C) Abulfayzxonning bosh vaziri bo'lganligidan
- D) #o'zining muntazam qo'shinga egaligidan

235. (8-o'zb-14) Qaysi voqea Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo'l ochib berdi?

- A) Abulfayzxon farmonlarining saroydan tashqariga chiqmasligi
- B) #Nodirshoh o'ldirilganidan so'ng Eronda boshlangan ichki kurashlar
- C) Eron shohi qo'shinarining Buxoroni bosib olishi
- D) Xiva xonining Buxoroga hujumi

236. (8-o'zb-14) Doniyolbiy otaliq hukmronligi davrida yuz bergan voqealarni aniqlang.

- 1) yirik yer egalari davlatni boshqarish ishlarida shu vaqtgacha davom etib kelgan aralashuvlarini keskin kamaytirdi;
- 2) katta yer egalari, qo'shbegi va qozikalonlarning o'zboshimchaligini sindira olmadi;

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- 3) bo'ysunishni ustamagan, markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka urinayotgan qabilalarni turgan joyidan ko'chirtirib yuborish siyosatini tutdi;
- 4) Miyonqol, Nurota, Qo'bodiyon, Boysun, Shahrisabz hamda Urgut beklklarini o'ziga bo'sundirdi;
- 5) barcha mang'it beklariga katta yer-mulkni tanho qilib berdi;
- 6) xalqdan olinadigan soliqlarni ko'paytirdi;
- 7) Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa beklklarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi;
- A) 1, 2, 3, 4, 5  
B) #2, 5, 6, 7  
C) 2, 3, 4, 7  
D) 1, 3, 5

237. (8-o'zb-14) Amir Shohmurodning qaysi tadbiri xalq manfaatlariga tajovuzning oldini oldi?

- A) barchaga yetadigan darajada yerni to'g'ri taqsimlashi va pul islohoti  
B) yer egalarning davlat oldidagi barcha qarzlaridan voz kechishi  
C) barchaning yeri, mol-mulkini qonun bilan rasmiylashtirishi  
D) #kim mol-mulkka xiyonat qilsa, jamiyatdagi martabasidan qat'i nazar qattiq jazoga tortilishi

238. (8-o'zb-14) Muhammad Rahimbiy bo'ysunishni istamagan, markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka uringan qabilalarga nisbatan qanday chora ko'rgan?

- A) #yashayotgan joyidan ko'chirib yuborgan  
B) ularni bir-biriga gij-gijlab, dushman qilib qo'ygan  
C) ulardan ikki barabar soliqlar undirilgan  
D) qabila boshliqlariga sovg'a-salomlar berib, o'ziga og'dirib olgan

239. (8-o'zb-14).....joriy qilgan qonun bo'yicha kim mol-mulkka xiyonat qilsa jamiyatdagi martabasidan qat'i nazar qattiq jazoga tortilishi lozim edi.

- A) Muhammad Raliimxon  
B) #Amir Shohmurod  
C) Umarxon  
D) Muhammad Alixon

240. (8-o'zb-14) 1743-yil qanday voqea bo'lib o'tgan?

- A) Mujrim-Obid tavallud topdi;  
B) Orenburgda Buxoro savdogarlarining qarorgohi vujudga keldi;  
C) #Muhammad Hakimbiy vafot etdi;  
D) Abulfayzxonning o'g'li Abdulmo'min Buxoro taxtiga o'tqizildi.

241. (8-o'zb-14) Amir Shohmurodning soliq tizimida o'tkazgan islohoti to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) tamg'a solig'ini bir oz oshirdi  
B) jizya solig'i bekor qilindi  
C) ulumlardan olinadigan har qanday soliq va yig'img'lar bekor qilindi  
D) #Boj va xirojdan tashqari barcha soliqlar kamaytirildi

242. (8-o'zb-14) Buxoro amiri Muhammad Rahimbiy tomonidan taxtga chiqarilib, so'ng qatl etilgan xonlar nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Abdulmo'min, Abdulazizxon, Shermuhammadxon  
B) Abdulazizxon, Shohniyozxon, Bo'lakayxon  
C) Abdulamin, Abdulmo'min, Ibodullo Sulton  
D) #Abdulmo'min, Ubaydullaxon, Sherg'ozixon

243. (8-o'zb-14) Buxoro amirlaridan qaysi biri dastlab pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro'zg'or tebratgan?

- A) Amir Haydar  
B) Doniyolbiy  
C) #Amir Shohmurod  
D) Nasrullo

244. (8-o'zb-15) Buxoro amirligida shayxulislom lavozimiga oid bo'lgan qatorni aniqlang.

- 1) jinoiy ishlarni shaxsan o'zi sinchiklab ko'rgan;  
2) musulmon jamoasi boshlig'i;  
3) qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etilishini ta'minlovchi;

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- 4) bu lavozim avloddan avlodga meros bo'lib o'tishi mumkin bo'lgan;  
5) qozikalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha shariatga asoslanib fatvo chiqargan.  
A) 1, 3, 5  
B) 4, 5  
C) #2, 3,4  
D) 2, 4
245. (8-o'zb-15)Buxoro amirligida quyidagi qaysi lavozim avloddan avlodga ham meros bo'lib o'tgan?  
A) muhtasib  
B) #shayxulislom  
C) qo'shbegi  
D) devonbegi
246. (8-o'zb-15)Buxoro amirligida qaysi lavozim egasi soliq tushumlarini yozib borgan?  
A) inoq  
B) parvonachi  
C) #mushrif  
D) mutavalli
247. (8-o'zb-15)Qaysi Buxoro amiri davrida pul islohoti o'tkaziladi?  
A) Amir Haydar  
B) #Shohmurod  
C) Nasrullo  
D) Muhammad Rahim
248. (8-o'zb-15)Buxoro amirligida amir farmoyishlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazish vazifasi qaysi mansabdor zimmasida bo'lgan?  
A) Mushrif  
B) Dodhoh  
C) #Inoq  
D) Parvonachi
249. (8-o'zb-15)Buxoro amirligida faoliyat ko'rsatgan Devonbegining vakolati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?  
A) barcha ijroiya hokimiyatni boshqargan  
B) amaldorlarning xonga in'om etgan buyumlarini ro'yxatga olib borgan  
C) soliq tushumlarini yozib borgan  
D) #soliqlar undirilishi ustidan nazorat olib brogan
250. (8-o'zb-14-15)Quyidagilarning qaysilari Amir Shohmurod davrida amalga oshirilgan?  
1) Abulfayzxonning nabirasi Abulg'oziy soxta xon qilib ko'tarildi.  
2) qo'shin tarkibida qozi askar lavozimi joriy etildi;  
3) Samarqand shahri markazida olti qirrali "Toqi musaddas" savdo inshooti qurildi;  
4) Urgut tumanini sug'orish maqsadida 40 chaqirimli Qozonariq kanali qazildi;  
5) Har tanob yerdan bir tildan tanobona solig'ini olish belgilandi;  
A) 1, 3, 5  
B) # 2, 3,4  
C) 3, 4, 5  
D) 2, 4, 5
251. (8-o'zb-16)O'rta asrlarda 8,33 sotixga teng bo'lgan yer o'lchov birligi qanday atalgan?  
A) #tanob  
B) qo'sh  
C) gektar  
D) akr
252. (8-o'zb-16)Amir Shohmurod hukmronligi davrida qazilgan quyidagi qaysi kanal boshqalaridan ko'ra uzunroq bo'lgan?  
A) Xurmo

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- B) To'yman arig'i
- C) #Qozonariq
- D) To'g'uzariq

253. (8-o'zb-16)Buxoro amirligida davlat yerlarining qanday qismi ko'chmanchi jamoalarga bo'lib berilgan?

- A) lalmikor va voha yerlari
- B) #suvsiz dasht, to'qayzor qismi
- C) ilgari ishlatilib, keyinchalik qarovsiz qoldirilgan yerlar
- D) tanho va iqto' yerlari

254. (8-o'zb-16)Mulki hur yoki mulki hurri xolis yerlar nimaning natijasida vujudga kelgan?

- A) hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga berish natijasida
- B) musodara etilgan, yirik yer egalari in'om etgan mulklarning shakllanishi natijasida
- C) sayyid va xo'jalarning azaldan avloddan avlodga o'tib kelayotgan merosiy mulkining tugatilishi natijasida
- D) #urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna ko'rsatgan shaxslarga berish natijasida

255. (8-o'zb-16)Ma'lumti, XVIII asrda Zarafshon daryosida Xurmo va Sarazm nahr(ariq)lari chiqarilgan. Ularning biri ... chaqirim, ikkinchisi ... chaqirim uzunlikda bo'lgan.

- A) #to'rt, uch
- B) ikki, uch
- C) besh, yeti
- D) olti, ikki

256. (8-o'zb-16)Amir Haydar davrida ekinzor egasi tanobona to'lashdan bosh tortsa, ...

- A) jazo o'rnida 12 kunlik mehnat majburiyatini o'tagan
- B) #hosilning 1/3 qismini xiroj tariqasida to'lagan
- C) "qarzdor" deb yozilgan taxtacha bo'yniga osib qo'yilgan
- D) davlat yerida bir oy davomida tekinga ishlab bergan

257. (8-o'zb-16)Buxoro amirligida shox-shabbali to'g'onlar qanday daryolarda qurilgan?

- A) chuqur va tezoqar daryolarda
- B) tog'dan shiddat bilan tushib keladigan daryo va soylarda
- C) #tinch oqadigan daryolarda
- D) daryolarning bir necha tarmoqlarga bo'linadigan joyida

258. (8-o'zb-16)Buxoro amirligida o'stirilgan mardona o'simligidan nima olingan?

- A) dori-darmonlar
- B) #bo'yoq
- C) yog'
- D) qog'oz

259. (8-o'zb-16)Noto'g'ri berilgan javobni toping!

- A) Amir Shohmurod Abulg'ozini hokimiyatdan chetlashtirgan edi
- B) Amirlikning alohida davlat xazinasi bo'lmagan
- C) #Amirlikda eng kichik tanho yeri 7-12 gektarni tashkil qilgan
- D) Miroxur – amir otxonasining boshlig'i bo'lgan

260. (8-o'zb-16)Amirlikdagi eng mashhur bog'lardan biri hisoblangan Jo'ybor bog'i qayerda joylashgan edi?

- A) Toshkent
- B) Samarqand
- C) #Buxoro
- D) Karmana

261. (8-o'zb-16)Amirlikdagi eng mashhur bog'lardan biri hisoblangan Kaykovus bog'i qayerda joylashgan edi?

- A) #Toshkent
- B) Samarqand
- C) Buxoro
- D) Karmana

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

262. (8-o'zb-16)Ma'lumki, zakot solig'i dastlabki davrlarda beva-bechoralar va musofirlar foydasiga olinar edi. Zakot qachondan boshlab xazina foydasiga olina boshlandi?

- A) #XVIII asr
- B) XVI asr
- C) XVII asr
- D) XIX asr boshi

263. (8-o'zb-16)Qaysi Buxoro amiri har tanob yerdan bir tillodan soliq olinishi tog'risida yorliq chiqargan edi?

- A) Shohmurod
- B) Doniyolbiy
- C) #Amir Haydar
- D) Nasrullo

264. (8-o'zb-17)Rossiyaning Orenburg shahrida Buxoro savdogarlarining qarorgohi bo'lib, 1825- yilga kelib bu yerda ularning xonadoni qanchaga yetdi?

- A) 20 ta
- B) #30 ta
- C) 44 ta
- D) 25 ta

265. (8-o'zb-17)Buxoroning qozoqlar bilan savdo-sotiq aloqalarida kimlar vositachilik qilgan?

- A) qipchoqlar
- B) xorazmliklar
- C) #qoraqalpoqlar
- D) qalmoqlar

266. (8-o'zb-17)Buxoro bozorlariga zotdor otlarni kimlar olib kelib sotishar edi?

- A) Qoraqalpoqlar
- B) Qozoqlar
- C) #Turkmanlar
- D) Farg'onaliklar

267. (8-o'zb-17)1844-yilda Buxoro amirligining Markaziy Osiyo - Rossiya tashqi savdosidagi ulushi necha foizni tashkil qilgan?

- A) #25 %
- B) 30 %
- C) 42 %
- D) 38 %

268. (8-o'zb-17)Samarqandda joylashgan yetti madrasaning biri – Safed yana qanday nom bilan ataladi?

- A) Xoja Abdulg'affor
- B) Tillakori
- C) Shayboniyxon
- D) #Xoja Ahror

269. (8-o'zb-17)XIX asr boshida Buxoro shahrida nechta hovuz mavjud bo'lgan?

- A) 103 ta
- B) 345 ta
- C) 78 ta
- D) #83 ta

270. (8-o'zb-17)Qozi Soqiy madrasasi qaysi shaharda joylashgan?

- A) Buxoro
- B) #Samarqand
- C) Qarshi
- D) Toshkent

271. (8-o'zb-17)Buxoro amirligidagi barcha savdo ishlarining boshqaruvchisi berilgan javobni aniqlang.

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) Devonbegi
- B) Mushrif
- C) Tavochi
- D) #Karvonboshi

272. (8-o'zb-18)Ma'lumki, 1804-yil marvliklar Dinnosirbek boshchiligida qo'zg'olon ko'targan edi. Qo'zg'olon rahbari Dinnosirbekning maqsadi nimadan iborat bo'lgan?

- A) Eron shohi yordamida Buxoro taxtini egallash
- B) Markazi Marv bo'lgan amirlikdan mustaqil bo'lgan davlat tashkil qilish
- C) #Xiva xoni Eltuzar yordamida oliy hokimiyatni egallab olish
- D) Amudaryo o'ng sohilidagi yerlarni bosib olish

273. (8-o'zb-18)Ma'lumki, 1837-yil Amir Nasrullo muntazam qo'shin tuzgan edi. Qo'shin tarkibidagi askar va to'pchilarning xizmat muddati necha yil bo'lgan?

- A) 25 yil
- B) #umr bo'yi xizmat qilgan
- C) 30 yil
- D) 20 yil

274. (8-o'zb-18)Ma'lumki, Amir Nasrullo to'pchilar qo'shinini tuzgan bo'lib, bu askarlarga qanday miqdorda maosh berilgan?

- A) yiligi 3 so'm kumush tanga
- B) oyiga 5 so'm kumush tanga
- C) oyiga 2 so'm oltin tanga
- D) #oyiga 3 so'm kumush tanga

275. (8-o'zb-18)Mo'g'ullar tomonidan Marvdagi Sultonband to'g'oni buzib tashlanganidan (1221yil)qancha vaqt o'tib, Amir Haydar xuddi shu ishni qildi?

- A) #583 yil
- B) 591 yil
- C) 602 yil
- D) 614 yil

276. (8-o'zb-18)Amir Nasrullo tomonidan tashkil etilgan muntazam qo'shin soni qanchani tashkil etgan?

- A) 37 ming
- B) 20 ming
- C) #40 ming
- D) 25 ming

277. (8-o'zb-18)1804-yildan keyin Zarafshon vohasiga ko'chirilgan xalqlarni aniqlang.

- A) Qoraqalpoqlar
- B) #Turkmanlar
- C) Qirg'izlar
- D) Uyg'urlar

278. (8-o'zb-18)Miyonqolda qo'zg'olon bo'lgan paytda Amir Haydar ...

- A) Marv qo'zg'olonchilari bilan kurashayotgan edi
- B) shimoldan kelgan qozoqlar hujumini qaytarish bilan band edi
- C) Karmanaga qarshi yurish boshlagan edi
- D) #Xiva va Qo'qon xonlari hujumlarini qaytarish bilan band edi

279. (8-o'zb-18)1800-yilda qaysi hududlarda Amir Haydarga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan edi?

- A) Miyonqol, Karmana, Yangiqo'rg'on
- B) Toshkent, O'ratepa, Shohruxiya
- C) Balx, Hisor, Ko'lob, Marv
- D) #Marv, Qarshi, Kattaqo'rg'on

280. (8-o'zb-14-18)Buxoro amirlarining hukmronlik qilganiga qarab ketma-ketlikda joylashtiring.

- 1) Shohmurod;
- 2) Nasrullo;

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- 3) Amir Haydar;
- 4) Doniyolbiy;
- 5) Muhammad Rahimbiy
- A) 2, 3, 1, 5, 4
- B) #5, 4, 1, 3, 2
- C) 1, 3, 2, 5, 4
- D) 3, 2, 1, 4, 5

281. (8-o'zb-19) Muhammadniyoz Nishotiy o'zining "Xusni Dil" dostonini nechanchi yilda yozgan edi?  
A) 1756-yil  
B) 1771-yil  
C) 1807-yil  
D) #1778-yil

282. (8-o'zb-19) XIX asrda yozilgan "Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo'qand va Qoshg'ar" asarining muallifini aniqlang.  
A) Muhammadniyoz Nishotiy  
B) Yaqub ibn Doniyol Buxoriy  
C) #Mirzo Shams Buxoriy  
D) Mir Ma'sum Olamiyon

283. (8-o'zb-19) XIX asrda "Axloqi Muhsiniy" kitobi va Sa'diyning shery asarlarini rasmlar bilan bezagan ijodkorni aniqlang.  
A) Mirzo Sodiq Jodoriy  
B) Junaydulloh Hoziq  
C) #Mir Ma'sum Olamiyon  
D) Shavqiy

284. (8-o'zb-19) Shoir Volaning bizgacha ... she'ri yetib kelgan.  
A) 20 ming  
B) 2 ming  
C) 12 ming  
D) #3 ming

285. (8-o'zb-19) Ahmad Donish necha yil davomida Buxoro saroy kutubxonasida xattot va rassom bo'lib ishlagan?  
A) #20 yil  
B) 14 yil  
C) 30 yil  
D) 25 yil

286. (8-o'zb-19) Muhammadniyoz Nishotiyning "Qushlar munozarasi" asarida nechta qush o'rtasida bo'lib o'tgan bahs jarayoni tasvirlangan?  
A) 12 ta  
B) 20 ta  
C) 24 ta  
D) #14 ta

287. (8-o'zb-19) "Gulshan ul-muluk" asarining muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.  
A) Muhammadniyoz Nishotiy  
B) Mujrim-Obid  
C) Junaydulloh Hoziq  
D) #Ya'qub ibn Doniyol Buxoriy

288. (8-o'zb-19) "Gulshan ul-muluk" asarining ikkinchi qismi Markaziy Osiyoning qaysi davri voqealari haqida hikoya qiladi?  
A) XVI-XVII asr voqealar  
B) XVII-XVIII asr voqealar  
C) #XVIII-XIX asr boshlaridagi voqealar

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

D) XIX asr oxiri voqealar

289. (8-o'zb-20)Xorazm hududida jami qancha o'zbek qabilasi istiqomat qilgan?

- A) 30 ga yaqin
- B) #20 ga yaqin
- C) 30 dan ortiq
- D) 40 ga yaqin

290. (8-o'zb-20)Xorazm hududida istiqomat qilgan qabilalar orasida ko'p sonli va eng kuchlilari qaysilar edi?

- 1) ming;
  - 2) qo'ng'iroq;
  - 3) uyg'ur;
  - 4) mang'it;
  - 5) nayman;
  - 6) do'rmon;
  - 7) qipchoq;
  - 8) qiyot;
  - 9) qang'li.
- A) #2, 4, 5, 7, 8
  - B) 1, 2, 5, 9
  - C) 3, 4, 5, 7, 9
  - D) 2, 3, 6, 9

291. (8-o'zb-20)Xorazmda Eron safaviylariga qarshi harakat kimning yetakchiligida boshlangan edi?

- A) Berka Sulton
- B) Umar qozi
- C) Shayboniyxon
- D) #Elbarsxon

292. (8-o'zb-20)Elbarsxon hukmronligi davrida Xorazmga qaysi hududlar qo'shib olinganini aniqlang.

- A) Janubiy Dashti Qipchoq va Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlar
- B) Kermon, Shimoliy Eron, Xuroson
- C) #Saraxs, Orol, Mang'ishloq, Shimoliy Xuroson
- D) Dehiston, Bolqon tog'lari, O'zboy

293. (8-o'zb-20)Xorazm aholisi Eron safaviylariga qarshi kurashib, mamlakat taxtiga Berka Sultonning o'g'li Elbarsni taxtga o'tqazishga qaror qilishadi. Bu paytda Elbarsxon qayerda edi?

- A) Urganchda
- B) Mang'ishloq yarim orolida
- C) Shimoliy Erondagi Saraxsda
- D) #Dashti Qipchoqda

294. (8-o'zb-20)Xivada Elbarsxon nechanchi yilgacha hukmronlik qilgan?

- A) 1515-yil
- B) 1521-yil
- C) #1516-yil
- D) 1523-yil

295. (8-o'zb-20)Xiva xonligining aholisi etnik, madaniy va til jihatdan bir-biridan farq qiluvchi nechta guruhga bo'lingan?

- A) 4 ta
- B) 5 ta
- C) #3 ta
- D) 2 ta

296. (8-o'zb-20)Quyidagi sabablarning qaysilari XVI asrda Xiva xonligining iqtisodiy inqiroziga olib keldi?

- 1) Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirishi;
- 2) Dashti Qipchoq xonlarining tinimsiz hujumi.
- 3) Xiva xonligining Buxoro xonligi tomonidan ikki marta bosib olinishi;

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

4) O'zaro qabilaviy urushlar va og'ir soliqlar;

A) 2, 3, 4

B) 1, 4

C) #1, 3, 4

D) 2, 4

297. (8-o'zb-20)XVI asrda tashkil topgan ikki davlat - Buxoro va Xiva xonligi o'rtasidagi dushmanlik munosabatlar hukm surishiga asosiy sabab nima edi?

1) Xonliklarning bosqinchilik hisobiga o'z hududlarini kengaytirishga urinishi;

2) Xiva xonligining Eron safaviylari qo'lida ma'lum muddat qolganligi;

3) Eron safaviylarining har ikkala xonlikni bir-biriga qarshi gij-gijlashi;

4) Har ikkala xonlikdagi hukmron sulolalarning bir-biriga g'anim bo'lib qolgan xonadonlarga mansubligi

A) 1, 2, 3

B) #1, 4

C) 2, 3

D) 1, 2, 3, 4

298. (8-o'zb-20)Buxoro xoni Ubaydulloxon Xorazmga hujum qilgan paytda, Xiva xoni kim edi?

A) #Avaneshxon

B) Hojimaxon

C) Elbarsxon

D) Arab Muhammadxon

299. (8-o'zb-20)Xiva xoni Hoji Muhammad (Hojimaxon) hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.

A) 1550-1598-yillar

B) #1558-1602-yillar

C) 1535-1591-yillar

D) 1537-1568-yillar

300. (8-o'zb-20)Buxoro xoni Ubaydullaxon Xivani bosib olgach, bu yerga kimni noib etib tayinlaydi?

A) Abdulloni

B) #Abdulazizni

C) Abdulatifni

D) Abdullani

301. (8-o'zb-20)Elbarsxon davrida qaysi omil Xiva hukmdorining ijtimoiy tayanchini mustahkamlagan.

A) Xiva xonligi hududida asosan turkiy urug'larning istiqomat qilishi va ularning yuqori lavozimda ekanligi

B) turkiy urug' oqsoqollariga katta-katta yer maydonlarining suyurg'ol qilinishi

C) xonlarning barcha tuman, qishloq va viloyatlarga o'z qarindoshlarini hokim etib tayinlashi

D) #Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'pgina qabilalarning ko'chib kelishi

302. (8-o'zb-20)Nimaning oqibatida Hojimaxon Xiva xonligi taxtini qayta egallashga va o'z hokimiyatini mustahkamlab olishga erishadi?

A) Eron qo'shinlarining mamlakatdan butunlay haydab chiqarilishi natijasida

B) #1598-yiliAbdullaxonning vafotidan keyin Buxoro xonligida boshlangan o'zaro toj-u taxt uchun kurashlar

C) Eron qo'shinlarining Buxoro xonligiga hujumi natijasida buxorolik askarlar hujumining vaqtinchalik to'xtashi

D) Abdullaxonning vafotidan keyin Buxoro xonligida boshlangan o'zaro toj-u taxt uchun kurashlar

303. (8-o'zb-20)Ma'lumki, Abdullaxon II davrida Xiva xonligi 2 marta Buxoroga bo'ysundirilgan. Bu qaysi yillarda bo'lib o'tgan?

A) 1584-va 1593-yilda

B) 1578-va 1586-yilda

C) #1593-va 1595-yilda

D) 1591-va 1596-yilda

304. (8-o'zb-20)Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm qaysi davlat tarkibida bo'lgan?

A) Movarounnahr

B) #Xuroson

C) Eron

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

D) Oltin O'rda

305. (8-o'zb-20) Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm hokimi kim edi?

A) Husayn Boyqaro

B) Umar qozi

C) #Chin So'fi

D) Idiku o'zbek

306. (8-o'zb-20) Abdullaxon II bilan kurash olib borgan Xiva xonini aniqlang.

A) Avanesxon

B) Elbarsxon

C) Qoraboyxon

D) #Hoji Muhammadxon

307. (8-o'zb-20) Muhammad Shayboniy tomonidan Berka Sulton o'ldirilgan yili Rusda ...

A) Ivan Kalita Oltin O'rda xonlaridan soliq yig'ish huquqini qo'lga kiritdi

B) Kulikova jangi bo'ldi

C) #Oltin O'rda davlatidan mustaqil bo'lib oldi

D) Ryurikovlar sulolasi o'z hukmronligini boshladi

308. (8-o'zb-20) Qaysi shaharning eronliklardan ozod etilishi natijasida Elbarsxon o'z o'g'illari nomiga "g'oz" unvonini qo'shib aytishni buyurgan?

A) Urganch

B) #Vazir

C) Kat

D) Xiva

309. (8-o'zb-20) Buxoro xoni Ubaydullaxon qaysi yillarda Xiva xonligiga qarshi yurish qilgan edi?

A) 1535-1537-yillarda

B) 1538-1539-yillarda

C) 1533-1538-yillarda

D) #1537-1538-yillarda

310. (8-o'zb-20) Elbarsxonning 1516-yilgacha hukmronlik davrida qaysi hududlar egallandi?

A) Shimoliy Eron, Mang'ishloq, Seiston

B) #Mang'ishloq, Sarxas, Orol, Shimoliy Xuroson

C) Chimboy, Sariqamish ko'li atrofi, Shimoliy Eron

D) G'arbiy Qizilqum, Janubiy Qozog'iston, Mozandaron

311. (8-o'zb-21) Xiva xonligida davlat parokandaligi kimning davrida yuqori nuqtasiga yetgan edi?

A) Asfandiyorxon

B) Avanesxon

C) Anushaxon

D) #Arab Muhammad

312. (8-o'zb-21) 1616-yil Arab Muhammadning o'g'illari Habash va Elbars Sultonlar kimlarga tayanib, otasiga qarshi isyon ko'taradilar?

A) Ataman Nachay boshliq Yoyiq kazaklariga

B) #Nayman va uyg'ur qabilasi boshliqlariga

C) Eron safaviylariga

D) Buxoro xonligiga

313. (8-o'zb-21) Habash va Elbars Sultonlar nechanchi yilda qatl qilindi?

A) 1621-yil

B) 1627-yil

C) #1623-yil

D) 1630-yil

314. (8-o'zb-21) 1623-1643-yillarda hukmronlik qilgan davlat boshlig'ini aniqlang.

A) #Asfandiyorxon

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- B) Shoh Safi I
- C) Abulg'ozixon
- D) Arab Muhammad

315. (8-o'zb-21) Qaysi Xiva xoni davrida xonlikdagi barcha qabilalar to'rt guruhga bo'linib, ularga inoqlar tayinlangan?

- A) Elbarsxon
- B) #Abulg'oziy Bahodirxon
- C) Asfandiyorxon
- D) Arab Muhammad

316. (8-o'zb-21) Eron shohi Nodirshoh 1740-yili qayerda bo'lgan jangda Xiva qo'shinlarini butunlay tor-mor keltiradi?

- A) Xonqada
- B) Vazir yaqinida
- C) Urganch yonida
- D) #Hazoraspda

317. (8-o'zb-21) Quyidagi qaysi Xiva xoni Buxoro amiri Muhammad Rahim tashabbusi bilan taxtga o'tirgan edi?

- A) G'oyib ibn Botir
- B) Elbarsxon
- C) #Temurg'oziy
- D) Sherg'ozixon

318. (8-o'zb-21) Arab Muhammadxon davrida Xivaga hujum qilgan ataman Nechay va ataman Shamay kimlar?

- A) Orenburg geberal-gubernatorlari
- B) Terek kazaklari
- C) #Yoyiq kazaklari
- D) Don kazaklari

319. (8-o'zb-21) Turkiycha "inoq" atamasi qanday ma'noni anglatadi.

- A) o'rinbosar
- B) #ishonch
- C) do'st
- D) yaqin

320. (8-o'zb-21) Xiva xoni G'oyib ibn Botirga qarshi kim boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgan?

- A) Amir Nasrullo
- B) Abdulaziz
- C) Abdulatif
- D) #ukasi Abdulla

321. (8-o'zb-21) Qanday sababga ko'ra 1630-yil Abulg'oziy hibsga olinib, Eron shohi huzuriga jo'natilgan edi?

- A) Eron tasarrufidagi Niso va Darunga hujum qilganlikda ayblangan edi
- B) Shialik mazhabini qoralab shoh Safi I ni shakkoklikda ayblagani uchun
- C) Ashxobod va Qizil Arvat o'rtasidagi manzilga hujum qilganlikda ayblangan edi
- D) #A va C

322. (8-o'zb-21) Quyidagi qaysi Xiva xonlarining ko'ziga mil tortilgan edi?

- A) Elbars Sulton, Asfandiyorxon
- B) #Arab Muhammadxon, Anushaxon
- C) Abulg'ozixon, Anushaxon
- D) Habash Sulton, Arab Muhammadxon

323. (8-o'zb-21) Ma'lumki, 1741-yil Orol dengizining shimolidagi qabilalar eronliklar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'targan edi. Nodirshoh qo'zg'olonni bostirish uchun kimni yuboradi?

- A) Abu Muhammadni

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- B) #o'g'li Nasrullani
- C) o'g'li Rizoqulini
- D) qozoq G'oyib ibn Botirni

324. (8-o'zb-21)XVII asrda Xiva xonligining siyosiy hayotida mavjud bo'lgan o'ziga xos ikki xususiyatni aniqlang.

- A) hukmron tabaqaning jabr-zulmi, oddiy aholining norozilik harakatlari
- B) Buxoro xonligi tomonidan ikki marta bosib olindi, mahalliy aholining buxoroliklarga qarshi kurashi
- C) #hukmron sulola nufuzining pasayishi, qabila boshliqlari ta'sirining kuchayishi
- D) Eron tomonidan bosib olinishi, bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi

325. (8-o'zb-21)Ma'lumki, 1616-yil Arab Muhammadxonga qarshi o'g'illari isyon ko'targan edi. Bu isyonni tinchitish maqsadida Arab Muhammad isyonkor o'g'illariga yon berib, qaysi shaharni ular boshqaruvidagi hududga qo'shib bergan?

- A) Xonqa
- B) Urganch
- C) Hazorasp
- D) #Vazir

326. (8-o'zb-21)Xiva xonligining Nodirshoh boshliq Eron tomonidan bosib olinishi qanday oqibatlariga olib keldi?

- 1) islom dini ruhoniylari ta'qibga uchradi;
  - 2) qadimiy madaniy mamlakat bosqinchilik va talon-taroj maydoniga aylantirildi;
  - 3) Osiyo va Yevropani birlashtiruvchi karvon yo'li o'zining ahamiyatini yo'qotdi;
  - 4) xonlar amalda inoqlar qo'lida itoatkor bo'lib qoldilar;
  - 5) o'zaro urushlarga barham berildi;
  - 6) Xiva mustaqilligini yo'qotdi.
- A) 1, 2, 3, 4
  - B) #2, 3, 4, 6
  - C) 1, 3, 4, 5
  - D) 2, 4, 5, 6

327. (8-o'zb-21)Quyidagi qaysi Xiva xonlari majburiy ravishda taxtdan tushirilib, qatl etilgan?

- 1) Abulg'ozixon;
  - 2) Anushaxon;
  - 3) Arab Muhammad;
  - 4) Elbars Sulton;
  - 5) Avanesaxon;
  - 6) Habash Sulton;
  - 7) Asfandiyorxon;
  - 8) Sherg'ozixon;
- A) 2, 3, 8
  - B) # 3, 4, 5, 6
  - C) 2, 4, 5, 6
  - D) 1, 2, 6, 7

328. (8-o'zb-21)Orol dengizining shimolida istiqomat qilib turgan o'zbek qabilalari eronliklar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'targan vaqtda Nodirshoh qaysi yurish bilan band edi?

- A) Seiston
- B) #Dog'iston
- C) Iroq
- D) Suriya

329. (8-o'zb-21)1629-yil Niso va Darun kimlar tomonidan bosib olindi?

- A) Qoraqalpoqlar
- B) rus kazaklari
- C) #turkmanlar
- D) eronliklar

330. (8-o'zb-21)O'z xohishi bilan hokimiyatni o'g'liga topshirgan Xiva va Buxoro hukmdorlarini aniqlang.

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) Arab Muhammad va ashtarxoniy Abdulazizxon
- B) Asfandiyorxon va Amir Haydar
- C) Sherg'ozixon va Boqi Muhammadxon
- D) #Abulg'oziyxon va Doniyolbiy otaliq

331. (8-o'zb-21)Xiva xonligiga qarashli bo'lgan Orolbo'yi aholisi kimning gijgijlasi orqali Xiva xonligidan ajralib chiqqan?

- A) Eron shohi Abbos I ning
- B) #Buxoro xoni Abulfayzxonning
- C) rus kazaklari sardori ataman Nechayning
- D) Buxoro xoni Subhonqulixonning

332. (8-o'zb-21)1740-yil Xiva xonligi Nodirshoh tomonidan bosib olingach, aholiga qanday soliq to'lash yuklanadi?

- A) "qozon puli"
- B) "qo'nalg'a"
- C) "chibik puli"
- D) # "moli omon"

333. (8-o'zb-21)1685-yil Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasida jang qayerga bo'lib o'tgan?

- A) #G'ijduvon yaqinida
- B) Hazoraspda
- C) Urganch yaqinida
- D) Karmanada

334. (8-o'zb-22)Hozirda Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida joylashgan qadimgi shaharni aniqlang.

- A) Vazir
- B) Xonqa
- C) Yangi Urganch
- D) #Ko'hna Urganch

335. (8-o'zb-22)YUNESKO tashkiloti nechanchi yilda Xiva shahrining 2500 yilligini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilgan edi?

- A) 1993-yil
- B) #1995-yil
- C) 1996-yil
- D) 1997-yil

336. (8-o'zb-22)Ko'hna Urganch shahri qachondan boshlab Xorazmning poytaxtiga aylangan edi?

- A) X asr o'rtalaridan
- B) X asr oxiridan
- C) #X-XI asrlardan
- D) XII asr birinchi choragidan

337. (8-o'zb-22)Qadimiy Ko'hna Urganch shahri arab geograflari asarlarida qanday nom bilan tilga olinadi?

- A) Gurganch
- B) O'rganj
- C) #Jurjoniya
- D) Xavorazm

338. (8-o'zb-22)Xiva xonligida kop'plab shaharlar mavjud bo'lib, ulardan eng qadimiysi qaysi shahar edi?

- A) Hazorasp
- B) Ko'hna Urganch
- C) #Xiva
- D) Vazir

339. (8-o'zb-22)Xiva xonligi tarixiy manbalarida hunarmandchilikning ... sohasi qayd etilgan.

- A) 103
- B) 212
- C) #27

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

D) 82

340. (8-o'zb-22)1558-yil Xivada bo'lgan A.Jenkinsonning yozishicha, Vazir shahri oxirgi 7 yil ichida necha marta vayron qilingan edi?

- A) 2 marta
- B) 3 marta
- C) #4 marta
- D) 6 marta

341. (8-o'zb-22)Vazir shahriga asos solgan Mustafaxon ... .

- A) #Shayboniylardan bo'lgan
- B) Qozoq xonlaridan biri bo'lgan
- C) Turkmanlarning yovmut qabilasi boshlig'i
- D) Orolliklarning hukmdori bo'lgan

342. (8-o'zb-22)Xiva xonligi yerlarining yarmidan ortig'iga qanday ekin ekilar edi?

- A) paxta
- B) jo'xori
- C) sholi
- D) #g'alla

343. (8-o'zb-22)Noto'g'ri berilgan javobni toping.

- A) Vazir shahriga XV asr o'rtalarida asos solingan edi
- B) Xiva xonligi ekinzorlarining 1/5 qismida paxta yetishtirilgan
- C) #1600-yil hozirgi Urganch shahriga asos solingan
- D) Bozordagi savdo o'rinlaridan foydalanganlik uchun "tagjoy" solig'i olingan

344. (8-o'zb-22)Xiva elchisining 1620-yil ... shahrida 670 kiyimlik mato sotganligi manbalarda qayd etilgan.

- A) Orenburg
- B) Novgorod
- C) #Qozon
- D) Astraxan

345. (8-o'zb-22)Quyidagi qaysi asarda Amir Temurdan Zahiriddin Boburga qadar bo'lgan temuriylar shajarasi qisqacha sharhlangan?

- A) "Shajarayi turk"
- B) "Shajarayi tarokima"
- C) "Shohnoma"
- D) # "Dasturul amal"

346. (8-o'zb-22)Gurganch Xorazm davlatining yagona poytaxtiga aylangunga qadar shu vazifani qaysi shahar bajargan?

- A) #Kat
- B) Xiva
- C) Vazir
- D) Tuproqqal'a

347. (8-o'zb-22)Muzahhib bu – ...

- A) kitoblarga miniaturalar chizuvchi
- B) #kitoblarga oltin suvini yurituvchi
- C) kitoblarga sarlavha yozuvchi
- D) kitoblarni muqovalovchi

348. (8-o'zb-22)Mashhur hattot Hamadoniy nechanchi yilda Xiva xoni Eshmuhammadxonga "Shohnoma"ni miniatura uchun ochiq joy qoldirib ko'chirib bergan edi?

- A) 1559-yil
- B) #1556-yil
- C) 1563-yil
- D) 1574-yil

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

349. (8-o'zb-22) "Shajarayi turk" asarining ... bobi Xorazmning 1512-1663-yillardagi voqealarga bag'ishlangan.

- A) 2
- B) 7
- C) #9
- D) 10

350. (8-o'zb-23)Qo'ng'iroq qabilasi boshlig'i Muhammad Amin nechanchi yil inoqlik lavozimiga ko'tarilgan edi?

- A) 1770-yil
- B) #1761-yil
- C) 1790-yil
- D) 1763-yil

351. (8-o'zb-23)Xiva xonligini boshqargan Muhammad Amin hukmronlik qilgan 20 yil ichida ... soxta xon almashtirdi.

- A) #13 ta
- B) 9 ta
- C) 11 ta
- D) 15 ta

352. (8-o'zb-23)1806-yilgi Xiva va Buxoro qo'shinlari qayerda to'qnashgan edi?

- A) Hazorasp yaqinida
- B) Vardonze atrofida
- C) #Amudaryo bo'yida
- D) Karmana yonida

353. (8-o'zb-23)Turkmanlarning takya qabilasi nechanchi yilda Xiva xonligiga bo'ysundirildi?

- A) 1822-yil
- B) #1813-yil
- C) 1831-yil
- D) 1843-yil

354. (8-o'zb-23)Qaysi Xiva xoni hukmronligi davrida Buxoroga 7 marta, Xurosonga 5 marta yurish qilingan?

- A) Muhammad Rahim I
- B) Eltuzarxon
- C) Muhammad Aminxon
- D) #Ollohqulixon

355. (8-o'zb-23)Navkar harbiy xizmatchi ma'nosida bo'lib, u qaysi tildan olingan?

- A) Arab
- B) tojik
- C) #fors
- D) mo'g'ul

356. (8-o'zb-23)Xivada hokimiyatni egallagan Muhammad Amin dastlab kimni soxta xon qilib ko'taradi?

- A) Abulg'ozining o'g'li Avaz Muhammadxonni
- B) #Abulxayrxonning o'g'li Bo'lakayxonni
- C) Sherg'ozixonning o'g'li Ubaydullaxonni
- D) Shohniyozning o'g'li Kelimuhammadxonni

357. (8-o'zb-23)Xiva xonligi taxtini inoq unvoni bilan boshqargan hukmdorlarni aniqlang.

- A) Muhammad Rahim I, Avaz Muhammad
- B) Eltuzar, Ollohqulixon
- C) Muhammad Amin, Muhammad Rahim I
- D) #Muhammad Amin, Avaz Muhammad

358. (8-o'zb-23)1804-yil Xivaga chetdan chaqirilgan sohta xon taxtdan tushirilib, taxtni Eltuzar egallaydi. Ana shu sohta xonning ismi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Abdulmo'min
- B) Sherg'oz

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- C) #Abulg'oziy
- D) Abdulamin

359. (8-o'zb-23)Buxoroga yurishi chog'ida halok bo'lgan Xiva xonini aniqlang.

- A) #Eltuzar
- B) Oллоhqulixon
- C) Anushaxon
- D) Avaz Muhammad

360. (8-o'zb-23)Muhammad Rahim I ning tazyiqi ostida Xurosonga ko'chib ketgan turkmanlarning yovmut qabilasi nima sababdan yana Xivaga qaytib kelishga majbur bo'lgan?

- A) Afg'oniston hukmdorining yovmutlarga katta miqdordagi o'lpon solishi
- B) qurg'oqchilik va ular orasida vabo kasalligining tarqalishi
- C) #Eron hukumatining tazyiqi va yaylovlarning yetishmasligi
- D) kuchli Afg'on davlatining vujudga kelishi va yovmutlarning mamlakatdan haydab chiqarilishi

361. (8-o'zb-23)Marvga 10 marta yurish qilgan Xiva xonini aniqlang.

- A) #Muhammad Aminxon
- B) Oллоhqulixon
- C) Muhammad Rahim I
- D) Eltuzarxon

362. (8-o'zb-23)Yangi Marv shahri nechanchi yilda bunyod etilgan?

- A) 1813-yil
- B) #1824-yil
- C) 1822-yil
- D) 1820-yil

363. (8-o'zb-23)Qaysi Xiva xoni davrida turkmanlarning yovmut qabilasining taqdiri uzil-kesil Xiva xonligi bilan bog'lanib, xonlik fuqaroligiga qabul qilindi?

- A) Muhammad Aminxon
- B) Oллоhqulixon
- C) #Muhammad Rahim I
- D) Eltuzarxon

364. (8-o'zb-23)Muhammad Amin inoq turkmanlarga qarshi dastlabki urushlarda muvaffaqiyatsizlikka uchragandan keyin kimning huzuriga qochishga majbur bo'lgan?

- A) Eron shohi Og'a Muhammad
- B) #Buxoro amiri Doniyolbiy
- C) Afg'oniston hukmdori Ahmadshoh
- D) Buxoro amiri Muhammad Rahimbiy

365. (8-o'zb-23)Muhammad Rahim I Kichik juz xonligiga 2 marta hujum uyushtirgan yillarni aniqlang.

- A) 1813-1815-yillar
- B) 1822-1824-yillar
- C) #1812-1820-yillar
- D) 1811-1813-yillar

366. (8-o'zb-24)1819-yil Rossiya hukumati tomonidan Xivaga jo'natilgan N. Muravyov ekspeditsiyasining maqsadi nimalardan iborat edi?

- 1) Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'ida istehkom qurish;
  - 2) xonlikdagi Rossiya fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash;
  - 3) Rossiya tovarlaridan olinadigan bojning 7% dan oshirmaslik;
  - 4) Boku-Astraxan savdo yo'lini ochish;
  - 5) qozoq qabilalarining talanishiga yo'l qo'ymaslik
  - 6) xonlikning 2 ta bekligida ruslarning bojsiz savdo qilishini ta'minlash.
- A) 2, 3, 6
  - B) 1, 4, 6
  - C) #1, 4
  - D) 1, 2, 3, 4, 6

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

367. (8-o'zb-24)XIX asrning 20-yillarda Buxoroga yuborilgan, ammo Xiva qo'shinlari tomonidan karvonni Xivaga burish sharti qo'yilgan savdo karvoniga kim rahbarlik qilgan?

- A) #S.Sealkovskiy
- B) N.Vaselevskiy
- C) N.Muravyov
- D) V.Perovskiy

368. (8-o'zb-24)XIX asr 40-yillari boshida Xivada bo'lgan ingliz kapitani J. Abbot Xiva xoni Oллоhqulixonga Rossiyaga qarshi bo'lgan qanday tadbirni taklif qilgan?

- A) asirlikda bo'lgan Rossiya fuqarolarini shartlar bajarilmagunga qadar ushlab turish
- B) #Rossiyaga qarshi harbiy istehkomlar qurish
- C) Rossiya bilan savdo shartnomalarini bekor qilish
- D) O'rta Osiyoning boshqa xonliklari bilan

369. (8-o'zb-24)Qaysi rus elchisining tashabbusi bilan imzolangan bitimda Xiva xonligida Rossiya tovarlaridan olinadigan boj miqdori 5% dan oshmasligi belgilangan edi?

- A) N. Muravyov
- B) N. Ignatyev
- C) S. Sealkovskiy
- D) #G. Danilevskiy

370. (8-o'zb-24)Xiva xonligidan mag'lub bo'lgan V. Perovskiy ekspeditsiyasi qachon Orenburgga qaytib keldi?

- A) 1839-yil dekabrda
- B) #1840-yil iyunda
- C) 1841-yil yanvarda
- D) 1839-yil noyabrda

371. (8-o'zb-24)Yangi Marv shahri bunyod etilgan (1824)yilidan 5yil oldin qaysi rus ekspeditsiyasi tashkil etildi?

- A) S.Sealkovskiy
- B) #N.Muravyov
- C) N.Vasilevskiy
- D) G.Danilevskiy

372. (8-o'zb-24)Xiva va Rossiya o'rtasidagi "Majburiyatlar akti" qaysi elchi tashabbusi bilan imzolangan edi?

- A) N.Muravyov
- B) Jeyms Abbot
- C) S.Sialkovskiy
- D) #G.Danilevskiy

373. (8-o'zb-24)1842-yil Xiva-Rossiya o'rtasida tuzilgan "Majburiyatlar akti"ga muvofiq Xiva xoni qanday majburiyatlarni oldi?

- 1) rus asirlarini saqlamaslik;
  - 2) xonlikdagi Rossiya fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash;
  - 3) Rossiya tovarlaridan olinadigan bojning 7% dan oshmasligi;
  - 4) turkmanlarning yovmut qabilasi taqdirini Rus hukumatiga topshirish;
  - 5) qozoq qabilalarining talanishiga yo'l qo'ymaslik;
  - 6) Xiva xonligining ikkita bekligida rus savdogarlarining bojsiz savdo qilishini ta'minlash;
  - 7) Xivaning Rossiyaga dushmanlik kayfiyatda bo'lishidan voz kechishlik.
- A) 1, 3, 4, 7
  - B) 1, 4, 6
  - C) #1, 2, 5, 7
  - D) 1, 3, 4, 6

374. (8-o'zb-24)XVIII asrning 2-yarmi – XIX asrning 1-yarmida Xiva-Rossiya munosabatlarining muhim jihati nimada edi?

- A) #o'zaro savdodan har ikkala davlat ham birdek manfaatdorligi
- B) qozoq juzlari yerlarining har ikkala davlat uchun birdek taqsimlanishi

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- C) Xiva uchun rus sanoat korxonalarini qo'lga kiritish bo'lsa, Rossiya Xiva orqali Eron davlatini o'z ta'siriga o'tkazmoqchi bo'lganligi  
D) Hindiston bilan savdo-sotiq qilishda hamkorlik qilish

375. (8-o'zb-24) Ingliz razvedkasi boshlig'i kapitan Jeyms Abbot nechanchi yilda Xivaga keldi?

- A) 1819-yil  
B) 1832-yil  
C) #1840-yil  
D) 1842-yil

376. (8-o'zb-24) Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining qaror topishiga to'sqinlik qilgan omillarni aniqlang.

- 1) o'zaro savdodan har ikkala davlat ham birdek manfaatdorligi
  - 2) savdo karvonlariga hujum qilish xavfining mavjudligi;
  - 3) har ikki taraf tomonidan Kichik juz qozoqlarini va qoraqalpoqlarni o'z fuqarolari deb hisoblashlari;
  - 4) har ikki tomonning o'zaro savdodan olinadigan boj hajmi masalasida bir to'xtamga kela olmaganliklari;
- A) 1, 4  
B) 3, 4  
C) 1, 2, 3  
D) #2, 3, 4

377. (8-o'zb-25) Xiva xonligida inoqlarning mavqeyi kuchli bo'lgan davrlarda ulardan 5 kishi a'zo bo'lgan qanday idora faoliyat ko'rsatgan?

- A) #Xon kengashi  
B) Devon  
C) Mashvarat  
D) Davlat maslahatxonasi

378. (8-o'zb-25) XIX asr 20-yillari ma'lumotlariga ko'ra, Xiva xonligining aholisi qancha kishini tashkil qilgan?

- A) 500 ming  
B) 300 ming  
C) 2 mln.  
D) #800 ming

379. (8-o'zb-25) Xiva xonligida qo'shbegidan keyingi o'rinda turadigan lavozimni aniqlang.

- A) inoq  
B) devonbegi  
C) mahram  
D) #mehtar

380. (8-o'zb-25) Quyidagi qaysi Xiva xoni davrida nufuzli amaldorlardan iborat Devon tashkil etildi?

- A) #Muhammad Rahim I  
B) Oллоhqulixon  
C) Eltuzar  
D) Muhammad Aminxon

381. (8-o'zb-25) Xiva xonligida inoqlarning nufuzi qachondan boshlab pasaya boshlagan?

- A) XVI asr boshlaridan  
B) #XIX asr birinchi yarmidan  
C) XVIII asr oxirlaridan  
D) XVII asr 70-yillaridan

382. (8-o'zb-25) Axya nima?

- A) 10 tanobgacha bo'lgan ijaraga olingan yer  
B) sug'orilmaydigan yerlar  
C) #sug'oriladigan yerlar  
D) inoqlarga tegishli bo'lgan xususiy yerlar

383. (8-o'zb-25) Xiva xonligi hududidagi Lavzan, Qilich Niyozbiy va Katta Xonobod kanallari qaysi asrda qurilgan?

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) XVII asr boshida
- B) #XIX asr boshlarida
- C) XVIII asr o'rtalarida
- D) XVIII asr oxirlarida

384. (8-o'zb-25) Adra nima?

- A) #sug' orilmaydigan yerlar
- B) 10 tanobgacha bo'lgan ijaraga olingan yer
- C) sug' oriladigan yerlar
- D) inoqlarga tegishli bo'lgan xususiy yerlar

385. (8-o'zb-25) Xiva xonligida mehnatkash xalq ... soliq va to'lovlar to'lagan.

- A) #18 xil
- B) 22 xil
- C) 27 xil
- D) 30 xil

386. (8-o'zb-25) Xiva xonligida hosilni tekshiruvchi va uning miqdorini aniqlovchi amaldor foydasiga olinadigan soliq qanday nomlanganligini aniqlang.

- A) afanak puli
- B) chibik puli
- C) qo'riqbon
- D) #mushrifona

387. (8-o'zb-25) Xiva xonligida mavjud bo'lgan soliq turlari va ularning mazmuni bilan to'g'ri belgilang.

- 1) qo'riqbonga;
  - 2) qo'nalg'a;
  - 3) afanak puli;
  - 4) uloq tutuv.
  - a) elchi va amaldorlarga ko'chib o'tish uchun joy berish;
  - b) aholining ot va tuyalarini jamoat ishiga safarbar etish;
  - c) o'rmon yoki yaylov nazoratchisi foydasiga to'lov;
  - d) begar majburiyati haqida xabar berganlik uchun to'lanadigan to'lov.
- A) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c
  - B) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b
  - C) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b
  - D) #1-c, 2-a, 3-d, 4-b

388. (8-o'zb-25) Xiva xonligida himoya damdalarini qurish va ularni ta'mirlash majburiyati nima deb atalgan?

- A) Qazu
- B) #Hachi
- C) Otlanuv
- D) Begar

389. (8-o'zb-25) Xiva xonligida mavjud bo'lgan 2 ta noiblik qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Toshhovuz va Hazorasp
- B) #Beshariq va Qiyot-Qo'ng'irot
- C) Xo'jayli va Qo'ng'irot
- D) Shohabbos va G'azovat

390. (8-o'zb-25) Xiva xonligida butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarni tozalashga safarbar etish majburiyati nima deb atalgan?

- A) #Qazu
- B) Hachi
- C) Otlanuv
- D) Begar

391. (8-o'zb-25) Xiva xonligida xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish nima deb atalgan?

- A) Qazu

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- B) Hachi
- C) #Otlanuv
- D) Begar

392. (8-o'zb-26)Xiva shahridagi Ichan qal'a nechanchi yilda Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi?

- A) 1995-yil
- B) 1992-yil
- C) #1990-yil
- D) 1997-yil

393. (8-o'zb-26)Qaysi yilga kelib Xiva shahrida qayta tiklash ishlari tugallandi?

- A) 1870-yil
- B) 1790-yil
- C) 1765-yil
- D) #1782-yil

394. (8-o'zb-26)Ma'lumki, Oллоhqulixon davrida Xiva shahri devor bilan o'ralib, devorning uzunligi necha metr bo'lgan?

- A) 6620 m
- B) 2550 m
- C) 4500 m
- D) #6250 m

395. (8-o'zb-26)Katta Minor nomi bilan mashhur munora kimning davrida bunyod etilgan edi?

- A) Muhammad Rahim I
- B) Oллоhqulixon
- C) #Muhammad Aminxon
- D) Eltuzarxon

396. (8-o'zb-26)Sherg'ozixon madrasasi nechanchi yilda bunyod etilgan?

- A) #1765-yil
- B) 1780-yil
- C) 1718-yil
- D) 1721-yil

397. (8-o'zb-26)XIX asr birinchi yarmiga kelganda Xivada ... xon saroyi, ...masjid,... madrasa bo'lgan.

- A) 22 ta, 1 ta, 35 ta
- B) #2 ta, 17 ta, 22 ta
- C) 3 ta, 27 ta, 17 ta
- D) 83 ta, 1 ta, 21 ta

398. (8-o'zb-26)Xiva shahrini o'rab olgan Dishan qal'a devori qurilishida rahbarlik qilgan mehtar lavozimidagi shaxsni aniqlang.

- A) Polvon Abdusattor
- B) Mahmud Niyozbiy
- C) Olloyorbek
- D) #Muhammad Yoqub

399. (8-o'zb-26)Dishan qal'a devorining balandligi necha metr bo'lgan?

- A) 5-6 m
- B) 9-10 m
- C) #7-8 m
- D) 10-12 m

400. (8-o'zb-26)Xivadagi qaysi madrasalar aynan bir yilda bunyod etilgan?

- A) Muhammad Rahimxon va Shohniyoz madrasasi
- B) Oллоhqulixon va Qutlug' Murod inoq madrasasi
- C) #Sherg'ozixon va Muhammad Amin madrasasi
- D) Muhammad Yoqub va Oллоhqulixon madrasasi

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

401. (8-o'zb-26) Markaziy Osiyo an'anaviy me'morchiligida inshootlarni ro'parama-ro'para qurish uslubi nima deyilgan?
- A) sinchkori
  - B) g'uvoki
  - C) #qo'sh
  - D) Gumbazli
402. (8-o'zb-26) Musa To'ra madrasasi qaysi shaharda joylashgan?
- A) Uganch
  - B) #Xiva
  - C) Qiyot
  - D) Hazorasp
403. (8-o'zb-26) Ollohqulixon madrasasi qurib tugallangan yilni aniqlang.
- A) 1842-yil
  - B) 1851-yil
  - C) 1824-yil
  - D) #1834-yil
404. (8-o'zb-27) Hasanbek Rumluning asari berilgan javobni toping.
- A) "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat"
  - B) "Qo'ng'irotlar sulolasi"
  - C) # "Eng go'zal tarix"
  - D) "O'zbeklar Xorazmda"
405. (8-o'zb-27) 1997-yil Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan chop etilgan asarni aniqlang.
- A) # "Xiva – ming gumbaz shahri"
  - B) "O'zbeklar Xorazmda"
  - C) "Eng go'zal tarix"
  - D) "Shajarayi Xorazmshohiy"
406. (8-o'zb-27) XVIII asr oxirlarida Xiva xonining ko'zi ojiz amakisini davolash uchun Orenburgdan taklif etilgan vrachni aniqlang.
- A) R. Baziner
  - B) #Blankennagel
  - C) N. Ignatyev
  - D) S. Jukovskiy
407. (8-o'zb-27) Xiva xonlari arxivi ruslar tomonidan Peterburgga olib ketilgani (1873-yil) dan qancha vaqt o'tib, u Toshkentga qaytarib olib kelindi?
- A) bir asr
  - B) 75 yil
  - C) #89 yil
  - D) 120 yil
408. (8-o'zb-27) "Dili g'aroyib" asarining muallifi berilgan javobni toping.
- A) Yusuf Bayoniy
  - B) Hasanbek Rumlu
  - C) #Xudoyberdi Avaz Muhammad
  - D) Xerman Vanberi
409. (8-o'zb-27) 1858-yil Xiva va Buxoroga yuborilgan rus missiyasi rahbarini aniqlang.
- A) S. Jukovskiy
  - B) #N. Ignatiyev
  - C) N. Vasilevskiy
  - D) G. Danilevskiy
410. (8-o'zb-27) Qaysi rus elchisi o'z "esdaliklar"ida o'zbeklarni "aql-idrokli, suhbatlari yoqimli va o'tkir, qat'iyatli, matonatli, urf-odati oddiy, yolg'on va aldovdan nafratlanuvchi mard va jasur kishilar", deb ta'riflagan?

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) F. Benivini
- B) G. Danilevskiy
- C) N. Vasilevskiy
- D) #N. Muravyov

411. (8-o'zb-27) Akademik I. Mo'minov boshchiligida yozilgan "Xorazmning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi" asari nechanchi yilda chop etilgan?

- A) 1962-yil
- B) 1973-yil
- C) #1976-yil
- D) 1997-yil

412. (8-o'zb-27) "Qo'ng'irotlar sulolasi" asarining muallifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) F. Benivini
- B) G. Danilevskiy
- C) #N. Vasilevskiy
- D) N. Muravyov

413. (8-o'zb-27) Munis vafot etgach, xonlik tarixini yo'zish ishini Ogahiy davom ettirib, "Shohidi iqbol" deb atalgan tarixiy asar bitgan. Bu asar nechanchi yilgacha bo'lgan tarixni aks ettiradi?

- A) 1873-yil
- B) #1872-yil
- C) 1874-yil
- D) 1876-yil

414. (8-o'zb-27) Xiva xonligining 1872-1911-yillardagi tarixini ... topshirig'i bilan ... yozgan edi.

- A) Rahimqulixon, Ogahiy
- B) Muhammad Rahim I, Munis
- C) #Asfandiyorxon, Yusufbek Bayoniy
- D) Muhammad Rahim II, Ogahiy

415. (8-o'zb-27) Quyidagi qaysi rus elchisining O'rta Osiyo haqidagi "Esdaliklar"i fransuz va nemis tillariga tarjima qilingan?

- A) I. Xoxlov
- B) F. Benivini
- C) N. Ignat'yev
- D) #N. Muravyov

416. (8-o'zb-27) Abulg'oziy Bahodirxon nechanchi yillarda yashagan?

- A) 1605-1663-yillar
- B) 1604-1663-yillar
- C) 1609-1664-yillar
- D) #1603-1664-yillar

417. (8-o'zb-27) Munisning "Firdavs ul-iqbol" asari kimning topshirig'i bilan yozilgan?

- A) Ollohqulixon
- B) #Eltuzarxon
- C) Asfandiyorxon
- D) Muhammad Rahimxon I

418. (8-o'zb-27) "Eng go'zal tarix" asari Xivaning nechanchi asr voqealari haqida ma'lumot beradi?

- A) XVII-XVII asrlar
- B) eng qadimgi davrdan - XVI asrgacha
- C) XVI-XIX asrlar
- D) #XVI asrning birinchi yarmi

419. (8-o'zb-27) "Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari, savdo-sotig'i va sanoati" nomli asar muallifini aniqlang.

- A) N. Vasilevskiy
- B) N. Ignat'yev va S. Jukovskiy

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

C) N.Muravyov

D) #G.Danilevskiy va R.Baziner

420. (8-o'zb-27) "Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxor va Xiva bilan aloqalari" asarining muallifini aniqlang.

A) N. Vasilevskiy

B) #S. Jukovskiy

C) N. Ignatyev

D) N. Muravyov

421. (8-o'zb-27) "Xiva – ming gumbaz shahri" kitobi qaysi davr voqealarini o'z ichiga oladi?

A) XVII-XVII asrlar

B) XVI asrning birinchi yarmi

C) #XVI-XIX asrning birinchi yarmi

D) eng qadimgi davrdan – XVI asrgacha

422. (8-o'zb-28) Tarixiy manbalarda yozilishicha, hozirgi Qoraqalpog'iston hududida odamlar qachondan yashab kelishadi?

A) So'nggi paleolit

B) Mil.avv. V asrdan

C) #Neolit davri

D) Bronza davri

423. (8-o'zb-28) Qoraqalpoq xalqining shakllanish jarayoni qachon nihoyasiga yetdi?

A) XII asr

B) XIV asr

C) XV asr

D) #XVI asr

424. (8-o'zb-28) Qoraqalpoqlar mo'g'illar tarixida qanday nom bilan tilga olinadi?

A) #qora malaqayli

B) qora sochli

C) saka tigraxauda

D) qora bo'rkli

425. (8-o'zb-28) Qoraqalpoq xalqi qaysi qabilalar negizida shakllangan edi?

A) qiyot, qo'ng'iroq, nayman, qipchoq, ming

B) #qipchoq, kenagas, xitoy, qo'ng'iroq, mo'ytan

C) uygur, oyrat, mang'it, barlos, saroy, qiyot

D) qalmoq, qipchoq, do'rmon, qo'shlu, nayman

426. (8-o'zb-28) Qoraqalpoqlar sharq manbalarida qanday nom bilan tilga olinadi?

A) qora malaqayli

B) qora sochli

C) saka tigraxauda

D) #qora bo'rkli

427. (8-o'zb-28) No'g'ay xonligi ... uchga bo'linib ketgan.

A) #XVI asr ikkinchi yarmida

B) XIV asr o'rtalarida

C) XV asr birinchi yarmida

D) XVII asrboshlarida

428. (8-o'zb-28) XVIII asr boshlariga kelib Sirdaryo bo'ylarida yashovchi qoraqalpoqlar birlashishga harakat qilgan edi. Ularning birlashuvida muhim rol o'ynagan shaxslarni aniqlang.

A) Ernazarbiy, Esangeldi

B) G'oyibxon, Omongeldi, Maman botir

C) #Kuchukxon, Taburchak, G'oyib sulton

D) Surtoysbi, Rizo, To'rabi

429. (8-o'zb-28) No'g'ay xalqining ikkinchi nomi qanday ataladi?

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) qo'ng'irot
- B) #mang'it
- C) bijanak
- D) o'g'uz

430. (8-o'zb-28) Amudaryo, Quvondaryo va Orol dengizi atrofida yashovchi qoraqalpoqlar nechanchi yilda Xiva xonligiga bo'ysundiriladi?

- A) #1809-yil
- B) 1811-yil
- C) 1810-yil
- D) 1831-yil

431. (8-o'zb-28) Quyidagi qaysi omil qoraqalpoqlarni Eron shohi Nodirshoh hujumidan saqlab qolgan?

- A) qoraqalpoqlarning Kichik juz xonligi tarkibiga kirganligi
- B) qish mavsumining boshlanib qolishi va eronliklarning sahro yurishidan voz kechishi
- C) #qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi fuqaroligiga o'tganligi
- D) Eronda boshlangan qo'zg'olon va Nodirshohning o'z vataniga qaytib ketishi

432. (8-o'zb-28) 1731-yil qozoq xoni Abulxayrxon huzurida bo'lgan Rossiya elchisini aniqlang.

- A) A. Burnashev
- B) T. Beznosikov
- C) I. Troiskiy
- D) #M. Tevkelev

433. (8-o'zb-28) Qoraqalpoq xonligi kim boshchiligida tashkil topgan?

- A) #Eshimxon
- B) Abulxayrxon
- C) Oydo'stbiy
- D) Idigu

434. (8-o'zb-28) Qoraqalpoqlar manbalarda qaysi nomlar bilan qayd etilgan?

- 1) rus yilnomalari;
- 2) mo'g'ullar tarixi;
- 3) sharq manbalari;
- 4) fors bitiktoshi
- a) "qora bo'rqli";
- b) "saka tigraxauda"
- c) "cherniy klobuki";
- d) "qora malaqayli";
- A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d
- B) #1-c, 2-d, 3-a, 4-b
- C) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c
- D) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d

435. (8-o'zb-28) Qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida biylar va botirlar muhim o'rin tutgan bo'lib, biylar qanday vazifalarni bajargan?

- 1) qoraqalpoq urug'lariga boshchilik qilganlar;
- 2) qoraqalpoqlarning tashqi huquqiy va xo'jalik muammolarni hal qilganlar;
- 3) qo'shni xalqlar bilan munosabatlarda o'z urug'i yoki qabilasi nomidan vakil sifatida qatnashganlar;
- 4) jang paytlarida qo'shinga qo'mondonlik qilgan.
- A) 1, 2, 3
- B) 2, 4
- C) 1, 4
- D) #1, 3

436. (8-o'zb-28) Qay tariqa qoraqalpoqlarni Xiva xonligiga bo'ysundirish nihoyasiga yetkazildi?

- 1) 1809-yilda Amudaryo, Quvondaryo va Orol dengizi atrofidagi qoraqalpoqlarni xonlik tomonidan bosib olinishi tufayli
- 2) 1822-yilda Sirdaryo bo'yida yashovchi qoraqalpoqlarning bo'ysundirilishi tufayli
- 3) 1810-1811-yillarda Yangidaryo atrofida yashovchi qoraqalpoqlarni ham tobe etilishi tufayli

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- 4) 1835-yilda Shimoliy Orol dengizi bo'yi qoraqalpoqlarining tobe etilishi tufayli  
A) 1,3,4  
B) 2,4  
C) #1,3  
D) 1,2,3
437. (8-o'zb-28)XIV asrda tashkil topgan No'g'ay xonligining chegarasi haqidagi to'g'ri ma'lumot qaysi javobda keltirilgan?  
A) Balxash ko'lidan Dnepr daryosigacha, Kaspiy dengizidan janubiy Sibirgacha  
B) #Volga daryosidan Irtish daryosigacha, Kaspiy va Orol dan Kama daryosigacha  
C) Issiqko'ldan Sirdaryo havzasigacha, Ili daryosidan Ural tog'larigacha  
D) Orol dengizidan Kaspiy dengizigacha, Sirdaryo dan Issiqko'lgacha
438. (8-o'zb-28)X asr boshlarida bijanaklarning bir qismi Volga ortiga, Janubiy Rus dashtlariga ko'chishiga nima sabab bo'lgan edi?  
A) #o'g'uz va qipchoqlarning siquvi  
B) yaylovlarning qo'riqqa aylanishi  
C) dehqonchilik xo'jalikning asosiy tarmog'iga aylanib, unumdor yerlarga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi  
D) slavyan qabilalarining hujumi va tazyiqi
439. (8-o'zb-28)Eshmuhammad boshchiligida qoraqalpoq xonligi tashkil etilgan yilni aniqlang.  
A) 1716-yil  
B) 1419-yil  
C) 1809-yil  
D) #1714-yil
440. (8-o'zb-28)Qachon va nimaning oqibatida qoraqalpoqlar quyi va yuqori deb nomlangan tarmoqlarga bo'linib ketdi?  
A) 1726-yil qozoq xoni Abulxayrning hujumi natijasida  
B) 1731-yil qoraqalpoqlarning qipchoqlar hujumiga duchor bo'lishi natijasida  
C) XVI asrda Shayboniylarning tazyiqi oqibatida  
#1723-yil jung'orlarning Sirdaryo o'rta oqimini egallashi oqibatida
441. (8-o'zb-28)Noto'g'ri berilgan javobni toping!  
A) 1723-yildan keyin qoraqalpoqlar ikkiga bo'linib ketdi  
B) XIV asr oxirida No'g'ay xonligi tashkil topdi  
C) #1716-yil Eshmuhammadxon boshchiligida Qoraqalpoq xonligi tashkil topdi  
D) Qoraqalpoq xalqi haqida XII asr rus manbalarida ma'lumotlar uchraydi
442. (8-o'zb-28)Qaysi Xiva xoni davrida Orolbo'yi o'zbeklari va qoraqalpoqlar Xiva xonligi hokimiyatini tan oldi?  
A) Sherg'ozixon  
B) #Elbarsxon  
C) Ollohqulixon  
D) Muhammad Rahim I
443. (8-o'zb-28)Qaysi Xiva xoni davrida qoraqalpoqlarni bo'ysundirish uchun bo'lgan harakatlar mufavvaqiyatsiz tugagan?  
A) #Sherg'ozixon  
B) Elbarsxon  
C) Ollohqulixon  
D) Muhammad Rahim I
444. (8-o'zb-29)Qoraqalpoqlarning ma'muriy markazi bo'lgan shaharlarni aniqlang.  
A) Qiyot, Xo'jayli  
B) #Qo'ng'iro't, Chimboy  
C) Mang'it, Xo'jayli  
D) Chimboy, Nukus

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

445. (8-o'zb-29)Quyidagi qaysi dostonida qoraqalpoqlarning yerlar o'zlashtirib, suv inshootlari qurib, yer haydab g'alla yetishtirganligi, bog'lar yaratganligi haqida ma'lumotlar berilgan?
- A) #“Qirqqiz”
  - B) “Qo‘blan”
  - C) “Edigey”
  - D) “Mastposhsho”
446. (8-o'zb-29)Xiva xonligida urush xavfi tug'ilgan paytda qoraqalpoqlardan qanday soliq undirilar edi?
- A) ushur solig'i
  - B) miltiq puli
  - C) qo'riqbon
  - D) #qozon solig'i
447. (8-o'zb-29)Oydo'stbiy qo'zg'oloniga qarshi Xiva xoni kimni qo'shin bilan Xo'jayliga jo'natgan edi?
- A) Muhammadniyozni
  - B) Mahmud Rizoni
  - C) Muhammad Yaqubni
  - D) #Muhammad Nazarbiyini
448. (8-o'zb-29)Xiva xoni qo'shinlari Oydo'stbiy boshchiligidagi qo'zg'olonchilarni qayerda tor-mor keltiradi?
- A) Sori o'tovida
  - B) #Chirikrabot mavzeida
  - C) Mang'it yaqinida
  - D) Xo'jaylida
449. (8-o'zb-29)Oydo'stbiy qoraqalpoq biylarini yig'ib qayerda maslahat o'tkazgan edi?
- A) Mang'it shahrida
  - B) #Orol dengizi bo'yida
  - C) Amudaryo bo'yida
  - D) Kegayli ovulida
450. (8-o'zb-29)Oydo'stbiy o'limiga bag'ishlab marsiya yozgan shoirni aniqlang.
- A) #Munis
  - B) Ogahiy
  - C) Berdaq
  - D) Ajiniyoz
451. (8-o'zb-29)Oydo'stbiy boshchiligidagi qo'zg'olonchilarga qarshilik ko'rsatgan Qo'ng'iro't hokimini aniqlang.
- A) Muhammadniyoz
  - B) Mahmud Rizo
  - C) #Muhammad Yaqub
  - D) Muhammad Nazarbiy
452. (8-o'zb-29)Qalliko'l va Kegaylida qoraqalpoqlar dehqonchilik vohasini tashkil etgan davrni aniqlang.
- A) XIX asr o'rtalarida
  - B) #XVIII asr oxirlarida
  - C) XVII asr oxirlarida
  - D) XVI asr o'rtalarida
453. (8-o'zb-29)Oydo'stbiyning o'g'illari ismi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- A) Ernazar, Ko'kazak
  - B) Qurbonbiy, Tojiboy
  - C) Esangeldi, Maman botir
  - D) #Rizo, To'ra
454. (8-o'zb-29)Sharqdan G'arbga boruvchi savdogarlar uchun qoraqalpoqlar tayyorlagan ... xaridorgir edi.
- A) na'mat gilamlar
  - B) sahroga chidamli otlar

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- C) #tuzlangan baliq mahsulotlari
- D) egar-jabduqlar

455. (8-o'zb-29)XIX asrning 50-yillarida Qong'irotda necha marotaba qo'zg'olon ko'tarildi?

- A) 1 marta
- B) #2 marta
- C) 3 marta
- D) 4 marta

456. (8-o'zb-30)XIX asrdagi Qoraqalpoq xalqining rasmiy dinini aniqlang.

- A) nistorianlik
- B) buddaviylik
- C) #islom
- D) otashparastlik

457. (8-o'zb-30)Qoraqalpoqlarning Orol va Xiva oralig'idagi bojxona shahri qaysi edi?

- A) Mang'it
- B) #Xo'jayli
- C) Chimboy
- D) Qo'ng'irotda

458. (8-o'zb-30) "Qirqqiz" dostonida XVIII asrda qoraqalpoqlarning kimlarga qarshi kurashi o'z ifodasini topgan?

- A) Jung'orlarga
- B) Qozoqlarga
- C) #Eron shohi Nodirshohga
- D) Xiva xonligiga

459. (8-o'zb-30)Cho'qon Valixonov ...

- A) #Qozoq ma'rifatparvari
- B) Turkman tarixchisi va shoiri
- C) Qoraqalpoq yozuvchisi
- D) Qrim-tatar ma'rifatparvari

460. (8-o'zb-30)"Qirqqiz" dostoni nechanchi yil, kimdan yozib olingan?

- A) 1891-yil, Berdimurod Qarg'aboy o'g'lidan
- B) 1952-1953-yillar, Mahmud Zaripovdan
- C) 1926-yil, Ergash Jumanbulbuldan
- D) #1939-1940-yillar, Qurbonboy Tojiboy o'g'lidan

461. (8-o'zb-30)Quyidagi qaysi qoraqalpoq dostonida Amir Temur va To'xtamish faoliyati bilan bog'liq voqealar bayon etilgan?

- A) #"Edigey"
- B) "Qo'blan"
- C) "Qirqqiz"
- D) "Qurbonbek"

462. (8-o'zb-30)Quyidagi qaysi qoraqalpoq shahri Orol va Xiva o'rtasidagi savdo markazi bo'lgan?

- A) Qong'irotda
- B) Chimboy
- C) #Xo'jayli
- D) Nukus

463. (8-o'zb-30)Quyidagi qaysi qoraqalpoq dostoni atoqli xalq baxshisi Qurbonboy baxshi Tojiboy o'g'lidan 1939-1940-yillarda yozib olingan?

- A) "Edigey"
- B) "Qo'blan"
- C) #"Qirqqiz"
- D) "Qurbonbek"

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

464. (8-o'zb-30)Qoraqalpoq folklori namunalarining necha jildi nashr qilingan?  
A) 16  
B) 18  
C) 22  
D) #20
465. (8-o'zb-30)Qaysi shaharlar qoraqalpoq xalqi tomonidan qal'a shaklida qurilgan?  
A) Janariq, Xo'jayli, Qirqqizqal'a, Chimboy  
B) Qo'ng'iroq, Chimboy, Ernazarqal'a, Mang'it  
C) Mang'it, Eshonqal'a, Ko'ko'zakqal'a, Chimboy  
D) #Janaqal'a, Oydo'stqal'a, Ernazarqal'a, Eshonqal'a, Ko'ko'zakqal'a
466. (8-o'zb-30)Qoraqalpoqlarning xalq qo'shiqlarida qaysi qahramonlar ulug'lanadi?  
A) Surtoyshi, Arslon, Omongeldi, Edigey, O'tbosgan  
B) #Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo'stbiy, Ernazarbiy  
C) Oydo'stbiy, Olloyorbey, Esangeldi, Po'latxon  
D) Qublan botir, Maman botir, Omongeldi, Arslon, Qulbobo
467. (8-o'zb-30)Qoraqalpoqlarning "Qirqqiz" dostonida keltirilgan jung'orlarning xonini aniqlang.  
A) Qurbonboy  
B) Ernazarbiy  
C) #Surtoyshi  
D) Maman botir
468. (8-o'zb-30)XIX asrda Qoraqalpoqlarda nechta maktab bo'lgan?  
A) 78 ta  
B) 83 ta  
C) 103 ta  
D) #318 ta
469. (8-o'zb-30)Oltinoy, O'tbosgan singari obrazlar qaysi asar qahramonlari hisoblanadi?  
A) "Edigey"  
B) "Qo'blan"  
C) # "Qirqqiz"  
D) "Qurbonbek"
470. (8-o'zb-31)Mashhur qoraqalpoq baxshisi Kunxo'ja Ibrohim yashagan yillarni aniqlang.  
A) 1730-1784-yillar  
B) #1799-1880-yillar  
C) 1771-1831-yillar  
D) 1801-1864-yillar
471. (8-o'zb-31)Qoraqalpoq elining begona o'lkalarga ko'chib yurganliklariga bag'ishlangan dostonlarni aniqlang.  
A) "Qirqqiz", "Qurbonbek"  
B) # "Bo'zatov", "Darbadal el"  
C) "Omongeldi", "Avlodlar"  
D) "Ernazarbiy", "Edigiy"
472. (8-o'zb-31)Ajiniyozni O'rta Osiyoga tanitgan asarini aniqlang.  
A) # "Qiz Mengesh bilan aytishuv"  
B) "Bo'zatov"  
C) "Oq qamish"  
D) "Yegitlar"
473. (8-o'zb-31)Berdaq necha yoshida iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi?  
A) 18 yosh  
B) 19 yosh  
C) 20 yosh  
D) #25 yosh

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

474. (8-o'zb-31) Berdaq qalamiga mansub qaysi doston Buxoro amirligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon boshlig'i jasoratiga bag'ishlangan?

- A) "Oydo'stbiy"
- B) "Ernazarbiy"
- C) # "Omongeldi"
- D) "Avlodlar"

475. (8-o'zb-31) Quyidagilardan muallifi bilan to'g'ri ko'rsatilgan dostonlarni aniqlang.

- 1) Ajiniyoz;
- 2) Berdaq;
- 3) Jiyen Jirov.
- a) "Bo'zatov"
- b) "Darbadar el"
- c) "Avlodlar"
- A) 1-b, 2-a, 3-c
- B) #1-a, 2-c, 3-b
- C) 1-a, 2-b, 3-c
- D) 1-c, 2-a, 3-b

476. (8-o'zb-31) Bo'zatovda tug'ilgan qoraqalpoq shoirini aniqlang.

- A) Kunxo'ja Ibrohim
- B) Ajiniyoz
- C) # Berdaq
- D) Jiyen Jirov

477. (8-o'zb-31) Ajiniyoz tavalludining 175 yillik yublyei nechanchi yilda nishonlangan?

- A) 1998-yil
- B) #1999-yil
- C) 1997-yil
- D) 2000-yil

478. (8-o'zb-31) Kunxo'ja Ibrohimning quyidagi qaysi she'rlarida u Xiva xoni ustidan kuladi?

- A) "Boy bolasi", "Hoy xonimiz, xonimiz"
- B) "Xon yonida to'ralar", "Tuya ekansan"
- C) "Unutmasman", "Hoy xonimiz, xonimiz"
- D) # "Tuya ekansan", "Unutmasman"

479. (8-o'zb-31) Quyidagi qaysi baxshi 1730-1784-yillarda yashab, ijod etgan?

- A) Berdaq
- B) # Jiyen Jirov
- C) Zevar
- D) Ajiniyoz

480. (8-o'zb-31) Jiyen Jirov tomonidan yozilgan she'rlarni qayd eting.

- A) "El bilan", "Boy bolasi", "Mening bolam", "Hoy xonimiz, xonimiz", "Xon yonida to'ralar"
- B) "Kerak", "Bo'ladi", "Bo'lmasa", "Yaxshi", "Yigitlar", "Avlodlar", "Bo'lgan emas"
- C) "Bo'lgan emas", "Umrin", "Yordam ber", "Hoy yigitlar, yigitlar", "Xayr endi, do'stlar", "Yuragimda ko'p dog'im"
- D) # "Hoy yigitlar, yigitlar", "Xayr endi, do'stlar", "Yuragimda ko'p dog'im", "Tuyani ber", "Hoy xonimiz, xonimiz", "Xon yonida to'ralar"

481. (8-o'zb-31) Berdaqning qaysi she'rlarida mehnatkash xalqning og'ir hayoti o'z aksini topib, Xiva xonlari, amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi ifodalangan?

- A) "Kerak", "Bo'ladi", "Bo'lmasa"
- B) "Xalq uchun", "Ahmoq bo'lma"
- C) "O'g'limga", "Kerak",
- D) # "Bo'lgan emas", "Umrin"

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

482. (8-o'zb-31)Qozoq xoni Abulxayrxondan mag'lubiyatga uchraganidan keyin, Sirdaryo bo'ylab har yoqqa tarqab ketgan va sarson-sargardonlikda yurgan qoraqalpoqlar hayoti haqida hikoya qiluvchi asarni aniqlang.
- A) #“Darbadar el”
  - B) “Avlodlar”
  - C) “Edigey”
  - D) “Qo‘blan”
483. (8-o'zb-32)Qo‘qon xonligining poytaxti kimning davrida Qo‘qon shahriga ko‘chirilgan?
- A) Shohruxbiy
  - B) Abdurahimbiy
  - C) #Adulkarimbiy
  - D) Norbo‘tabiy
484. (8-o'zb-32)Xo‘jand va O‘ratepa kimning davrida Qo‘qon xonligiga qo‘shib olindi?
- A) Shohruxbiy
  - B) #Abdurahimbiy
  - C) Abdulkarimbiy
  - D) Norbo‘tabiy
485. (8-o'zb-32)O‘sh va O‘zgan kimning hukmronligi davrida Qo‘qon xonligiga bo‘ysundirildi?
- A) #Erdona
  - B) Norbo‘tabiy
  - C) Abdurahimbiy
  - D) Abdulkarimbiy
486. (8-o'zb-32)Qo‘qon xoni Abdurahimbiy davrida quyidagi voqealardan qay birlari ro‘y bergan?
- 1) Xo‘jand, O‘ratepa viloyatlari qo‘shib olindi;
  - 2) hozirgi Qo‘qon shahriga asos solindi;
  - 3) poytaxt Tepaqo‘rg‘ondan Qo‘qon shahriga ko‘chirildi;
  - 4) Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent, Sayram va Turkistonni o‘ziga bo‘ysundirdi;
  - 5) Shahrisabz ostonalariga qo‘shin tortib bordi va uning hokimi bilan Qo‘qonga tobelik haqida bitim tuzishga erishadi;
  - 6) Samarqandni va Jizzaxni egalladi.
- A) 2, 3, 4
  - B) 1, 3, 6
  - C) #1, 5, 6
  - D) 1, 2, 3
487. (8-o'zb-32)Qo‘qon xoni Erdona hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
- A) 1733-1750-y.
  - B) #1751-1762-y.
  - C) 1721-1733-y.
  - D) 1763-1798-y.
488. (8-o'zb-32)Qo‘qon xonligida quyidagi qaysi mansab o‘z nufuzi jihatidan qo‘shbegi vakolatiga teng bo‘lgan?
- A) Mehtar
  - B) Xudoychi
  - C) Naqib
  - D) #Parvonachi
489. (8-o'zb-32)Olimxon davrida xonlikda harbiy islohot o‘tkazilib muntazam armiya tuziladi. Har bir zobitga qanchadan maosh belgilangan edi?
- A) ikki tillo
  - B) o‘ttiz tanga
  - C) uch dinor
  - D) #ellik tanga
490. (8-o'zb-32)Qo‘qon xonligida qaysi hukmdorlar davrida xonlikning qudrati ortdi?
- A) Muhammad Alixon, Murodxon, Olimxon

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- B) Xudoyorxon, Muhammad Alixon, Mallaxon
- C) #Erdona, Norbo'tabiy, Olimxon
- D) Mallaxon, Xudoyorxon, Murodxon

491. (8-o'zb-32)Qo'qon xoni Olimxonning Ohangaron vohasini, Toshkent, Chimkent, Sayram va Turkistonni o'ziga bo'ysundirishi natijasida ...

- A) qozoq juzlari bilan nizo kelib chiqdi
- B) Buxoro xonligi bilan urushlar kelib chiqdi
- C) #Rossiya bilan savdo yo'li ochildi
- D) Rossiya bilan nizo kelib chiqdi

492. (8-o'zb-32)Qo'qon xonligi ma'muriy-hududiy jihatdan nechta viloyatga bo'lingan edi?

- A) #15 ta
- B) 20 ta
- C) 27 ta
- D) 40 ta

493. (8-o'zb-32)Eskiqo'rg'on qal'asi yonida qurilgan shaharni aniqlang.

- A) Namangan
- B) Marg'ilon
- C) #Qo'qon
- D) Andijon

494. (8-o'zb-32)Mulla Olim Mahmudxo'janing "Tarixi Turkiston" asari Toshkentda qachon nashr etilgan?

- A) 1882-yil
- B) 1898-yil
- C) 1912-yil
- D) #1915-yil

495. (8-o'zb-32)Mulla Olim Mahmudxo'janing "Tarixi Turkiston" asarida yozilishicha, Qo'qon xonligidagi qaysi mansab egasi o'z lavozimidan tashqari, katta shaharlardan biriga hokimlik ham qilgan?

- A) parvonachi
- B) mingboshi
- C) otaliq
- D) #qo'shbegi

496. (8-o'zb-32)Buxoro xonligidagi dodxoh lavozimiga teng bo'lgan Qo'qon xonligi mansabini aniqlang.

- A) parvonachi
- B) #xudoychi
- C) otaliq
- D) rais

497. (8-o'zb-32)Qaysi Qo'qon xoni davrida Xo'jand qayta bo'ysundirildi?

- A) Erdonabiy
- B) #Norbo'tabiy
- C) Abdurahimbiy
- D) Abdukarimbiy

498. (8-o'zb-32)Qo'qon xonligida kimning davrida harbiy islohot o'tkazilib, botirlar deb ataluvchi muntazam armiya tuzilgan?

- A) Muhammad Alixon
- B) Umarxon
- C) #Olimxon
- D) Xudoyorxon

499. (8-o'zb-32)Qay tariqa O'rta Osiyoda, keyinchalik, Qo'qon xonligi deb atalgan yangi davlat vujudga keldi?

- A) #Minglar chodaklik din peshvolari hokimiyatini ag'darib, Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'llariga olishi natijasida

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- B) Chodak qishlog'i shayxlarining Ubaydullaxon hokimiyatiga bo'ysunmasdan, o'z mulklarini mustaqil deb e'lon qilishlari natijasida
- C) Ming sulolasidan bo'lgan aslzodalarning Turkiston va Taroz hududlarini Buxoro xonligidan mustaqil deb e'lon qilishlari natijasida
- D) din peshvolari tomonidan chodaklik shayxlarning Qo'qon shahridagi hokimiyatini ag'darishi natijasida

500. (8-o'zb-32)Noto'g'ri berilgan javobni toping.

- A) Abdurahimbiy Shahrisabz hokimi bilan Qo'qonga tobelik haqida bitim tuzgan edi.
- B) Qo'qon 1805-yildan rasman xonlik deb e'lon qilindi
- C) #Xudoychi mansabi xonlikda moliya va xo'jalik ishlarini boshqargan
- D) 1799-yil Toshkent qo'shinlari Chirchiq bo'yida Olimxon qo'shiniga zarba bergan edi.

501. (8-o'zb-33)Mustaqil Toshkent hokimligiga nechanchi yil asos solindi?

- A) 1796-y.
- B) #1784-y.
- C) 1756-y.
- D) 1799-y.

502. (8-o'zb-33)Toshkent bekligida shahar savdosi ustidan kimlar nazorat o'rnatgan?

- A) rais, karvonboshi
- B) #devonbegi, qozi
- C) rais, devonbegi
- D) xon, mingboshi

503. (8-o'zb-33)1786-yilda toshkentlik savdogarlar B.Ismoilov va Azizxo'jalar Rossiyadagi qaysi shahar yarmarkasiga borishgan?

- A) #Irbit
- B) Orenburg
- C) Troisk
- D) Samara

504. (8-o'zb-33)Yunusxoja qayerda Toshkent hokimi etib tayinlandi?

- A) #Xon kengashida
- B) Chu daryosi bo'yidagi yig'inda
- C) Qo'qon xoni qarshisida
- D) Turkiston shahridagi qurultoyda

505. (8-o'zb-33)Mustaqil Toshkent hokimligining chegarasi 1799-yilda qayerlargacha yetdi?

- A) Balxash ko'ligacha
- B) Sayram shahrigacha
- C) #Chu daryosigacha
- D) Orenburggacha

506. (8-o'zb-33)XVIII asrning 90-yillarida Rahmatulla karvonboshi rahbarligidagi bir guruh Toshkent savdogarlari o'z karvonlari bilan doimo ... ga qatnab turganlar.

- A) Irbit
- B) #Petropavlosk
- C) Orenburg
- D) Semipalatinsk

507. (8-o'zb-33)Toshkent elchilari nechanchi yilda Sankt-Peterburgga borib, imperator Aleksandr I qabulida bo'ladilar?

- A) 1800-yil
- B) 1801-yil
- C) 1802-yil
- D) #1803-yil

508. (8-o'zb-33)Yunusxoja davrida Toshkent shahar nazorati va soliq yig'ish kimning qo'lida bo'lgan?

- A) Bukey Sulton
- B) Rahmatulla

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- C) Azizxoja
- D) #Boshchixoja

509. (8-o'zb-33)Ma'lumki, 1800-yilning kuzida Qo'qon va Toshkent qo'shinlari G'urumsaroyda to'qnashgan edi. Bu hudud hozirda qaysi viloyatda joylashgan?

- A) Chimkent viloyati
- B) Toshkent viloyati
- C) #Namangan viloyati
- D) Sirdaryo viloyati

510. (8-o'zb-33)Toshkent hokimi Yunusxoja bilan yaqin aloqada bo'lgan Bukey Sulton qaysi bo'lis hokimi bo'lgan?

- A) Qorasuv
- B) #Qorakesak
- C) Qurama
- D) Sayram

511. (8-o'zb-33)Buxoro amirligi va Qo'qon xonligining Toshkent bekligiga nisbatan munosabatlarining keskinlashuviga nima sabab bo'lgan edi?

- A) Turkiston va O'tror shaharlarining Toshkent bekligiga qo'shib olinishi
- B) Toshkent bekligining Katta qozoq juzlarini bo'ysundirishi
- C) Toshkent bekligining Kichik qozoq juzlarini bo'ysundirishi
- D) #Markaziy Osiyo bilan Rossiyaning savdo munosabatlarida Toshkentning yetakchilik qilishga intilishi

512. (8-o'zb-33)Ma'lumki, 1799-yil Qo'qon xoni Olimxon tomonidan Toshkent ustiga qo'shin jo'natilgan edi. Ushbu jang qayerda bo'lgan?

- A) #Chirchiq bo'yidagi Qorasuv mavzeida
- B) Ko'krev daryosi bo'yida
- C) Chinoz va Toshkent oralig'ida
- D) Sirdaryoning chap sohilida

513. (8-o'zb-33)1799-yil Qo'qon xonligi qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratgan Yunusxoja qaysi hududni o'z bekligiga qo'shib oladi?

- A) Sayram va uning atrof qishloqlarini
- B) #Sirdaryoning o'ng sohilidagi Qurama mavzeini
- C) Qorakesak bo'lisi va Qorasuv mavzeini
- D) Turkiston va Tarozni

514. (8-o'zb-33)Ma'lumki, Toshkent xoni Yunusxoja tomonidan ikki turdagi pul muomalaga chiqarilgan bo'lib, ular ...

- A) dinor va dirham deb atalgan
- B) rupiya va fals-chaqa deb atalgan
- C) katta dinor va kichik dirham deb atalgan
- D) #rupiya va tanga deb atalgan

515. (8-o'zb-33)Manbalarda yozilishicha, 1787-yil Toshkentga qayerdan 27773 so'mlik rus va chet el mollari keltirilgan?

- A) Irbitdan
- B) Sibirdan
- C) #Troiskdan
- D) Petropavlovskdan

516. (8-o'zb-33)Sibir ma'muriyati tomonidan A.T.Beznosikov va T.S.Burnashevlar qachon elchi qilib Toshkentga jo'natilgan?

- A) #1794-yil
- B) 1798-yil
- C) 1812-yil
- D) 1915-yil

517. (8-o'zb-33)Bir yilda sodir bo'lgan voqealarni aniqlang.

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) mustaqil Toshkent bekligiga asos solindi, Toshkent qo'shinlari Chirchiq bo'yida Olimxon qo'shiniga zarba berdi
- B) 24 kishidan iborat Toshkent karvoni Semipalatinsk shahriga bordi, Norbo'tabiy vafot etdi
- C) Olimxon o'ziga "xon" unvonini qabul qildi, G'urumsaroyda jang bo'ldi
- D) #Toshkent elchilari Sankt-Peterburgga borib, imperator Aleksandr I qabulida bo'ldi, Yunusxoja vafot etdi

518. (8-o'zb-33)Toshkent hokimi Yunusxoja vafot etgach, uning o'rniga kim taxtga o'tirdi?

- A) Islomxoja
- B) #Sultonxoja
- C) Jahongirxoja
- D) Yusufxoja

519. (8-o'zb-33)1792-yil Muhammadxoja va Azizxoja boshliq Toshkent savdo karvoni Rossiyaning qaysi shahriga jo'natilgan edi?

- A) Irbitga
- B) #Sibirga
- C) Troiskga
- D) Petropavlovskga

520. (8-o'zb-33)Toshkent Qo'qon xonligiga qachon qo'shib olindi?

- A) 1800-yil
- B) 1803-yil
- C) 1806-yil
- D) #1809-yil

521. (8-o'zb-33)Manbalarda yozilishicha, 24 kishidan iborat Toshkent karvoni nechanchi yilda Semipalatinsk shahriga borgan edi?

- A) 1790-y.
- B) #1795-y.
- C) 1797-y.
- D) 1803-y.

522. (8-o'zb-34)Qaysi Qo'qon xoni davrida kambag'al va qalandarlarga yer maydonlari va chorva mollari berilib, ular mehnatga jalb qilingan edi?

- A) Muhammad Alixon
- B) Umarxon
- C) Xudoyorxon
- D) #Olimxon

523. (8-o'zb-34)Amir Nasrullo Qo'qon xonligini bo'ysundirgach, bu yerga kimni noib etib tayinlagan edi?

- A) Ollohqulini
- B) #Ibrohim dodxohni
- C) Abdurahmonbiyni
- D) Eshim Sultonni

524. (8-o'zb-34)Amir Nasrulloning Qo'qon xonligiga qilgan ikkinchi yurishi nima sababdan muvaffaqiyatsiz tugadi?

- A) #Xiva xoni Ollohqulixonning Buxoroga qilgan yurishi
- B) Qishning erta kelishi va amir qo'shinlarining yurishdan bosh tortishi
- C) Qo'qon xonligiga Musulmonqul boshchiligidagi qipchoqlarning yordamga kelishi
- D) Buxoroda amirga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon

525. (8-o'zb-34)Qaysi Qo'qon xoni davrida ayrim diniy arboblarning imtihon qilinishi, yolg'onchiligi fosh etilganlari jazolangan?

- A) Umarxon
- B) #Olimxon
- C) Muhammad Alixon
- D) Shohruxbiy

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

526. (8-o'zb-34)Qo'qon xoni Umarxonning Buxoro bilan o'rnatgan do'stona munosabatlari nima sababdan uzilib qoldi?
- A) Buxoro amirining Qo'qonga qilgan ikki yurishi
  - B) Umarxon tomonidan chegara hududda harbiy istehkomlarning qurilishi
  - C) #Jizzax va O'ratepa hududlari masalasidagi kurash
  - D) Umarxonning Turkiston va Toshkentni butunlay bosib olishi
527. (8-o'zb-34)Julek, Qamishqo'rg'on, Oqmachit, Qo'shqo'rg'on harbiy istehkomlari kimning davrida qurilgan?
- A) #Umarxon
  - B) Olimxon
  - C) Muhammad Alixon
  - D) Xudoyorxon
528. (8-o'zb-34)Quyidagi qaysi Qo'qon xonini ruhoniylar turli axloqsizlik va shariatga qarshi jinoyatlarda ayblab, unga qarshi ochiq targ'ibot olib borishgan?
- A) Umarxonni
  - B) Olimxonni
  - C) Xudoyorxonni
  - D) #Muhammad Alixonni
529. (8-o'zb-34)Soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lgan O'sh xalqi nechanchi yil qo'zg'olon ko'tardi?
- A) 1842-y.
  - B) #1845-y.
  - C) 1831-y.
  - D) 1851-y.
530. (8-o'zb-34)Xudoyorxon xonlik taxtiga o'tirgunga qadar qayerning hokimi edi?
- A) Farg'ona
  - B) Andijon
  - C) Marg'ilon
  - D) #Namangan
531. (8-o'zb-34)Nima sababdan butun Qo'qon xonligi hududida 1842-yili katta qo'zg'olon ko'tariladi?
- A) #Buxoro amirining Qo'qondagi noibi Ibrohim dodxoh Qo'qon xonligi aholisini avval undirib kelingan soliqqa qo'shimcha ravishda Buxoro amirligida joriy etilgan soliqlarni to'lashga majbur qilganligi
  - B) bir yilning o'zidan aholidan 7 yillik soliqning yig'ib olinganligi va Buxoro amirligi istilosi
  - C) Muhammad Alixonning o'zboshimchalik bilan yangi soliqlarni joriy etishi va Toshkentga qilingan muvaffaqiyatsiz yurish
  - D) Amir Nasrullo tomonidan shoir Nodira begim va Muhammad Alixonlarning qatl etilishi
532. (8-o'zb-34)Qo'qon xoni Xudoyorxon davrida qaysi holat mahalliy aholining qattiq noroziligiga sabab bo'lib, xonlikda hukmronlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish xavfini tug'dirdi?
- 1) qipchoqlarning Qo'qonga yoppasiga ko'chib kela boshlashlari;
  - 2) Xudoyorxon yosh bo'lganligi tufayli xonlikni qaynotasi Musulmonqul ruslar homiyligida boshqarishi;
  - 3) aholining suv uchun soliq to'laydigan bo'lishi;
  - 4) Xudoyorxonning o'z mavqeini yo'qotmaslik uchun ruslar bilan aloqa o'rnatishga intilishi.
  - 5) qipchoqlar mahalliy aholini shahardan haydab chiqarib, ularning uyjoylariga o'rnatishib ola boshlashlari;
  - 6) qipchoqlar tomonidan sug'orish inshootlarini qo'lga kiritilishi;
- A) 1, 2, 3, 4
  - B) 1, 4, 6
  - C) #1, 3, 5, 6
  - D) 2, 3, 4, 6
533. (8-o'zb-34)Qo'qon xoni Xudoyorxon kimning o'g'li hisoblanadi?
- A) Erdonabiy
  - B) #Sheralixon
  - C) Norbo'tabiy
  - D) Hojibek

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

534. (8-o'zb-34)Qo'qon xoni mingboshisi Musulmonqul qaysi rus vakili bilan maxfiy ravishda muzokaralar olib borgan edi?

- A) #V.Velyaminov-Zernov
- B) A.Beznosikov
- C) T.Burnashev
- D) I.Buxgols

535. (8-o'zb-35)Qoqon shahrida bozor qaysi kunlari bo'lgan?

- A) juma, shanba
- B) shanba, yakshanba
- C) #yakshanba, chorshanba
- D) payshanba, yakshanba

536. (8-o'zb-35)Qo'qon xonligida zakot to'lamaydigan boylar beklarga 9 buyumdan iborat in'om berishgan, bu qanday nom bilan atalar edi?

- A) "Qo'ra boshi"
- B) "Tutun haqi"
- C) # "Yig'im soliq"
- D) "Qozon puli"

537. (8-o'zb-35)Qo'qon xonligining qaysi hududlaridan oltin ma'dani qazib olingan?

- 1) Ko'krev daryosi;
  - 2) Oqdaryo sohili;
  - 3) Kosonsoy;
  - 4) Norin tumani;
  - 5) Pomir tog'i;
  - 6) Chirchiq daryosi bo'ylari;
  - 7) Chotqol daryosi yuqori oqimi;
  - 8) Oloy tog'i etagi.
- A) 1, 2, 3, 8
  - B) #1, 3, 6, 7
  - C) 2, 4, 5, 8
  - D) 3, 5, 6, 7, 8

538. (8-o'zb-35)Qo'qon xonligida "tutun haqi" zakoti qachon olingan?

- A) qishda
- B) #bahorda
- C) yozda
- D) kuzda

539. (8-o'zb-35)Nima uchun Qo'qon xonligida mehnatkash xalq deyarli hamma narsa uchun soliq to'lar edi?

- A) chunki, bu davlatda Buxoro xonligida mavjud bo'lgan barcha soliqlarning joriy etilishi tufayli
- B) #chunki, hamma qo'riq yerlar, chakalakzorlar, to'qaylar, daraxtzorlar, ko'llar, barcha yaylovlar xonning ixtiyorida edi
- C) chunki, mehnatkash aholi o'z yerlari daxlsizligini ta'minlash maqsadida shunday qilishga majbur bo'lgan
- D) chunki, bu davrda Qo'qon xonligining davlat xazinasi bo'shab qolgan edi

540. (8-o'zb-36)Tarixiy manbalarda Qo'qonga oid ma'lumotlar nechanchi asrdan boshlab uchraydi?

- A) V asr
- B) IX asr
- C) #X asr
- D) XV asr

541. (8-o'zb-36)Murodbek saroyi qaysi shaharda joylashgan?

- A) Qo'qon
- B) Namangan
- C) Andijon
- D) #Marg'ilon

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

542. (8-o'zb-36)... Qo'qon xonligidagi pilla sotiladigan asosiy bozor markazi edi.

- A) Qo'qon
- B) Andijon
- C) #Marg'ilon
- D) Rishton

543. (8-o'zb-36)Namangan shahrining nomi manbalarda qaysi asrdan boshlab uchraydi?

- A) XVI asr
- B) X asr
- C) XII asr
- D) #XVII asr

544. (8-o'zb-36)Qo'qon shahrining darvozalari nima sababdan 12 tani tashkil etgan?

- A) shaharga 12 ta ariqdan suv kirishi sababli
- B) shahardan 12 ta savdo yo'lining o'tganligi sababli
- C) #shaharning ma'muriy jihatdan 12 ta dahaga bo'linganligi sababli
- D) shahar aholisi 12 ta o'zbek urug'idan iborat bo'lganligi sababli

545. (8-o'zb-36)Boburning "Boburnoma" asarida yozilishicha Andijon shahrining nechta darvozasi bo'lgan?

- A) 9 ta
- B) #3 ta
- C) 4 ta
- D) 7 ta

546. (8-o'zb-37)Fazliy Namangoniy tomonidan 63 shoirning sherlarini o'z ichiga olgan "Majmuai shoiron" tazkirasi nechanchi yilda tuzilgan?

- A) 1812-y.
- B) 1818-y.
- C) #1821-y.
- D) 1837-y.

547. (8-o'zb-37)Muhammad Sharif Gulxaniy qachon va qayerda tavallud topgan?

- A) #1770-yil Tojikistonni Tavildara tumanida
- B) 1778-yil Buxoroni Oloy tumanida
- C) 1781-yil Qirgizistonni O'sh viloyatida
- D) 1783-yil Farg'onani Rishton tumanida

548. (8-o'zb-37)Boborahim Mashrab necha yoshidan boshlab tasavvuf ilmi bilan shug'ullana boshlagan?

- A) 18 yosh
- B) 7 yosh
- C) 13 yosh
- D) #15 yosh

549. (8-o'zb-37)Amir Umarxon nechanchi yillarda Marg'ilon hokimi bo'lgan edi?

- A) 1802-1810-yy.
- B) #1806-1807-yy.
- C) 1809-1810-yy.
- D) 1801-1805-yy.

550. (8-o'zb-37) *Dili tig'i sitamdin pora bo'lg'on xalqni ko'rdim,*

*Tani dard-u alamdin yora bo'lg'on xalqni ko'rdim.* Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?

- A) Maxmur
- B) Gulxaniy
- C) #Mashrab
- D) Turdi Farog'iy

551. (8-o'zb-37)XVIII-XIX asrning 1-yarmida Qo'qonda ... maktab, ... madrasa va masjid, Marg'ilonida ... maktab, ... madrasa va masjidlar faoliyat yuritgan.

- A) 80 ta, 20 ta, 130 ta, 40 ta
- B) 120 ta, 110 ta, 10 ta, 70 ta

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- C) 150 ta, 80 ta, 45 ta, 20 ta  
D) #120 ta, 40 ta, 80 ta, 10 ta

552. (8-o'zb-37)Quyidagi misralar kimning she'ridan olingan?

*Bu na gumbazdir, eshigi, tuynigidan yo'q nishon,  
Necha gulgun pok qizlar manzil aylabdur makon.  
Tuynigin ochib, alarning holidan olsam xabar,  
Yuzlarida parda tortug'liq tururlar, bag'riqon.*

- A) Nodira  
B) #Uvaysiy  
C) Maxmur  
D) Gulxaniy

553. (8-o'zb-37)Amiriyning g'azallar devoni 1882-yilda qayerda nashr qilingan?

- A) #Istanbulda  
B) Bombayda  
C) Toshkentda  
D) Anqarada

554. (8-o'zb-37)Maxmur Qo'qondagi qaysi madrasada o'qigan?

- A) Madrasai Oxund devonbegi  
B) Madrasai jome  
C) Madrasai Mohlaroyim  
D) #Madrasai Mir

555. (8-o'zb-37)Uvaysiyning adabiy merosi necha muxammasdan iborat?

- A) 37  
B) 19  
C) 33  
D) #29

556. (8-o'zb-37)Muhammad Alixon necha yoshida taxtga o'tirgan?

- A) #14 yoshda  
B) 12 yoshda  
C) 15 yoshda  
D) 18 yoshda

557. (8-o'zb-37)Quyidagi misralar kimning she'ridan olingan?

*Xalqini ko'rsang agar, o'lasi-yu qoq-u xarob,  
Ochligidan egilib, qomati misli kamalak.  
Bori-yo'q uylarini banda bayon gar qilsam,  
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak.*

- A) Mashrab  
B) Gulxaniy  
C) #Maxmur  
D) Uvaysiy

558. (8-o'zb-37)“Zarbulmasal” asariga kirgan masallarni aniqlang.

- A) “Tulki bilan Qarg'a”, “Ayiqlik bilan Bola”, “Ilon va Qarg'a”  
B) #“Maymun va Najjor”, “Tuya bilan Bo'taloq”, “Toshbaqa bilan Chayon”  
C) “Muymun bilan Butaloq”, “Ilon bilan Chayon”, “Bo'ri bilan Qo'zichoq”  
D) “Tulki bilan Qarg'a”, “Maymun va Najjor”, “Ilon bilan Chayon”

559. (8-o'zb-38)Quyidagi qaysi asar 1822-1848-yillar tarixi haqida ma'lumot beradi?

- A) “Tarixi muhojiron”  
B) “Tavorixi jahonnomayi”  
C) “Muntaxab uttavorix”  
D) #“Tavorixi manzuma”

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

560. (8-o'zb-38)Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiyning "Tarixi Shohruxiy" asari nechanchi yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi?
- A) 1822-y.
  - B) 1821-y.
  - C) #1872-y.
  - D) 1856-y.
561. (8-o'zb-38)Qo'qondagi Norbo'tabiy madrasasi xalq orasida qanday nom bilan mashhur edi?
- A) Madrasayi Jome
  - B) Dahmayi Jahon
  - C) Madrasayi Tunqotar
  - D) #Madrasayi Mir
562. (8-o'zb-38)Quyidagi allomalarni ularning asarlari bilan to'g'ri ko'rsating.
- 1) Abdulhakim Fazliy Namangoniy;
  - 2) Muhammad Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sumxon;
  - 3) Junayd Mulla Avaz Muhammad Mulla Ro'zimhammad;
  - 4) Mulla Ali qori Qunduziy.
- a) "Umarnoma";
  - b) "Tarixi jahonnomayi";
  - c) "Tavorixi manzuma";
  - d) "Muntaxab ut-tavorix".
- A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d
  - B) #1-a, 2-d, 3-b, 4-c
  - C) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c
  - D) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d
563. (8-o'zb-39)Boburiylarning qaysi hukmdori davrida Hindiston-Buxoro munosabatlari keskinlashdi?
- A) Akbarshoh
  - B) Jahongirshoh
  - C) #Shoh Jahon
  - D) Avrangzeb Olamgir
564. (8-o'zb-39)Jahongirxoja boshchiligidagi Sharqiy Turkistonliklarning Xitoydan mag'lubiyatga uchrashiga nimalar sabab bo'lgan edi?
- 1) Qo'qon xonining Sharqiy Turkistonga yuborgan qo'shinini chaqirib olishi;
  - 2) Qo'qon qo'shinlarining jang tugagandan so'ng yetib kelishi;
  - 3) Jahongirxoja qarindoshlarining xiyonatga qo'l urishi va Xitoy hududiga qochib ketishi.
  - 4) qo'zg'olonchilar safida mustahkam birlikning yo'qligi;
  - 5) Qo'qon-Buxoro munosabatlarining buzilishi va Qo'qon xonining Buxoro bilan o'voraliigi;
  - 6) Jahongirxoja qo'shinlari sonining ikki barabar kamligi;
- A) 2, 3, 6
  - B) #1,4,5
  - C) 1, 2, 6
  - D) 2, 5, 6
565. (8-o'zb-39)1789-yil Afg'oniston hukmdori Temurshoh Balxga qarshi qancha lashkar bilan yurish qildi?
- A) 80 ming
  - B) 30 ming
  - C) 70 ming
  - D) #100 ming
566. (8-o'zb-39)Xitoydan mag'lubiyatga uchragan Sharqiy Turkiston hokimi Yusufxoja o'z yerini tashlab Farg'ona vodiysiga kelgan edi. U bilan yana qancha uyg'ur oilasi ko'chib kelganini aniqlang.
- A) 30 ming
  - B) #70 ming
  - C) 25 ming
  - D) 100 ming
567. (8-o'zb-39)Afg'oniston hukmdori Temurshoh hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- A) 1747-1773-yillar
- B) 1790-1806-yillar
- C) #1773-1793-yillar
- D) 1793-7803-yillar

568. (8-o'zb-39)Nima sababdan Qo'qon xonligi-Xitoy munosabatlari keskinlashdi?

- A) Shimoliy savdo yo'llarining Xitoy tomonidan bosib olinishi
- B) sharqiy turkistonliklarning Qo'qon xoniga qarshi qo'zg'olonining Sin imperiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi
- C) Xitoy hukumati Qo'qonning Xitoyda yuritadigan savdo ishlarini taqiqlashi
- D) #Qo'qon xoni Muhammad Alixonning sharqiy turkistonliklarning Sin imperiyasiga qarshi boshlangan milliy-ozodlik kurashiga aralashuvi

569. (8-o'zb-39)Xitoy hukumati nechanchi yilda Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi?

- A) 1825-yil
- B) 1832-yil
- C) #1829-yil
- D) 1759-yil

570. (8-o'zb-39)1832-yilgi Xitoy-Qo'qon shartnomasiga ko'ra Qo'qon xonligi qanday imtiyozlarga ega bo'ldi?

- 1) Xitoy Sharqiy Turkistonda Qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qilgan;
  - 2) Qo'qon xoni Xitoy hududi orqali Hindiston bilan savdo qilish huquqiga ega bo'lgan.
  - 3) Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi berilgan;
  - 4) Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganda ulardan tortib olingan mol-mulklari evaziga Qo'qon xoniga tovon to'langan;
  - 5) xonlik hududiga ko'chirilgan uyg'ur aholisi 5 yilgacha Xitoy tomonidan moliyaviy taminlanishi ko'rsatilgan;
  - 6) Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi O'rta Osiyolik savdogarlar to'laydigan to'lovlarni yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berilgan;
- A) 1, 3, 6
  - B) 1, 2, 3, 5
  - C) 2, 4, 6
  - D) #1, 3, 4, 6

571. (8-o'zb-39)Buxoro va yosh Afg'oniston davlati munosabatlarining yomonlashuvining sababi....

- A) markazlashgan Afg'oniston davlatining tashkil topishi
- B) #har ikkala tomonning Amudaryo janubida yashovchi o'zbek qabilalari yerlarini bosib olishga intilishi
- C) afg'on hukmdori Ahmadshohning Chag'oniyon viloyatini bosib olganligi
- D) Buxoro qo'shinlarining Amudaryodan janubdagi afg'on qabilalari yerlariga hujumlari

572. (8-o'zb-39)Ma'lumki, 1789-yil Afg'oniston hukmdori Temurshoh va Buxoro amiri o'rtasida sulh imzolangan bo'lib, unga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi chegara qaysi hudud qilib belgilandi?

- A) #Amudaryo
- B) Balx
- C) Murg'ob
- D) Talikon

573. (8-o'zb-39)Qo'qon-Xitoy munosabatlari qachon yanada keskinlashdi?

- A) XVIII asr 70-yillarida
- B) XIX asr o'rtalarida
- C) #XIX asr 20-yillarida
- D) XIX asr oxirlarida

574. (8-o'zb-39)Muhammad Alixon Sharqiy Turkistonliklarni Xitoyga qarshi qo'llab-quvvatlash maqsadida ular ixtiyoriga kim boshchiligida qo'shin jo'natgan edi?

- A) Ibrohim dodxoh
- B) #Haqquli
- C) Muhammadbek

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

D) Hakim To'ra

575. (8-o'zb-39)XVI-XIX asrlarda Buxorodan Hindistonga boradigan asosiy savdo yo'li qaysi shahardan o'tgan?

- A) Hirot
- B) Badaxshon
- C) #Kobul
- D) Balx

576. (8-o'zb-39)1832-yilgi Xitoy-Qo'qon shartnomasi qaysi shaharda imzolangan edi?

- A) Qashg'ar
- B) #Pekin
- C) O'sh
- D) Qo'qon

577. (8-o'zb-40)Pyotr I ni Xiva xonligini Rossiya tobeligiga olishi nima sababdan amalga oshmay qoldi?

- A) Ustyurtda xivaliklarning rus qo'shinlariga tinimsiz hujum qilishi
- B) #Rossiya imperiyasining "Shimoliy urush" bilan bandligi
- C) qishning erta kirib qolishi va rus qo'shinlarining bunga tayyor emasligi
- D) rus qo'shinlari orasida kasallik va sarosimaning boshlanganligi

578. (8-o'zb-40)Qozoq juzlarining Rossiya tobeligiga o'tgan yillari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- 1) Kichik juz;
- 2) Katta juz.
- 3) O'rta juz;
- a) 1732-yilda;
- b) 1739-1740-yillarda;
- c) 1747-yilda
- A) 1-a; 2-c; 3-b
- B) 1-c; 2-b; 3-a
- C) #1-a; 2-c; 3-b
- D) 1-b; 2-a; 3-c

579. (8-o'zb-40)Moskvaga borib, podsho Mixail Romanov qabulida bo'lgan Buxoro elchisini aniqlang.

- A) Qulibek
- B) Mahammadbek
- C) #Odambiy
- D) Hoja Nafas

580. (8-o'zb-40)1583-1600-yillarda Moskvada Xiva elchilari necha marta bo'lishgan?

- A) #2
- B) 5
- C) 8
- D) 6

581. (8-o'zb-40)Quyidagi qaysi voqea ta'sirida Pyotr I o'zbek xonliklariga kirib borish maxfiy rejasini tuzadi?

- A) Xiva xoni Shohniyoz 1700-yilda Pyotr I huzuriga yashirincha elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'rashi hamda xonlik taxti vorisi Muhammadning ham shunday qilganidan keyin
- B) XVI asrda jahondagi yirik davlatlar tomonidan dunyoni bo'lib olish boshlangan davrda Rossiya tomonidan Qozon, Astraxan, Sibir xonliklarining zabt etilganidan keyin
- C) #1713-yili Xiva elchisi Xoja Nafas Sankt-Peterburgga borgach, podsho Pyotr I ga Amudaryo sohillaridagi qumlar oltinga boyligini, sohilda istiqomat qiluvchi aholi ko'p miqdorda oltin yuvib olayotganini aytgandan keyin
- D) 1717-yil A.Bekovich-Cherkasskiy va 1715-yil Ivan Buxgols ekspeditsiyalarining barbod bo'lishidan keyin

582. (8-o'zb-40)Rossiya hukumati 1721-yili Florio Benevenini O'rta Osiyoga elchi qilib jo'natgan edi. Unga qanday vazifalar topshirilgan?

- 1) Sharq mamlakatlariga olib boradigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish;
- 2) rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash;
- 3) Kaspiy va Orol dengizlari sohillaridagi oltin konlari xaritasi chizish;

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- 4) Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish;
- 5) xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish;
- 6) Hindistonga boriladigan savdo yo'llari xaritasini chizish;
- 7) qayerda qancha oltin borligini aniqlash va ularni xaritaga tushirish;
- 8) xonlikdagi qal'a va qo'shinlar ahvolini o'rganish;
- 9) Qo'qon xoni bilan Afg'onistonga qarshi ittifoq tuzish;
- 10) xonlikning Eron va Xiva bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish.

- A) 1, 3, 6, 9
- B) 2, 3, 6, 9, 10
- C) #1, 2, 4, 5, 7, 8, 10
- D) 2, 3, 5, 6, 7, 9, 10

583. (8-o'zb-40) Rossiya fuqaroligini qabul qilgan O'rta juz xonligi hukmdorini aniqlang.

- A) Surtoyshi
- B) #Semekexon
- C) Bulakayxon
- D) Abulxayrxon

584. (8-o'zb-40) Xiva taxti vorisi Muhammad nechanchi yilda Pyotr I ga elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'ragan edi?

- A) 1700-yil
- B) 1703-yil
- C) #1709-yil
- D) 1712-yil

585. (8-o'zb-40) XVI-XVII asrlarda Buxoro va Xiva xonliklariga Rossiyadan ... marta elchi kelgan edi.

- A) #12
- B) 18
- C) 15
- D) 20

586. (8-o'zb-40) 1619-yilda Moskvaga borgan Imomqulixonning elchisini aniqlang.

- A) Xoja Nafas
- B) Ibrohimbiy
- C) Qulibek
- D) #Odambiy

587. (8-o'zb-40) Pyotr I tomonidan O'rta Osiyoga yuborilgan Ivan Buxgols ekspeditsiyasi qayerda istehkom qurgan edi?

- A) Tobol daryosi bo'yida
- B) #Yamishchev ko'lida
- C) Yorkentda
- D) Irtish daryosi o'rta oqimida

588. (8-o'zb-40) Ivan Buxgols ekspeditsiyasi nima sababdan muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi?

- A) Qishning erta kirganligi va oziq-ovqat zaxiralarining tugaganligi
- B) #Qalmoqlar hujumiga uchrashi
- C) Ko'chmanchi qozoqlarning tez-tez uyushtirib turgan hujumlari
- D) Xiva xonining tashabbusi bilan ekspeditsiya vakillarining qirib tashlanishi

589. (8-o'zb-40) 1734-yil O'rta Osiyoga boradigan harbiy guruhning boshlig'i I. Kirillov kim bo'lgan?

- A) armiya polkovnigi
- B) Orenburg gubernatori
- C) arman savdogari
- D) #senat kotibi

590. (8-o'zb-40) "Orol dengizida Rossiya bayrog'ini ko'tarish" va Buxoro va undan Hindistonga boradigan yo'lni ochish rejasi qaysi ekspeditsiyaga tegishligini aniqlang.

- A) I. Buxgols
- B) Bekovich-Cherkasskiy

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- C) V.Perovskiy
- D) #I.Kirillov

591. (8-o'zb-40)Qaysi rus elchisi Buxoroda 3,5 yil turgan edi?

- A) #F.Beneveni
- B) I.Xoxlov
- C) I.Kirillov
- D) F.Berg

592. (8-o'zb-40)Quyidagi voqealarning xronologik ketma-ketlikda berilganini toping.

- 1) Or qal'asi qurildi
  - 2) Elchi Qulibek Peteburgga bordi
  - 3) O'rta juz qozoqlari Rossiya tobeligiga o'tdi
  - 4) Kichik juz Rossiya tobeligiga o'tdi.
- A) 1, 2, 4, 3
  - B) 3, 2, 4, 1
  - C) #2, 4, 1, 3
  - D) 2, 3, 1, 4

593. (8-o'zb-40)1583-1600-yillarda Buxoro xonligi elchilari Moskvada necha marta bo'lishgan edi?

- A) #5 marta
- B) 2 marta
- C) 23 marta
- D) 12 marta

594. (8-o'zb-40)Buxoro xonligiga kelib, 23 ta rus asirini ozod qilishga erishgan Rossiya elchisini aniqlang.

- A) F.Benivini
- B) I.Kirillov
- C) #I.Xoxlov
- D) F.Berg

595. (8-o'zb-41)Angliya va Rossiya davlatlari o'rtasida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari hududlari uchun raqobatchilikning kuchayishiga nimalar sabab bo'ldi?

- 1) O'rta Osiyo orqali Hindistonga, undan dengizga chiqish imkoniyatlari;
  - 2) o'z mollarini sotish va undan mo'may daromad olish uchun O'rta Osiyo bozorlarini egallash istagi;
  - 3) O'rta Osiyoning boy xomashyo manbalariga ega bo'lishga intilishlari;
  - 4) O'rta Osiyo davlatlarining Sharqqa chiqish uchun o'ziga xos darvoza ekanligi.
  - 5) Angliya va Rossiyaning O'rta Osiyo hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari;
- A) 2, 3, 4
  - B) 1, 3, 5
  - C) 1, 2, 3
  - D) #2, 3, 5

596. (8-o'zb-41)Qaysi voqea Rossiya olib borgan siyosatda harbiy yo'l bilan O'rta Osiyoni ishg'ol etish tomon burilish ro'y berganligining yaqqol isboti hisoblanadi?

- A) qozoq juzlarini o'z fuqaroligiga olishi
- B) A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida ekspeditsiyaning jo'natilishi
- C) #Raim va Kopal istehkomlarining qurilishi
- D) 1839-yil Xivaga Perovskiyning hujumi

597. (8-o'zb-41)1825-yil O'rta Osiyoga Murkrofd boshchiligida ingliz ekspeditsiyasi yuborilgan bo'lib, ekspeditsiya tarkibida necha kishi bo'lgan?

- A) 80 kishi
- B) #70 kishi
- C) 34 kishi
- D) 100 kishi

598. (8-o'zb-41)F.Berg boshchiligida Rossiya hukumati elchilari nechanchi yil O'rta Osiyoga yuborilgan edi?

- A) #1826-yil
- B) 1825-yil

## 8 - sinf O'zbekiston tarixi fanidan testlar

- C) 1831-yil
- D) 1807-yil

599. (8-o'zb-41)Angliya Afg'onistonga harbiy harakatlarni boshlagan yilni aniqlang.

- A) 1870-yil
- B) 1840-yil
- C) #1839-yil
- D) 1832-yil

600. (8-o'zb-41)O'zini arman savdogari deb tanitgan ingliz elchisini aniqlang.

- A) U.Murkrofd
- B) F.Berg
- C) F.Benivini
- D) #A.Byorns

601. (8-o'zb-41)Rus podshosi Nikolay I huzuriga elchi yuborib, Raim istehkomining qurilishidan noroziligini bildirgan Qo'qon xonini aniqlang.

- A) Umarxon
- B) Sheralixon
- C) #Xudoyorxon
- D) Murodxon

602. (8-o'zb-41)Quyidagi qaysi ekspeditsiya o'zi bilan olib kelgan 80 sandiq buyumlarni Buxoro qo'shbegisiga ko'rsatgan edi?

- A) F.Berg
- B) #U.Murkrofd
- C) A.Byorns
- D) F.Benevini